“MAKROIQTISODIYOT”

Ma’ruzalar matni

TOSHKENT - 2017

O’zbekiston Respublikasi Okiy va O’rta maxsus ta’lim vazirligi

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Biznes va tadbirkorlik kafedrasi”

MAKROIQTISODIYOT

Ma’ruzalar matni

TOSHKENT - 2017

Tuzuvchi: G.X. Nazarova. “Makroiqtisodiyot” fanidan маърузалар матни. T.: Toshkent Moliya instituti, 2017-yil, 243 bet.

Makroiqtisodiyot" fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiy tahlil va davlatning makroiqtisodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari - makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish,makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy kontseptsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini prognoz qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

Ma’ruzalar matnining asosiy maqsadi iqtisodiyot yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarda makroiqtisodiy jarayonlar va ularni tahlil qilish bo‘yicha ko‘nik-malarni shakllantirishdan iborat.

Ma’ruzalar matni ta’limning Davlat ta’lim standartlariga mos ravishda bajarildi.

Ma’ruzalar matni Toshkent Moliya instituti o’quv-uslubiy Kengashining 2017 yil 21 ноябрь 4/15 -sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: Yakubov I. TDIU “Makroiqtisodiyot”
kafedrasi i.f.n., dots.
Ergashev E.I. TMI, “Biznes va tadbirkorlik”
kafedrasi mudiri, i.f.n. dots.

KIRISH

Hozirgi sharoitda mamlakatimiz ta’lim tizimida yuz berayotgan o`zgarishlar tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarni jahon talablariga javob beradigan darajada bo`lishini talab etmoqda. Ayniqsa, bu iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot sohasidagi mutaxassisliklarni tayyorlashda oliy ta`lim muassasalarida o`qitiladigan iqtisodiy fanlar muhim o`rin tutadi.

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo`nalishlarda ko`zda tutilgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo`shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o`tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, printsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o`zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag’batlantirish siyosatini davom ettirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish[1] kabi vazifalar belgilangan bo`lib, bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko`p jihatdan mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining birlamchi bo`g’ini hisoblangan firmalar faoliyati, iste’molchilar hatti-harakati hamda turli resurslar va tovarlar bozorlari holatini alohida olingan tarzda tahlil qilish, ularni rivojlantirish omillaridan samarali foydalanish yo`llarini o`rganish kabi jarayonlarni tadqiq qilishga bog`liqdir.

Shunday jarayonlarni tadqiq qiluvchi fan sifatida “Makroiqtisodiyot” fani qatnashadi. Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini aks ettiruvchi materiallar, qoidalar va xulosalarni puxta o`zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondoshishlarini ta’minlash fanni o`rganish oldida turgan asosiy vazifalaridan biridir

[1] 2017 — 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI

1 MAVZU. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH

Reja

1. “Makroiqtisodiyot” kursining predmeti va ob’ekti, uning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi
2. Makroiqtisodiy tahlilning usullari va tamoyillari
3. Resurslar, tovarlar (va xizmatlar), daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishi
4. Makroiqtisodiy modellar tushunchasi va ko’rinishlari

Tayanch so’z va iboralar: *Makroiqtisodiyot, resurslar, tovarlar, xizmatlar, daromadlar, xarajatlar, transfertlar, soliqlar, rusurslar bozori, iste’mol bozori, makroiqtisodiy model, endogen o’zgaruvchilar, ekzogen o’zgaruvchilar, uy xo’jaligi, firmalar.*

1.“Makroiqtisodiyot” kursining predmeti va ob’ekti, uning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi

Makroiqtisodiyot (inglizcha Macroeconomics) zamonaviy iqtisodiy nazariyaning bo’limi bo’lib, uning doirasida iqtisodiy o’sish, ishchan faollikning tebranishlari, inflyatsiya va ishsizlik, shuningdek makroiqtisodiy siyosat masalalari o’rganiladi.

Makroiqtisodiyotning fan sifatida rivojlanishi bir xilda kechmagan va etakchi dunyoqarashlarning almashishiga olib kelgan qarashlardagi bir necha inqiloblar va aksil inqiloblar bilan kuzatilgan. Oldingi asrning boshlarida makroiqtisodiyotda turli shart-sharoitlarga asoslangan va yanada muhimligi makroiqtisodiy siyosat bo’yicha bir-biriga butunlay qarama-qarshi tavsiyalarni bir vaqtda ifoda etuvchi ta’limotning ikkita etakchi maktabi - neolassik va post-keynschilik shakllandi.

Makroiqtisodiyot ham mikroiqtisodiyot kabi iqtisodiy nazariyaning bir bo’limini ifoda etadi. Grek tilidan tarjima qilganda «makro» so’zi «katta»degan ma’noni anglatadi (mos ravishda «mikro» - «kichik»), «iqtisodiyot» so’zi esa - «xo’jalik yuritish» ma’nosini anglatadi. Shunday qilib, makroiqtisodiyot – bu iqtisodiyotdagi umumiy hatti-harakatlarni yoki uning yirik jamlanmalarini (agregatlarini) o’rganuvchi fandir, bunda iqtisodiyot murakkab yirik yagona pog’onaviy tashkil etilgan tizim sifatida, iqtisodiy jarayonlar va voqeliklar hamda ularning ko’rsatkichlarining yig’indisi sifatida qaraladi.

Birinchi bor «makroiqtisodiyot» atamasini taniqli norveg olimi iqtisodchi matematik, ekonometrikaning asoschilaridan biri, Nobel mukofotiga sazovor bo’lgan Ragnar Frish (Ragnar Frisch) o’zining 1933 yildagi maqolasida qo’llagan. Biroq mazmunan zamonaviy makroiqtisodiy nazariya Kembridj maktabi vakili taniqli ingliz iqtisodchisi lord Djon Meynard Keyns (John Maynard Keynes)ning fundamental mehnatlaridan boshlangan. 1936 yilda Keyns makroiqtisodiy tahlil

asoslarini qo’ygan «Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi» nomli kitobi chiqdi. Keyns ishining ahamiyati shunchalik buyuk ediki, natijada iqtisodiy adabiyotlarda shu vaqtgacha an’anaviy ravishda yagona mavjud bo’lgan iqtisodiy voqeliklarni klassik yondoshuv asosida o’rganuvchi, ya’ni mikroiqtisodiy tahlil (klassik modelga) qarshi turuvchi «Keynscha inqilob» atamasi va keynscha makroiqtisodiy model yoki keynscha yondoshuv yuzaga keldi.

Yakka tartibdagi bozorlarda alohida xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning (iste’molchi yoki ishlab chiqaruvchi) iqtisodiy hulq-atvorini o’rganuvchi mikroiqtisodiyotdan farqli o’laroq, makroiqtisodiyot iqtisodiyotni bir butun yaxlitlikda o’rganadi, butun iqtisodiyot uchun umumiy bo’lgan muammolarni tadqiq qiladi hamda yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, yalpi talab, yalpi taklif, yalpi iste’mol, investitsiyalar, umumiy narx darjasi, ishsizlik darajasi, davlat qarzi va boshqa shu kabi yalpi miqdorlar bilan bog’liq maslalarni inobatga oladi.

Makroiqtisodiyot o’rganadigan asosiy muammolar bo’lib iqtisodiy o’sish va uning sur’atlari; iqtisodiy davr va uning sabablari; bandlik darajasi va ishsizlik muammolari; umumiy narx darajasi va inflyatsiya muammolari; foiz stavkasi darajasi va pul muomalasi muammolari; davlat byudjeti holati, byudjet taqchilligini moliyalashtirish muammosi va davlat qarzi muammosi; to’lov balansi holati va valyuta kursi muammolari; makroiqtisodiy siyosat muammolari hisoblanadi.

Bu muammolarni mikroiqtisodiy tahlil jihatdan, ya’ni alohida iste’molchi, alohida firma va hatto alohida tarmoq darajasidan hal etish mumkin emas. Aynan shuning uchun qator umumiy yoki makroiqtisodiy muammolar mavjud, iqtisodiy nazariyaning mustaqil bo’limi, makroiqtisodiyot mustaqil fani yuzaga kelishi zarurati paydo bo’ladi.

Makroiqtisodiyotni o’rganishning muhimligi:

1) u makroiqtisodiy voqeliklar va jarayonlarni oddiy ravishda izohlabgina qolmay, shu bilan birga ular o’rtasidagi qonuniyatlarni va bog’liqliklarni aniqlaydi, iqtisodiyotdagi sabab-oqibat aloqalarini tadqiq qiladi;

2) makroiqtisodiy bog’liqliklar va aloqalarni bilish iqtisodiyotdagi mavjud vaziyatni baholashga imkon beradi va uni yaxshilash uchun nima qilish va birinchi navbatda siyosat vakillar qanday chora ko’rishlari kerakligini ko’rsatadi, ya’ni iqtisodiy siyosatni tamoyillarini ishlab chiqishga imkon beradi;

3) makroiqtisodiyotni bilish kelajakda jarayonlar qanday rivojlanishini oldindan ko’rish, ya’ni prognozlar tuzish, kelgusidagi iqtisodiy muammolarni oldindan ko’rishga imkoniyat beradi.

Makroiqtisodiy tahlilning ikki xil ko’rinishi farqlanadi: expost va exante makroiqtisodiy tahlili.

Expost makroiqtisodiy tahlil yoki milliy hisobchilik, ya'ni statistik ma'lumotlar tahlili bo'lib, iqtisodiy faoliyat natijalarini baholash, muammolar va salbiy voqeliklarni aniqlash, ularni hal etish hamda engib o'tish bo'yicha iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, turli mamlaktalar iqtisodiy imkoniyatlarni qiyosiy tahlilini o'tkazishga imkon beradi.

Exante makroiqtisodiy tahlil, ya'ni muayyan nazariy kontseptsiyalar asosida iqtisodiy jarayonlar va voqeliklarni prognozli modellashtirish bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda iqtisodiy voqeliklar va o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ochib berish imkonini beradi. Bu makroiqtisodiyotni fan sifatida namoyon bo'lishidir.

2. Makroiqtisodiy tahlil usullari va tamoyillari

Makroiqtisodiyot o'z tahlilida mikroiqtisodiyot qanday usullar va tamoyillarni qo'llasa shulardan foydalanadi. Iqtisodiy tahlilning shunday umumiy usullari va tamoyillariga abstraktlashtirish (iqtisodiy jarayonlar va voqeliklarni tadqiq qilish va tushuntirish uchun modellardan foydalanish); deduktsiya va induktsiya usllarini muvofiqlashtirish; normativ va pozitiv tahlilni muvofiqlashtirish; ispolzovanie printsipa «boshqa teng sharoitlarda» tamoyilidan foydalanish, iqtisodiy agentlarning oqilona hulq-atvori haqidagi farazlar va boshqalar taalluqli.

Makroiqtisodiy tahlilning xususiyati shundan iboratki, uning muhim tamoyili bo'lib agregatlash, ya'ni umumlashtirish qatnashadi. Iqtisodiy bog'liqliklar va qonuniyatlarni butun iqtisodiyot darajasida o'rganish, agar ularni umumlashtirib yoki agregatlar sifatida qaralsagina mumkin bo'ladi. Makroiqtisodiy tahlil umumlashtirishni talab etadi. Umumlashtirish alohida qismlarni bitta qilib birlashtirish, yig'ishni o'zida aks ettiradi.Umumlashtirish doimo abstraktlashtirishga, ya'ni iqtisodiy jarayonlar va voqeliklarning ahamiyatli bo'lmagan holatlaridan voz kechish hamda eng ahamiyatli, zarur o'zig xos belgilarini, qonuniyatlarini ajratishga asoslanadi. Umumlashtirish makroiqtisodiy agentlarni, makroiqtisodiy bozorlarni, makroiqtisodiy o'zaro bog'liqliklarni, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ajratadi.

Iqtisodiy agentlar hulq-atvorining eng o'ziga xos belgilarini aniqlashga asoslangan umumlashtirish, to'rtta makroiqtisodiy agentlarni ajratib ko'rsatish imkoniyatini ta'minlaydi:

1) uy xo'jaliklari,
2) firmalar,
3) davlat,
4) xorijiy soha.

1. Uy xo'jaliklari (households) – bu mustaqil, oqilona harakat qiluvchi makroiqtisodiy agent bo'lib, uning iqtisodiy faoliyatini maqsadi naflilikni

maksimallashtirish hisoblanadi.U iqtisodiyotda yuzaga keladigan vaziyatlarda: a) iqtisodiy resurslar (mehnat, er, kapital va tadbirkorlik qobiliyati) egasi. Iqtisodiy resurslarni sotib, uy xo'jaliklari daromad oladilar, ularning katta qismini iste'molga (iste'mol xarajatlari) sarflaydilar va shu sababdan b) tovar va xizmatlarning asosiy xaridori. Uy xo'jaliklari daromadning qolgan qismini jamg'aradilar va shuning uchun v) asosiy jamg'aruvchi yoki qarz beruvchi, ya'ni iqtisodiyotda kredit mablag'larini taklifini ta'minlovchi sifatida qatnashadi.

2)Firmalar (businessfirms) - bu mustaqil, oqilona harakat qiluvchi makroiqtisodiy agent bo'lib, uning iqtisodiy faoliyatini maqsadi foydani maksimallashtirish hisoblanadi. Firmalar a) iqtisodiy resurslarning xaridori, ular yordamida ishlab chiqarish jarayoni ta'minlanadi va shuning uchun b) iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushumni firmalar omilli daromadlar ko'rinishida uy xo'jaliklariga to'laydilar. Ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, kapital zahirasi qo'shimcha o'sishini ta'minlash va kapital eskirishini tiklash uchun firmalarga investitsion tovarlar (birinchi navbatda uskunalar) zarur, shu sababdan firmalar v) investorlar, ya'ni investitsion tovar va xizmatlarni xaridorlari hisoblanadilar. Firmalar o'z investitsion xarajatlarini moliyalashtirish uchun odatda qarz mablag'larini ishlatganligi sababli ular iqtisodiyotdagi asosiy qarz oluvchi, ya'ni kredit mablag'lariga talab bildiruvchi bo'lib qatnashadi.

3) Davlat (government) – bu iqtisodiy jarayonlarni borishiga ta'sir ko'rsatish, iqtisodiyotni tartibga solishda siyosiy va yuridik huquqga ega bo'lgan davlat muassasalari va tashkilotlari yig'indisidir. Davlat - bumustaqil, oqilona harakat qiluvchimakroiqtisodiy agent, osnovnayazadauning asosiy vazifasi – bozor zaifliklarini yo'q qilish (marketfailures) va jamiyat farovonligini maksimallashtirish– va shuning uchun a) ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchisi; b) davlat sohasini amal qilishini ta'minlash uchun tovar va xizmatlarni xaridori hamda o'zining ko'p sonli funktsiyalarini bajaruvchisi;v) milliy daromadni (soliqlar va transfertlar tizimi orqali)qayta taqsimlovchisi; g) davlat byudjetining holatiga qarab – moliya bozorida qarz beruvchi yoki qarz oluvchisi sifatida qatnashadi. Bundan tashqari, davlat d) bozor iqtisodiyotini amal qilishini tartibga soluvchisi va tashkilotchisi sifatida qatnashadi.

U iqtisodiyotni amal qilishining institutsional asoslarini yaratadi va ta'minlaydi (zakonodatelnayaqonuniy asos, havfsizlik tizimi, sug'urta tizimi, soliq tizimi va boshqalar), ya'ni «o'yin qoidalariniigri» ishlab chiqadi; pul emissiyasi bo'yicha yakka o'z huquqqa ega bo'lganligi uchun mamlakatda pul taklifini ta'minlaydi va nazorat qiladi; makroiqtisodiy siyosatni o'tkazadi va bu siyosat quyidagilarga bo'linadi:

- iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi tuzilmaviy
- iqtisodiyotning davriy tebranishlarini yumshatish va resurslarning to’liq bandligini, narxlarning barqaror darajasi hamda tashqi iqtisodiy muvozanatni ta’minlashga yo’naltirilgan kon’yunkturali (barqarorlashtiruvchi). Barqarorlashtirish siyosatining asosiy turlari bo’lib a) fiskal (yoki byudjet-soliq) siyosati; b) monetar (yokipul-kredit) siyosati v) tashqi iqtisodiy siyosat; g) daromadlar siyosati.

Xususiy va davlat sektorlariyopiq iqtisodiyotni tashkil etadi.

4) Xorijiy sektor (foreignsector) – jahonning barcha qolgan mamlakatlarini birlashtiradi va mustaqil oqilona harakat qiluvchi makroiqtisodiy agent hisoblanadi, va u ushbu mamlakat bilan quyidagilar orqali o’zaro hatti-harakatlarni amalga oshiradi:

a) xalqaro savdo (tovar va xizmatlar eksporti va importi)

b) kapitallarni ko’chishi (kapital eksporti va importi, ya’ni moliyaviy aktivlar).

Tahlilga xorijiy sektorni qo’shilishi ochiq iqtisodiyotni olishga imkon beradi.

Bozorlarni umumlashtirish ularning xar birini amal qilish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida, aynan esa xar bir bozorda talab va taklif hamda uning muvozanat shartlarini shakllanish xususiyatlarini tadqiq qilish; talab va taklif nisbati asosida muvozanatli narx va muvozanatli miqdorni aniqlash; xar bir bozorda muvozanatni o’zgarish oqibatlarini tahlili uchun amalga oshiriladi

Bozorlarni umumlashtirishto’rtta makroiqtisodiy bozorni ajratish imkonini beradi:

1) tovar va xizmatlar bozori (haqiqiy bozor),
2) moliya bozori (moliyaviy aktivlar bozori),
3) iqtisodiy resuslar bozori,
4) valyuta bozori.

1) tovar va xizmatlarning umumlashtirilgan bozorini (goodsmarket) olish uchun biz iqtisodiyot tomonidan ishlab chiqariladigan turli-tuman tovarlardan abstraktlashimiz va bu bozor amal qilishining eng muhim qonuniyatlarini, ya’ni tovar va xizmatlarga talab va taklifni shakllanish qonuniyatlarini ajratishimiz lozim. Talab va taklifning nisbati tovar va xizmatlarning muvozanatli narx darajasi miqdorini hamda ularni ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini olish imkoniyatini beradi. Tovar va xizmatlar bozorini shuningdek haqiqiy bozor deb ham yuritiladi (realmarket), chunki u erda haqiqiy aktivlar (haqiqiy qimmatliklar) sotiladi va sotib olinadi.

2) Moliya bozori (qarz mablag’lari bozori) (financial assets market) – bu moliyaviy aktivlar (pullar, aktsiyalar va obligatsiyalar)sotiladigan va sotib olinadigan bozordir. Bu bozor ikkiqismga bo’linadi:

a) pul bozori (money market) yoki pul ko'rinishidagi moliyaviy aktivlar bozori;

b) qimmatli qog'ozlar bozori (bonds market) yoki pul ko'rinishida bo'lmagan moliyaviy aktivlar bozori. Pul bozorida olish va sotish jarayonlari yuz bermaydi (pulni pulga sotib olish ma'nosizdir), biroq pul bozori amal qilishi, pulga bo'lgan talab hamda taklifni shakllanishi qonuniyatlarini tadqiq qilish makroiqtisodiy tahlil uchun juda muhimdir. Pul bozorini, uning muvozanat shartlarini o'rganish «pul narxi» (kredit narxi) sifatida qatnashuvchi muvozanatli foiz stavkasini va pul massasining muvozanatli miqdorini olish, shuningdek pul bozorida muvozanatni o'zgarish oqibatlari va uni tovar hamda xizmatlar bozoriga ta'sirini ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Pul bozorida asosiy vositachilar bo'lib pul omonatlarini qabul qiluvchi va kreditlar beruvchi banklar hisoblanadilar. Qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiyalar va obligatsiyalar sotiladi hamda sotib olinadi. Qimmatli qog'ozlarning xaridorlari bo'lib, birinchi navbatda o'z jamg'armalarini daromad olish (aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar bo'yicha foizlar) maqsadida sarflovchi uy xo'jaliklari hisoblanadilar. Aktsiyalarni sotuvchilari (emitentlari) sifatida firmalar, obligatsiyalarni sotuvchilari sifatida firmalar va davlat qatnashadilar. Firmalar o'z investitsion xarajatlarini moliyalashtirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish uchun mablag'lar olish maqsadida aktsiya va obligatsiyalarni chiqaradilar, davlat esa davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun obligatsiyalar chiqaradi.

3)Makroiqtisodiy modellarda resurslar bozori mehnat bozori bilan ifoda etilgan, chunki uning amal qilish (mehnatga talab va mehnat taklifini shakllanishi) qonuniyatlari makroiqtisodiy jarayonlarni, ayniqsa qisqa muddatli davrda tushuntirish imkoniyatini beradi. Mehnat bozorini o'rganishda biz turli mehnat ko'rinishlaridan, malaka va mutaxassis tayyorlash darajasidagi farqlardan abstraktlashimiz lozim. Uzoq muddatli makroiqtisodiy modellarda shuningdek kapital bozori ham tadqiq qilinadi. Mehnat bozori muvozanati iqtisodiyotda muozanatli mehnat miqdorini va muvozanatli «mehnat narxi» - ish haqi stavkasini aniqlash imkoniyatini beradi. Mehnat bozorida muvozanat bo'lmagan holat tahlili ishsizlik sabablari va shakllarini aniqlashga imkon beradi.

4) Valyuta bozori (foreign exchange market) – bu turli mamlakatlar milliy pul birliklari (valyutalar) bir biri bilan ayirboshlanadigan (dollarni ienaga, evroni funtga va shu kabi) bozor. Bir milliy valyutani boshqasiga ayirboshlash natijasida ayirboshlash (valyuta)kursi (exchange rate).shakllanadi.

3. Resurslar, tovarlar (va xizmatlar), daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishi

Tovarlar aylanmasida iqtisodiyot ikki sektorga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini (ishchi kuchi, kapital va erni) firmalarga sotib daromad oladilar va bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar

olishga ishlatadilar. Firmalar o’zlarining tovar va xizmatlarini sotib undan tushgan daromadni uy xo’jaliklaridan resurslarni sotib olishga ishlatadilar.

Quyida keltirilgan 1-chizmadan ko’rinib turibdiki, xaqiqatdan ham nima iste’mol qilish kerak, demak, nima ishlab chiqarish kerak, degan masalani uy xo’jaliklari hal qiladi. Uy xo’jaliklarining bunday qarori, firmalarning ishlab chiqarish rejalarini tuzish uchun asos bo’lishi kerak. Firmalar, o’z navbatida, noyob resurslardan foydalanish qarorlarini bir-biri bilan muvofiqlashtirishi lozim. Nihoyat, uy xo’jaliklari iste’mol qilish uchun rejalashtirgan ne’matlarni olishlari kerak, ya’ni ular iste’mol qilish bo’yicha qarorlarini bir-biri bilan moslashtirishi kerak bo’ladi.

Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalalarini ikkita bozor hal qiladi: ishlab chiqarish resurslari bozori va iste’mol ne’matlari bozori.

Talab va taklif modeli tadbirkorlar sektori bilan uy xo’jaliklari sektori o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Agar bu ikki sektor tovarlar bozorida oldi-sotdi bo’yicha o’zaro munosabatda bo’lsa, talab va taklif modeli tovar narxini va sotiladigan tovar hajmini aniqlaydi. Agar ular resurslar bozorida oldi-sotdi bo’yicha o’zaro munosabatda bo’lsalar model sotiladigan resurslar narxini va miqdorini aniqlaydi.



1 chizma. Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti “resurslar - mahsulotlar” va “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy aylanishi modeli.

Har bir bozor o’zining ikkita qaror qabul qiluvchi sub’ektiga ega: sotuvchilar va xaridorlar. Bozorda qabul qilinadigan qarorlarning muvofiqligi har bir ne’matning muvozanat narxi va muvozanat miqdori bilan ta’minlanadi. Narx talab va taklif munosabatlari natijasi sifatida, uy xo’jaliklari va firmalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish uchun muhim axborot bo’lib hisoblanadi. Bunday axborot bir vaqtning o’zida jamiyatdagi noyob ne’matlarni taqsimlash muammosini echish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, non narxining oshishi - xaridorlar uchun nonni iste’mol qilishni cheklash to’g’risida signal bo’lsa, firmalar uchun nonni ishlab chiqarishni oshirish va non bozoridagi muvozanatni tiklash to’g’risida muhim axborot bo’lib xizmat qiladi.

Narxlar noyob resurslarni ratsional taqsimlashni ta’minlaydi, ne’matlarni ratsional iste’mol qilishga, xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Narx er, kapital va resurslar egalarining daromadini aniqlaydi. Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalasini bozor hal qiladi. Muvofiqlashtirish masalasi bilan bog’liq xarajatlarga transaktsion xarajatlar deyiladi.

Bozor muvofiqlashtirishdan tashqari ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar qarorlarini vaqt bo’yicha tartiblashtiradi. Bu kelajakdagi ne’matlar (fyuchers) bozorining vujudga kelishi bilan bog’liqdir. Kelajakdagi ne’matlarning oldi-sotdisi, ularning narxlari to’g’risida tasavvurga ega bo’lishga, ularning kelajakda nisbatan noyobligi to’g’risida axborot beradi. Iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar bunday narx axborotlariga ko’ra, o’zlarining joriy xo’jalik rejalarini qayta ko’rib chiqadilar va o’zlarining iqtisodiy harakatlarini tartibga soladilar.

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning doiraviy oqimi modeli ko’rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya’ni davlat ishtiroki mavjud bo’lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi firmalar va uy xo’jaliklari o’rtasida amalga oshiriladi (1-chizma).

Uy xo’jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga etkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so’ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga etkazib beradilar. Ayni paytda “resurslar - tovarlar va xizmatlar” oqimiga qarama qarshi yo’nalishda “daromadlar - xarajatlar”ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya’ni, uy xo’jaliklari o’zlari etkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste’mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.



2-chizma. “Resurslar-tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli.

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko’rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo’lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o’zaro teng bo’lishi firmalarnining yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo’jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo’lishi shaklida namoyon bo’ladi. Bu ko’rsatkichlar o’rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko’tarilib ketishiga sabab bo’ladi. Davlat aralashuvi mavjud bo’lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko’rinish oladi.Bunda:

1-Er, mehnat, kapital.
2-Resurslar.
3-Tovar va xizmatlar.
4-Tovar va xizmatlar.
5-Resurslar.
6-Tovar va xizmatlar
7-Transfertlar.
8-Pul daromadlar (ish haqi, renta, foiz, foyda)
9-Iste’mol xarajatlari.
10-Sotishdan tushgan daromad.
11-Resurs xarajatlari.
12-Soliqlar.
13-Soliqlar.
14-Xarajatlar.
15-Xarajatlar.
16-Subsidiyalar.

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta’minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar

yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdolari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy sub'ekt- tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarinig kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan moliyaviy bozor orqali jamg'armalarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model mukammal emasligiga iqror bo'lamiz. Ammo shu ko'rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi. Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zaro teng bo'lishining asosiy shartidir Yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o'sishiga olib keladi . Bu esa o'z navbatida yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog'lanishlari o'rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko'rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa byudjet-soliq siyosati vositalari bo'lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o'zgartirish hamda pul-kredit siyosati vositalari yordamida mul massasini o'zgartirish orqali bajariladi.

4. Makroiqtisodiy modellar tushunchasi va ko'rinishlari

Makroiqtisodchilar tomonidan o'rganiladigan butun iqtisodiyotda yuz beradigan voqeliklar va jarayonlar oxir-oqibatda ko'plab uy xo'jaliklari hamda ko'plab firmalar o'zaro hatti-harakatlari natijasida yig'ilganligi sababli, mikro va makroiqtisodiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Butun iqtisodiyotni o'rganishda biz alohida iqtisodiy agentlarning qarorlarini e'tiborga olishimiz lozim. Masalan, yalpi iste'mol omillarini aniqlash uchun oilaning bugun qancha sarflashi, kelajak uchun qancha olib qo'yishi haqidagi qarorini tahlil qilishi kerak. Investitsiyalarning umumiy hajmini belgilovchi omillarni aniqlash uchun firmalarning yangi korxonalarni qurish haqidagi qarori to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish zarur. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar alohida shaxslar yoki korxonalar

qarorlari natijasida yig’iladigan o’zgaruvchilarning oddiy yig’indisi bo’lganligi uchun, makroiqtisodiyotning asoslari mikrodarajada qo’yiladi.

Makroiqtisodiy modellar asosida xar doim mikroiqtisodiy darajada qabul qilinadigan qarorlar tursa, firmalar va uy xo’jaliklari nuqtai nazaridan maqbul bo’lgan ko’plab modellarda ularninghatti-harakatlarini aniqlovchi qarorlar yaqqol ko’rinishda bo’lmaydi, balki ko’zda tutiladi.Bizning non bozori modelimiz bunga misol bo’lib xizmat qiladi. Nonga bo’lgan talab asosida uy xo’jaliklarining sotib oladigan nonlari miqdori haqidagi qarorlar yotsa, non taklifi nonvoyxonalarning non ishlab chiqarish hajmlari to’g’risidagi qarorlari bilan aniqlanadi. Uy xo’jaliklari qarorni naflilikni maksimallashtirishdan kelib chiqqan holda, nonvoyxonalar esa foydani maksimallashtirishdan kelib chiqqan holda qabul qilishlari ko’zda tutiladi. Shu bilan birga, bu mikroiqtisodiy qarorlar modelda o’zidan o’zi qatnashmaydi: ular uning “foni”ni tashkil etadi. Xuddi shunday firmalar va uy xo’jaliklari tomonidan qabul qilinadigan ular nuqtai nazaridan maqbul hisoblangan qarorlar faqat yopinchiqli ko’rinishda va butun makroiqtisodiyotda qatnashadi.

Iqtisodchilar modellar nomini olgan soddalashtirilgan nazariyalarni qo’llab iqtisodiyot haqidagi qarashlarni tuzishga urinadilar. Modellarda ko’pincha matematik ko’rinishda turli iqtisodiy o’zgaruvchilar o’rtasidagi nisbat ifodalanadi. Modellarni qo’llash ahamiyatli bo’lmagan qismlarga e’tibor bermaslik va ahamiyatli iqtisodiy bog’liqliklarni aniqlashga imkon berganligi uchun ham maqsadga muvofiqdir.

Modellarda ikki xil: ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) o’zgaruvchilar qo’llaniladi. Ekzogen o’zgaruvchilar tashqaridan kiritiladi-bu dastlabki ma’lumotlar; endogen o’zgaruvchilar model “ichida” shakllanadi- ular uni hal etishning natijasi hisoblanadi. Boshqacha aytadigan bo’lsak, ekzogen o’zgaruvchilarning miqdori modelni qurish boshlanguncha beriladi, endogen o’zgaruvchilarning miqdori esa model bo’yicha hisob-kitoblar qilish jarayonida aniqlanadi. 1-rasmda ko’rsatilganidek, modelning maqsadi ekzogen o’zgaruvchilar endogen o’zgaruvchilarga qanday ta’sir qilishini aniqlash hisoblanadi.



1-rasm. Model nimani ko’rsatadi.

Model iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi asosiy bog'liqliklarni soddalashtirilgan nazariy asoslanishi hisoblanadi Ekzogen o'zgaruvchilar - bu tashqaridan kiritiladigan o'zgaruvchilar. Endogen o'zgaruvchilar – bu ushbu model bilan tushuntiriladigan o'zgaruvchilar. Model ekzogen o'zgaruvchilardan birining o'zgarishi endogen o'zgaruvchilarga qanday ta'sir etishini ko'rsatadi.

Masalan, non bozori modeli qanday qurilishini ko'rib chiqamiz. Iqtisodchi nonga bo'lgan talab hajmi Q^d non narxi P_b va yalpi daromad Yga bog'liq deb faraz qiladi. Bu bog'liqlik quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$Q^d = D(P_b, Y)$$

Xuddi shunday iqtisodchi nonvoyxonalartomonidan taklif qilinadigan nonlar miqdori Q^s nonning narxi P_b va nonni ishlab chiqarishda foydalanilayotgan unning narxi P_f ga bog'liq deb faraz qiladi:

$$Q^s = S(P_b, P_f)$$

Nihoyat, iqtisodchi talab va taklif muvozanati ta'minlanishi uchun nonning narxi shunday o'zgarashini faraz qiladi:

$$Q^d = Q^s$$

Bu uchta tenglama non bozori modelini tashkil etadi.

Non bozori modeli talab va taklifning 1-3 rasmda ko'rsatilgan diagrammasi bilan namoyon etiladi. Talab egri chizig'i yalpi daromadning doimiy darajasida nonga bo'lgan talab bilan non narxi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Talab egri chizig'i pastga yo'naltirilgan, chunki non narxi qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molchilar shunchalik ko'p darajada boshqa oziq –ovqatlarni iste'mol qila boshlaydilar va shunchalik kam non sotib oladilar. Taklif egri chizig'i nonning taklif qilinayotgan miqdori va unning doimiy narxida non narxi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi.Taklif egri chizig'i yuqoriga yo'naltirilgan, chunki nonning narxi qanchalik yuqori bo'lsa, nonvoyxonalar shunchalik ko'proq miqdorda non ishlab chiqaradi. Ikki egri chiziqning kesishish nuqtasi bozor muvozanati holatiga mos keladi, bunda nonga muvozonatli narx o'rnatiladi va taklif qilinayotgan non miqdori talabga mos keladi.

Modelda bir ekzogen o'zgaruvchining o'zgarishi ikkala endogen o'zgaruvchilarga qanday ta'sir etishini ko'rsatadi. Masalan, yalpi daromad oshganda 1-4 rasmda ko'rsatilganidek nonga talab oshadi. Xuddi shunday, 1-5 rasmda ko'rsatilganidek un narxi oshganida non taklifi kamayadi. Modelda ushbu holatda non narxining muvozanatli darajasi oshishi, non miqdorining muvozanatli darajasi kamayishi ko'rsatiladi. Shunday qilib, model yalpi daromadning yoki un narxining o'zgarishi non bozoriga qanday ta'sir etishi mumkinligi yaqqol namoyon etadi.



4- rasm. **Talab va taklif egri chiziqlari.**

Non bozori modelida ikkita ekzogen va ikkita endogen o'zgaruvchilar bor. Un narxi va yalpi daromad-ekzogen o'zgaruvchilar. Modelda ularni tushuntirish maqsad qilib qo'yilmagan, ular oldindan berilgan (ular boshqa model bilan tushuntirilishi mumkin) sifatida qabul qilinadi. Bu modelda endogen o'zgaruvchilar bo'lib non narxi va sotilgan non miqdori hisoblandi. Ushbu model bu o'zgaruvchilarni tushuntirishi tan olingan.



5- rasm.**Talabning oshishi.**

Yalpi daromadning oshishi nonga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi-ushbu narxda iste'molchilar endi nonni ko'proq olishga intiladilar. Bu talab egri chizig'ining o'ngga – yuqoriga siljishi bilan aks ettirilgan. Nonning narxi taklif yana talab bilan muvozanatlashmagunga qadar ko'tarilib boradi. Non narxining muvozanatli darajasi va taklifi oshib boradi.



6- rasm. **Taklifning qisqarishi.**

Un narxi ko'tarilganda non taklifi pasayadi – nonning xar qanday ushbu narxida uning savdosi kam foydali bo'lib qoladi va ishlab chiqarish qisqaradi. Bu taklif egri chizig'ini chapga-yuqoriga siljishi bilan aks ettirilgan. Talab va taklif egri chiziqlari kesishishining yangi nuqtasi paydo bo'ladi. Non narxining muvozanatli darajasi ko'tariladi, miqdorning muvozanatli miqdori esa kamayadi.

Barcha modellarda bo'lgani kabi non bozori modelida ba'zi soddalashtiruvchi farazlar qabul qilingan. Modelda masalan, barcha nonvoyxonalar turli joylarda joylashganligi e'tiborga olinmagan. Xar bir iste'molchiga qaysidir nonvoyxona boshqalariga qaraganda qulayroq, shuning uchun ham nonvoyxonalar o'z narxlarini o'rnatishda ba'zi imkoniyatlarga egalar. Modelda nonga yagona narx ko'zda tutilgan bo'lsada, haqiqatda xar bir nonvoyxonada narx turlicha bo'lishi mumkin.

Modelning haqiqatga bunday muvofiq kelmasligiga qanday munosabatda bo'lish kerak? Nonga bo'lgan talab va taklifning oddiy modelini qo'llashdan voz kechish kerakmi? Biz nonga turli narxlarni kiritish imkonini beruvchi murakkabroq modelni yaratishimiz lozimmi? Bu savollarning javoblari biz tomondan qo'yilgan maqsadlarga bog'liq. Agar, bir tomondan bizning maqsadimiz unning narxi sotilayotgan nonning o'rtacha narxi va miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushuntirish hisoblansa, unda narxlarning farq qilishi, ehtimol, unchalik katta ahamiyatga ega emas. Non bozorining oddiy modeli bu savolga javob berishga to'liq qodir. Boshqa tomondan, agar bizning oldimizda nima uchun uchta nonvoyxona bo'lgan shaharda bitta nonvoyxona bo'lgan shahardagiga

qaraganda nonning narxi pastroqligini tushuntirish masalasi turgan bo'lsa, oddiy model kam naf berar edi.

Qachon u yoki bu faraz asosiyni ikkinchi darajalidan ajratishga imkon berishini, qachon u noto'g'ri natijalarga olib kelishini aniqlash – bir butun san'atdir. Haqiqatning barcha turli – tumanliklarini to'liq aks ettiruvchi xar qanday model tushunish uchun juda murakkabdir. Soddalashtirish modelni ishlab chiqish jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, agar modelda iqtisodiyotning muhim xususiyatlari e'tibordan chetda qolsa, noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Ba'zan ushbu holatda nima muhim hisoblanishini aniqlash qiyin, chunki bir masalalarni ko'rib chiqishda o'zini oqlagan farazlar, boshqalarini ko'rib chiqishda noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy modellashtirish ehtiyotkorlikni va sog'lom fikrlashni talab etadi.

Barcha iqtisodiy modellar iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ifoda etadi. Ko'pincha bu bog'liqliklar funktsiyalar ko'rinishida ifodalanadi. Funktsiya – bir o'zgaruvchilar to'plamini boshqasiga bog'liqligini aks ettiruvchi matematik tushuncha.

2-mavzu. MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR

Reja

1. Milliy hisobchilik tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash asosi

2. YaIMni hisoblash usullari.

3. Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

4. Nominal va real YaIM

Tayanch so'z va iboralar: makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, sof ichki mahsulot,milliy daromad, shaxsiy daromad, ixtiyordagi daromad, yakka tartibdagi soliqlar, daromadlar usuli, xarajatlar usuli, qo'shilgan qiymat, joriy narxlar, bazis narxlar, nominal ko'rsatkichlar, real ko'rsatkichlar, deflyator, iste'mol narxlari indeksi.

1.Milliy hisobchilik tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash asosi

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini oladi. Milliy iqtisodiyot me'yorida faoliyat qilish va barqaror o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, YaIMni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Muayyan mamlakat iqtisodiy holatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar deb yuritiladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar miqdor va sifat ko'rsatkichlariga guruhlanadi. Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlari muayyan mamlakatlar iqtisodiyotini ifodalasa, sifat ko'rsatkichlari mazkur mamlakatlar iqtisodiyotini nisbiy jihatdan aks ettiradi. Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi : Yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki maxsulot (SIM), milliy daromad (MD), shaxsiy daromad (ShD), ixtiyordagi daromad (ID) va boshqalar. Makroiqtisodiy sifat ko'rsatkichlariga kuyidagi ko'rsatkichlar kiradi : inflyatsiyaning o'sish sur'atlari, ishsizlik darajasi, aholining ish bilan bandlik darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha qatnashuvchilarning (korxona, tarmoq, mintaqa, davlat) faoliyatlari natijasida aniqlanadi. Ular mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini, uning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini narxlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy ishlab chiqarishning kengaytirilgan tushunchasiga amal qilinadi. Shu ma'noda, ijtimoiy ishlab chikarish - iqtisodiyotning daromad yaratuvchi barcha soxalarining ishlab chiqarishidir. Bu erda moddiy ishlab chiqarish soxalaridan tashqari, pulli xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlar (moliya, sug'urta, sog'liqni saqlash, maorif va boshqalar) xam ijtimoiy ishlab chikarishga kiradi. Shu sababli, Bozor iktisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda yaratilgan ijtimoiy maxsulot tarkibiga tovarlar xam, xizmatlar xam, milliy daromadda esa, tovarlarni sotishdan, xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar xisobga olinadi, ijtimoiy ishlab chiqarishdan chetda fakat bepul xizmatlar ko'rsatish jarayonlari qoladi. Chunki bepul xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarda daromad yaratilmaydi va xar qanday mamlakatda bu tarmoqlar davlat xisobiga faoliyat ko'rsatadi. Ijtimoiy ishlab chikarish tushunchasidagi farq

natijasida, mamlakatlar o'zining mazmuniga ko'ra ajratib turuvchi ko'rsatkichlardan foydalanadi, ularni xisoblashning turli uslublari ko'llaniladi.

2. YaIMni hisoblash usullari

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bu - yalpi ichki mahsulotdir. Yalpi ichki mahsulot – bu muayyan davr mobaynida (bir yil) kim tomonidan yaratilishidan qatiy nazar mamlakat hududida yaratilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning bozor qiymatidir.

YaIM - bu biror-bir mamlakat xududida joylashgan korxona va tashkilotlarda ishlab chirarilgan tovar va xizmatlarning umumiy yiuindisidan iboratdir.

Yalpi ichki mahsulot 3 xil usul asosida aniqlanadi ;

1)<u>Ishlab chiqarish usuli</u> – bunda yalpi ichki mahsulot barcha qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot = $\sum$ QQ

2) <u>Xarajatlar usuli</u> – bunda yakuniy iste'molchilarning xarajatlari yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot = C + I + G + Xn

Bu erda S – shaxsiy iste'mol xarajatlari; I– investitsiya xarajatlari ya'ni xususiy ichki investitsiyalar ; G – davlat xarajatlari ya'ni tovar va xizmatlarnin davlat xaridi ; Xn – chet elliklarning xarajatlari, ya'ni sof eksport;

3) <u>Daromadlar usuli</u> – bunda yalpi ichki mahsulot barcha yakuniy iste'molchilarning daromadlari yig'indisi sifatida aniqlanadi. Shu bilan birga yalpi ichki mahsulot tarkibiga biznesga egri soliqlar va amortizatsiya ham kiritiladi.

YaIM = amortizatsiya + biznesga egri soliqlar + ijara haqi + foiz ko'rinishidagi daromadlar + yollanma ishchilarning ish haqi + yakka tartibdagi qo'yilmalardan daromadlar + korporatsiya foydasiga soliqlar + dividentlar + korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi.

Ko'plar YaIMni iqtisodiyot ahvolini eng yaxshi ko'rsatkichi deb hisoblaydilar. AQSh iqtisodiyot vazirligi tomonidan xar uch oyda hisoblanadigan statistik ma'lumotlar iqtisodiy faoliyat natijalarini yagona qiymat ko'rsatkichida aks ettirishga mo'ljallangan. YaIM ni aniqroq quyidagicha tasavvur etish mumkin:

- Barcha iqtisodiy agentlarning yalpi daromadi;
- Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga xarajatlarning umumiy hajmi.

YaIM iqtisodiyot ahvolini tavsiflashi mumkin, chunki odamlar kam daromadga qaraganda ko'prog'ini afzal ko'radilar. Shunga o'xshash, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi qanchalik yuqori bo'lsa, shaxsiy, ishlab chiqarish va davlat ehtiyojlarini qondirish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

YaIM bir vaqtning o'zida ham iqtisodiyotdagi daromadni, ham ishlab

chiqarishga xarajatlar hajmini o'lchaydi, chunki oxir-oqibat bu miqdorlar bir xil: butun iqtisodiyot uchun daromadlar hajmi xarajatlar hajmiga teng bo'lishi lozim. Bunga ishonch hosil qilish uchun, biz milliy hisobchilikni, YaIM va u bilan bog'liq boshqa bir qator ko'rsatkichlarni o'lchashning statistik tizimini o'rganishimiz lozim.

YaIM iqtisodiyotdagi pul oqimlarini ifodalaydi. Biz uni ikki usul bilan hisoblashimiz mumkin. YaIM – bu non ishlab chiqarishdan olingan yalpi daromad bo'lib, u ish haqi va foyda yiqindisiga teng- pullar doiraviy aylanish chizmasining yuqoridagi yarmi. Shu bilan bir vaqtda, YaIM – bu nonni sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiy hajmidir-pullar doiraviy aylanish chizmasining pastki yarmi. Shunday qilib, biz yo firmalardan uy xo'jaliklariga pullar oqimini yoki uy xo'jaliklaridan firmalarga pullar oqimini olishimiz mumkin.

Daromadlar va xarajatlar tengligi hisobga olish qoidalaridan kelib chiqadi: mahsulotlarni sotib olishga barcha xarajatlar albatta bu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning daromadi hisoblanadi. Bu qoidaga muvofiq, xarajatlar hajmi o'zgarishi yuz beradigan xar qanday bitim natijasida daromad o'zgarishi ham yuz beradi va daromad o'zgarishiga olib keluvchi xar qanday bitim natijasida xarajatlar hajmi o'zgarishi yuz beradi. Faraz qilaylik, masalan firma uy xo'jaliklariga 1 ta nonni ko'proq ishlab chiqaradi va sotadi. Bu operatsiyada nonga xarajatlarning umumiy miqdori ko'payadi, biroq bunda daromadlarning umumiy hajmi ham o'zgaradi. Agar firmaga qo'shimcha nonni ishlab chiqarish uchun qo'shimcha xodimlarni yollash talab etilsa, unda ish haqining umumiy miqdori oshadi. Agar firma qo'shimcha nonni qo'shimcha xodimlarni jalb etmay ishlab chiqarsa (ishlab chiqarish jarayonini samaraliroq qilib), unda foyda ko'payadi. Ikkala holda ham xarajatlar ham, daromadlar ham bir xil miqdorga ko'payadi.

Faqat non ishlab chiqarilayotgan gipotetik iqtisodiyotda biz YaIMni nonni sotib olishga qilingan barcha xarajatlarni qo'shib oddiygina hisoblashimiz mumkin. AQSh YaIMni hisoblash ancha qiyin vazifani o'zida aks ettiradi. Bunday yirik va murakkab iqtisodiyotda YaIMni hisoblashda tovar va xizmatlarga qilingan xarajatlarni to'g'ridan to'g'ri qo'shiladi deb fikr yuritib bo'lmaydi. Bu kitobda biz YaIMni hisoblashning to'liq uslubiyatiga kirib bormasakda, YaIM tushunchasi haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish uchun uni shakllantirishning asosiy tamoyillarini bilish kerak.

Faraz qilaylik,faqat bitta tovar turi ishlab chiqarilayotgan iqtisodiyotda firma nonni ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun qo'shimcha ishchilarni yollaydi, ularga ish haqi to'laydi, keyin esa qo'shimcha ishlab chiqarilgan nonni firma sota olmaydi. Bu YaIM miqdoriga qanday ta'sir etadi?

Bu savolga javob sotilmay qolgan non bilan nima yuz berishiga bog'liq. Bir tomondan, agar non tashlab yuborilgan bo'lsa, unda firmaning foydasi qo'shimcha

to’langan ish haqi miqdoriga kamayadi- firma ish haqi sifatida katta miqdorni to’ladi, biroq o’zi uchun bundan hech qanday naf olmadi. Bu operatsiya xarajatlar hajmiga ham, daromad darajasiga ham ta’sir ko’rsatmaganligi sababli YaIM miqdori (uning ish haqi ulushiga to’g’ri keladigan qismi endi ko’p, foyda hissasiga to’g’ri keladigan qismi kam bo’lishiga qaramay) o’zgarmay qoladi. Boshqa tomondan, agar non uni keyinroq sotish uchun zahiraga olib qo’yilgan bo’lsa, unda milliy hisobchilik tamoyillariga muvofiq, bu operatsiya boshqacha hisobga olinadi. Bu holda foyda qisqarmaydi, chunki bu firma egalari firma zahiralari uchun non “sotib olishi” bilan bir xildir. Shunday qilib, YaIM miqdori ortadi: yuqoriroq ish haqi tufayli daromad oshadi, zahiralar jamg’arilishi sababli esa xarajatlar miqdori ko’payadi.

Umumiy qoida shundan iboratki, firma tovarlar zahiralarini ko’paytirganda, zahiralarga investitsiyalar hajmi ham xarajatlar tarkibiga, ham daromadlar tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, agar ishlab chiqarish natijasida zahiralar qo’shimcha o’sishi yuz bersa, bunda YaIM xuddi bevosita sotish uchun ishlab chiqarilgani kabi ortadi.

Biz YaIM tahlilini iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan yagon tovar non hisoblangandagi taklifdan boshladik. Haqiqatda esa iqtisodiyotda sezilarli miqdordagi turli-tuman tovarlar va xizmatlar: non, gamburgerlar, avtomobillar, sartaroshlik xizmatlari va shu kabilar ishlab chiqariladi. YaIMda bu turli tovarlar qiymati bitta yig’ilgan ko’rsatkichda ifoda etiladi. Iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning turli-tumanligi YaIMni hisoblashni qiyinlashtiradi, chunki barcha bu tovarlar turli qiymatga egalar.

Faraz qilaylik, misol uchun, iqtisodiyotda uchta apelsin va to’rtta olma ishlab chiqariladi. Biz YaIMni qanday hisoblaymiz? Biz olma va apelsinlar miqdorini oddiygina qo’shib, YaIM mevalarning etti birligiga ega deyishimiz mumkin. Biroq bu faqat olmalar va apelsinlar bir xil qiymatga ega bo’lgan holdagina ma’noga ega bo’lishi mumkin, bu esa noto’g’ri. (bu misol agar biz iqtisodiyotda to’rtta tarvuz va uchta greypfrut ishlab chiqariladi deb faraz qilganimizda yanada yaqqolroq bo’lardi).

Turli tovarlar umumiy qiymatini hisoblash uchun biz ular qiymatini ifodasi sifatida ularning bozor narxini qo’llaymiz. Bozor narxi qo’llanilishining sababi, u odamlar muayyan tovar yoki xizmatlar uchun to’lashga tayyor bo’lgan pul miqdorini o’zida aks ettiradi. Agar olmalar donasi 50 tsent tursa, apelsinlar esa donasi 1 dollar tursa, unda YaIM quyidagiga teng bo’ladi:

YaIM = (olma narxi *olmalar miqdori) +
(apelsin narxi * apelsinlar miqdori)=
= (0,50*4) + (1,00*3)= 5,00

YaIM 5 dollarga teng, ya’ni barcha olmalar qiymati (2 dollar) qo’shuv barcha apelsinlar qiymati (3 dollar)

Ko’plab tovarlarni ishlab chiqarish bir qancha bosqichlardan o’tadi: bir firmada xom ashyo oraliq mahsulotlarga aylanadi va keyin boshqa firmaga tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun sotiladi.Biz bunday tovarlarni YaIMni hisoblashda qanday hisobga olishimiz lozim? Faraz qilaylik fermer MakDonaldsga 0,50 dollarga go’shtning chorak funtini sotadi, MakDonalds esa keyin Sizga gamburgerlarni 1, 50 dollardan sotadi. YaIM da ham go’shtni, ham gamburgerni qiymati (2 dollar miqdorida) hisobga olinishi lozimmi yoki faqat gamburger qiymati (1, 5 dollar) mi?

Bu savolga javob quyidagicha bo’ladi: YaIMga faqat yakuniy mahsulotlar qiymati kiritiladi. Shunday qilib, gamburger qiymati YaIMning bir qismi hisoblanadi, go’sht qiymati esa yo’q; YaIM 2 dollarga emas, faqat 1,5 dollarga ko’payadi. Buning sababi shundan iboratki, oraliq mahsulotning qiymati yakuniy mahsulot qiymatiga kiritib bo’lingan. Oraliq mahsulot qiymatini yakuniy mahsulot qiymatiga qo’shish ikki marta hisobga olishga olib keladi-ya’ni bita go’sht ikki marta hisobga olingan bo’ladi. Shunday qilib, YaIM- yakuniy mahsulotva xizmatlar umumiy qiymati.

Barcha yakuniy tovar va xizmatlar qiymatini hisoblash usullaridan biri ishlab chiqarishning xar bir bosqichida qo’shilgan qiymatlarni qo’shishdan iborat. Firmaning qo’shilgan qiymati ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan firma sotib olgan oraliq mahsulot qiymatini ayirmasiga tengdir. Gamburger keltirilgan misolda, fermer tomonidan qo’shilgan qiymat 50 tsentga teng (fermer hech qanday oraliq mahsulot sotib olmasligi ko’zda tutiladi), MalDonalds tomonidan qo’shilgan qiymat esa (1, 50 dollar – 0,50 dollar) 1,00 dollarga teng. Umumiy qo’shilgan qiymat, shunday qilib 0,50 dollar + 1,00 dollar = 1,50 dollarga teng. Butun iqtisodiyot uchun qo’shilgan qiymatning umumiy miqdori barcha yakuniy tovar va xizmatlarning bozor qiymatiga teng bo’lishi lozim. Shunday qilib, YaIMni shuningdek, barcha firmalar qo’shilgan qiymatlari yig’indisi sifatida ham ifodalash mumkin.

Ko’plabtovarva xizmatlar YaIMda ularning bozor qiymati bo’yicha hisobga olingan bir vaqtda, ba’zi tovarlar va xizmatlar bozorda sotilmaydi, demak bozor narxiga ega emas. Bu xizmatlar qiymati YaIMga kiritilishi lozim bo’lgani uchun, biz uni o’lchashimiz kerak. Bundy baholashlar shartli o’tkazilgan qiymatlar nomini oldi.

Shartli o’tkazilgan qiymat, masalan, uy-joy sohasida xizmatlarni baholashda qo’llaniladi. Uy-joyni ijaraga olayotgan inson, xizmatlar uchun haq to’laydi va uy egasini daromad bilan ta’minlaydi; ijara haqi YaIM hisobiga uy egasining daromadi sifatida ham, uy-joyni ijaraga oluvchining xarajatlari sifatida

kiritiladi.Shu bilan birga, ko’plab odamlar shaxsiy uylarida yashaydilar. Ular ijara haqi to’lamasalar ham, biroq ular uy-joyni ijaraga oluvchilar singari xuddi shunday xizmatlardan foydalanadilar. Shunday qilib, shaxsiy uy egalari foydalanadigan xizmatlarni hisobga olish uchun YaIM tarkibiga ular o’zi o’ziga “to’laydigan” “ijara haqi” kiritiladi. Albatta ular o’zi o’ziga hech qanday ijara haqi to’lamaydilar. Savdo vazirligi agar ular uy-joyni ijaraga olganlarida to’lashlari mumkin bo’lgan ijara haqi miqdorini baholaydi va bu shartli o’tkazilgan qiymat miqdorini YaIMga kiritadi. Bu ijara haqi uy egalarining ham xarajatlari, ham daromadlari sifatida hisobga olinadi.

Davlat tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar ham xuddi shunday tarzda baholanadi. Masalan, aholiga politsiyachilar, o’t o’chiruvchilar, senatorlar xizmat ko’rsatadilar. Bu xizmatlarning qiymat bahosini berish qiyin, chunki ular bozorda sotilmaydi va bozor narxiga ega emas. YaIM tarkibida bu xizmatlar ularni ko’rsatishga ketadigan sarflarga muvofiq hisobga olinadi. Bu ushbu davlat xizmatchilarining mahsulotlari qiymatining ko’rsatkichi bo’lib ularning ish haqisi xizmat qilishini anglatadi.

Ko’pgina hollarda bunday hisobga olish haqiqatda zarur bo’lsada, biroq amaliyotda amalga oshirilmaydi. YaIM da o’z uylari uchun shartli ravishda o’tkazilgan ijara qiymati hisobga olinganligi uchun ham miantiqan unga shaxsiy mulk bo’lgan avtomobillar, qimmatbaho buyumlar va uzoq muddat foydalaniladigan boshqa tovarlar uchun shartli ravishda o’tkazilgan ijara qiymati kiritilishi lozim, biroq amaliyotda bunday qilinmaydi. Bundan tashqari ba’zi tovarlar uyda ishlab chiqariladi va iste’mol qilinadi hamda hech qachon bozorga chiqmaydi. Masalan, uyda tayyorlangan ovqat restoranda tayyorlangan ovqatdan unchalik farq qilmaydi, biroq ovqatni uyda tayyorlash jarayonida qo’shilgan qiymati YaIM ga kiritilmaydi. Nihoyat, YaIMga noqonuniy tayyorlanadigan va sotiladigan tovarlar qiymati kiritilmaydi. Masalan, giyohvand moddalar.

Shartli o’tkazilgan qiymatni hisoblash uslubiyati mukammal bo’lmaganligi va ko’plab tovarlar hamda xizmatlarning qiymati YaIMga kiritilmaganligi sababli, YaIM iqtisodiy faoliyat natijalarining ideal ko’rsatkichi hisoblanmaydi. Shunga qaramay bu xatoliklarning mavjudligi YaIM ahamiyatini kamaytirmaydi. Agar xatoliklar miqdori vaqt o’tishi bilan unchalik o’zgarmasa, YaIM turli yillar va turli o’n yilliklarda iqtisodiy faoliyat natijalarini solishtirish uchun muvaffaqiyatli ravishda qo’llanilishi mumkin.

3. Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko’rsatkichlar

Makroiqtisodiy miqdor ko’rsatkichlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni milliy hisoblar tizimi orqali quyidagicha ifodalash mumkin;

1)Barcha tarmoqlarning yalpi ishlab chiqarishi – oraliq iste’mol = Yalpi

ichki mahsulot.

2) Yalpi ichki mahsulot - amortizatsiya = sof ichki mahsulot.

3) Sof ichki mahsulot – biznesga egri soliqlar = milliy daromad

4) Milliy daromad – ijtimoiy sug'urtaga badallar – korporatsiya foydasiga soliqlar – korporatsiyani taqsimlanmagan foydasi + transfert to'lovlari = shaxsiy daromad.

5) Shaxsiy daromad – yakka tartibdagi soliqlar =Ixtiyordagi daromad.

Milliy daromad - bu, milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir.

Yalpi milliy daromad quyidagicha hisoblanadi ;

YaMD = YaIM + horijdan olingan omilli daromadlar – horijliklarning ushbu mamlakat hududidan olgan omilli daromadlari.

Shaxsiy daromad va milliy daromadning bir-biridan shunisi bilan farq qiladiki, ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug'urtalar to'lovlari, korporatsiya foydasiga soliq va korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi) amalda bevosita uy xo'jaligiga tushmaydi. Uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi, masalan, (transfert to'lovlari) - mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert to'lovlariga - sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan, ya'ni qarilikda va baxtsiz xodisalarga shuningdek ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, nogironlarga to'lanadigan har xil to'lovlar, ishsizlarga va pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar, iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan foiz to'lovlari va boshqa to'lovlar kiradi.

Shaxsiy ixtiyordagi daromad deb individual soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlarga aytiladi. Individual soliqlar - daromad solig'i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga solinidagan soliqlardan iborat.

4.Nominal va real YaIM

Ishlab chiqarishning hajmini ifodalash uchun ham natural, ham qiymat ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Ammo milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmini natural birliklarda amalda o'lchash mumkin emas, chunki bu erda bir – biri bilan solishtirib bo'lmaydigan millionlab nomdagi tovar va xizmatlar ustida gap boradi.

Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmini va tarkibini ifodalashda qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar ikki miqdor yordamida aniqlanadi:

- ishlab chiqarishning natural shaklidagi hajmi;
- narxlar darajasi.

Amaliyotda milliy hisobchilik tizimida narxlarning ikki ko'rinishi qo'llaniladi:

-joriy yoki haqiqiy narxlar;

- o'zgarmas yoki solishtirma bazis narxlar.

Shu yildagi joriy yoki amaldagi narxlar yil mobaynida mahsulot ishlab chiqarish va uning iste'moli o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda qo'llaniladi hamda takror ishlab chiqarishning moliyaviy qiymat jihatlarini aks ettiradi. Lekin joriy narxlardan ishlab chiqarishni ma'lum bir vaqt davomida tahlil qilish uchun foydalanish maqsadga muvofiq emas. Chunki ularni xar qanday oshishi yoki pasayishi yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning hajmiga bevosita ta'sir etib, iqtisodiyotning haqiqiy ahvolini buzib ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga haqqoniy baho berish uchun o'zgarmas narxlardan foydalaniladi. O'zgarmas yoki solishtirma narxlar asos qilib olingan biror – bir yildagi mahsulotning narxi bo'lib, tahlil qilinayotgan davr uchun ishlab chiqarish hajmini qiymat jihatdan baholashda foydalaniladi. Bu narxlar mahsulotning natural hajmini o'zgarishini ilg'ash imkonini beradi va ishlab chiqarishni ma'lum bir vaqt davomida haqiqiy o'zgarishini aks ettiradi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining joriy va solishtirma narxlardagi ifodasi tubdan farqlanadi.

Bazis yilni xar bir mamlakat rivojlanish xususiyatidan kelib chiqqan holda o'zi belgilaydi. Bazis narxlardan foydalanib ham o'tgan yillar, ham kelgusi yillarning qiymat ko'rsatkichlari qayta hisoblab chiqiladi.

Joriy narxlarda o'lchangan ishlab chiqarish hajmini nominal, solishtirma narxlarda o'lchanganini real deb ataladi.

Narxlarning o'sishi bilan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishini ko'rsatuvchi miqdorni barcha tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiy narx indeksi yoki deflyator deb ataladi. Yalpi ichki mahsulot tarkibiga millionlab nomdagi yaratilgan ne'matlar kiradi va ularni xar birining narxini o'zgarib turishini jismonan kuzatish mumkin emas. Shuning uchun ham deflyator bozor savati yordamida aniqlanadi. Bozor savati yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiruvchi, uning asosiy qismini tashkil etuvchi muhim tovar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Statistika idoralari tomonidan bozor savatiga kiritilgan tovar va xizmatlarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi doimo kuzatilib turiladi va shu asosda narxlarning umumiy indeksi yoki deflyator hisoblanadi.

$$\text{Joriy yil deflyatori} = \frac{\text{Joriy yildagi bozor savatiningbahosi shuyilning narxlarida}}{\text{Joriy yildagi bozor savatining bahosi bazis yili narxlarida}} \times 100$$

Agarda o’tgan davr ichida yalpi ichki mahsulotning natural hajmi o’zgarmasdan qolgan bo’lsa, uning nominal qiymati shuncha oshadi. Narxlar darajasi pasayayotgan bo’lsa, unda narxlar indeksi yoki deflyator 100 foizdan kam darajagacha tushib ketadi. YaIM narxlari indeksining joriy yilda bazis yilga qaraganda ko’tarilib borishi inflyatsiyani va aksincha, uni kamayib borishi deflyatsiyani bildiradi. Milliy ishlab chiqarish hajmini o’zgarishiga narxlarning ta’sirini bartaraf etish maqsadida deflyator yordamida real yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaIM}}{\text{Deflyator}} \times 100\ \%$$

Iqtisodiy amaliyotda deflyator bilan bir qatorda inflyatsiya darajasini yana bir ko’rsatkichi – iste’mol narxlari indeksi (INI) yoki hayot kechirish qiymati indeksi keng qo’llaniladi. Bu ko’rsatkich ham deflyator kabi bozor savati yordamida aniqlanadi. Ammo, bu erda bozor savatiga faqat aholining iste’mol byudjeti asosini tashkil etuvchi iste’mol mollari va xizmatlar kiritiladi, holbuki, deflyatorni hisoblanayotganda bozor savatining sezilarli qismini ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan tovarlar tashkil etadi. Iste’mol narxlari indeksi joriy yilda bazis yilga qaraganda qayd etilgan iste’mol bumlari va xizmatlar turkumining qiymatini qanday o’zgarayotganini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, bu indeks yordamida xar bir kishining, oilaning va barcha aholining hayot kechirish qiymati yoki turmush darajasi qanday o’zgarayotganini aniqlash mumkin.

Demak, iqtisodiyotda doimiy inflyatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo’yadi. Chunki, inflyatsiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko’rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko’rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko’rsatkichlardan foydalanish zarur. Baholar indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun: deflyator; iste’mol narxlari indeksi(Laspeyres indeksi); sanoat ishlab chiqarish baholari indekslari hisoblanishi lozim.

Deflyator ko’rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblaganadi:

$$\textbf{Deflyator} = \frac{\sum Q^i_1 P^i_1}{\sum Q^i_1 P^i_0} \textbf{ 100}$$

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaMM}}{\text{Deflyator}} \cdot 100$$

Iste'mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{INI} = \frac{\sum Q^i_0 P^i_1}{\sum Q^i_0 P^i_0} \cdot 100$$

Bu erda:

Q^i_0– bazis yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi;

P^i_1 – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P^i_0 – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

3-mavzu. BIZNES-SIKLLAR VA IQTISODIY TEBRANISHLAR

Reja

1. Iqtisodiy davr tushunchasi va uning bosqichlari
2. Iqtisodiy davrlarni yuzaga kelish sabablari
3. Iqtisodiy davrlarning asosiy tiplari
4. Iqtisodiy davrlarning ta'siri
5. Davlatning davriylikka qarshi siyosati

Tayanch so'z va iboralar : iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy sikl ,turg'unlik (depressiya) , jonlanish, yuksalish, davriylik, iqtisodiy jarayon, tebranish.

1. Iqtisodiy davr tushunchasi va uning bosqichlari

Barqaror iqtisodiy rivojlvnishning sharti bo'lib muvozanat, ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'mol, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik hisoblanadi. Biroq bozor iqtisodiyotida muvozanat holati vaqti vaqti bilan buzilib turadi. Milliy xo'jalik amal qilishida muayyan davriylik, takrorlanish kuzatiladi, bunda iqtisodiyotning yuksalish davri pasayish hamda turg'unlik davrlari bilan almashadi. Davriylikni milliy iqtisodiyotni bir makroiqtisodiy muvozanatdan boshqasiga harakati sifatida aniqlash mumkin.

Iqtisodiy o'sish – bu o'zgarmagan holda bir xilda yuksalib borish holatidir. Ijtimoiy ishlab chiqarish harakatida ishlab chiqarishning umumiy hajmi juda tez o'sadigan yillar bor, boshqa yillarda esa bu jarayon sekin yuz beradi, ba'zida esa pasayish yillari ham bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish harakatida muayyan vaqt

oralig'ida tez-tez takrorlanadigan holat uning rivojlanishini davriylik xususiyatini bildiradi. Bir davrning oralig'i iqtisodiyotni bir inqirozdan boshqasigacha, yoki boshqacha aytganda cho'qqining bir nuqtasidan boshqasigacha bo'lgan harakatini qamrab oladi. Iqtisodiy pasayish iqtisodiyotning yuksalishi, ishlab chiqarish o'sishi va ishsizlik qisqarishi bilan almashadi.

Zamonaviy sharoitda davlat iqtisodiyotning "qizib ketishini" oldini oluvchi yoki turg'unlik bosqichida iqtisodiyotni jadallashtiruvchi iqtisodiy vositalarning butun to'plamiga ega. Shu maqsadlarda soliq tizimidan foydalaniladi: foydaga (qo'shilgan qiymatga) soliq stavkasini oshirish yoki tushirish orqali davlat muayyan faoliyat sohalarida ishchan faolllikni rag'batlantiradi (yoki aksincha to'xtatadi), imtiyozlar tizimidan foydalanib, muayyan korxonalar guruhiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sirni amalga oshiradi.Xuddi shu maqsadlarda kredit siyosatidan foydalaniladi–foizning hisob stavkasini tushirib yoki oshirib, qo'shimcha kapital qo'yilmalarga qiziqishni oshirish yoki ularni butunlay yo'q qilish mumkin.Ishlab chiqarishni rivojlantirish va davriylikni yumshatishga davlatning byudjet siyosati katta hissa qo'shadi. Rivojlanishning yirik dasturlarini (masalan, ishlab chiqarish infratuzilmasini) byudjet hisobiga moliyalashtirishjamiyat uchun zarur faoliyat sohalarida biznesni rivojlantirish uchun umumiy shart-sharoitlarni yaratadi.

Iqtisodiy davr milliy xo'jaliklar notekis rivojlanishi va umuman iqtisodiy jarayonni ifoda etuvchi iqtisodiy faollikni qator bir biri bilan ketma ket almashadigan bosqichlarini o'z ichiga oladi. Oxir oqibatda davriylik orqali iqtisodiy o'sish namoyon bo'ladi, yoki harakat doiraviy emas, vaziyatning uzoq muddatli kabi, o'rta muddatli tebranishlarini aks ettirib spiral bo'yicha bo'ladi.Davriylik - tizimning davrlar yordamida o'z harakatini amalga oshirish xususiyati. Davriylik muvozanatli kabi muvozanat bo'lmagan tizimlarga ham xos, bunda faqat shakl jihatdan farq qiladi - doiraga yaqin shakldagi, to'lqin shaklidagi, spiral shaklidagi yoki zina shaklidagi ko'rinishga ega bo'ladi.Iqtisodiy davrning harakatida ketma-ket bo'ladigan to'rtta bosqich kuzatiladi:

1. Inqiroz – bu ishlab chiqarishni pasayishi va to'xtab qolishini yuzaga keltiruvchi iqtisodiyotdagi muvozanatni buzilishi. Bozor iqtisodiyoti uchun ortiqcha ishlab chiqarishning inqirozi xos bo'lib, uning oqibatida narxning qat'iy tushishi yuz beradi (1929-1933 yillar AQShda narxlar 54 foizga pasaydi. Keyin ishlab chiqarish hajmi pasayadi, bu ishsizlikni o'sishiga, demak aholi daromadlarini pasayishiga, o'z navbatida to'lov qobiliyatli talabni qisqarishiga olib keladi.Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo narxning o'sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina narxning o'sish darajasi sustlashishi mumkin. Pasayishning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va tanazzul davri boshlanadi.

2. Tanazzul – tovarlar ortiqchaligi muayyan vaqt davomida asta-sekin sarflanadigan davr (bir qismi past narxlarda, bir qismi buziladi). Tovarlarni sotish qayta tiklanadi, narxlarni pasayishi to'xtaydi. Ishlab chiqarish hajmi bir muncha ko'payadi, biroq savdo sust bo'ladi. Shuning uchun kapital sanoat va savdoda o'z qo'llanilishini topmaydi, bankda saqlanadi va pul taklifini ko'paytiradi hamda ssuda foizini me'yorini pasaytiradi.

3. Jonlanish – sanoat ishlab chiqarishining inqirozdan oldingi hajminiqayta tiklash davri bo'lib, bu davr davomida narxlar, foyda, ish haqi ko'tariladi, uning oqibatida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin to'liq bandlikka va quvvatlarning to'liq yuklashga qadar, ya'ni cho'qqigacha oshib boradi

4. Cho'qqi – ishlab chiqarish quvvatlari to'liq yuklanganligi, yuqori bandlik, narxlar, ish haqi va foizning juda yuqori darajasi bilan ifodalanadi.Iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo'lib, u «cho'qqi» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to'liq bandlik, ishlab chiqarish to'la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning narx darajasining o'sish holati kuzatiladi.

Iqtisodiy tsikl deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin ketin bir necha fazalarni bosib o'tib, o'zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr tushuniladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir tsikl bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz to'lqinsimon harakat sifatida davom etadi. Tsiklli harakat iqtisodiy o'zgarishning muhim omili, makroiqtisodiy muvozanat unsurlaridan biri bo'lib, milliy xo'jalik turli tarkibiy qismlarining amal qilishidagi notekislikni, uning rivojlanishidagi inqilobiy va tadrijiy bosqichlarning iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi almashuvini aks ettiradi.

Alohida iqtisodiy tsikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o'rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha mamlakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi (1-chizma).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi.



1-chizma. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi

2. Iqtisodiy davrlarni yuzaga kelish sabablari

Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodchilar uch omilni ko’rsatadi. Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi texnika va texnologiyalarda ro’y beradigan o’zgarishlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha fan-texnika yutuqlarini qo’llash natijasida iqtisodiyotda o’sish ro’y beradi. Masalan avtomobilning yaratilishi yoqilg’i sanoati, neft qazib chiqarish, ximiya, yo’l qurilishi materiallari sanoatlarining jadal rivojlanishiga sabab bo’ldi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini bir necha baravar oshirish, ilgari foydalanilmagan resurslarni ishga tushirish imkonini beradi. Texnik va texnologik yangiliklar doim ham yaratilavermasligi iqtisodiyotdagi tebranishlarga sabab bo’ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog’lashadi.

Bu jarayonni monetar siyosatga bog’laydigan olimlar ham mavjud. Ya’ni, davlat qanchalik ko’p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo’lsa, ishlab chiqarish ko’lamining pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi. Xullas, iqtisodiy bosqichlarni narxlashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog’liq, degan fikrni qo’llab-quvvatlaydilar. Chunki, korxonalar o’z tovar va xizmatlarini ularga talab bo’lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo’lmasa, korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O’z navbatida, ishlab chiqarishda bandlilik va daromadlar darajasi ham, aynan shu sababli, past bo’ladi. Yalpi

xarajatlar miqdori qanchalik ko’p bo’lsa, ishlab chiqarishning o’sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta’sir etuvchi omillarni o’rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqish sabablari va ularga ta’sir ko’rsatuvchi omillarning chuqur va izchil ravishda tadqiq etilishi turli ko’rinishdagi iqtisodiy sikl nazariyalarining vujudga kelishiga olib keldi.

Ko’pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning ob’ektiv tavsifini tan olib, bu hodisani unga ta’sir ko’rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o’rganishni tavsiya qiladi. Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb ataladi.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko’rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o’zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog’liq ravishda aholi migratsiyasi, er shari aholisi sonining o’zgarib turishi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o’zgartirishga qodir bo’lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o’zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o’ziga xos ichki omillari ta’sirida vujudga kelishini asoslovchi nazariya internal nazariya deb ataladi.

Asosiy kapitalning jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirib, xizmat muddati tugashi va uning yangilanishi ko’pchilik iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy siklni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina-uskunalarga talabning keskin ortishini keltirib chiqaradigan iqtisodiy o’sish boshlansa, tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to’liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bu muddat qisqarib boradi va inqirozlar tez takrorlanadi. Shuningdek, quyidagi boshqa ichki omillar ham ajratib ko’rsatiladi:

- shaxsiy iste’molning o’zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya’ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo’naltiriladigan mablag’lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta’sir ko’rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o’zgarishi.

Iqtisodiy tsikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish to’g’ri bo’lmaydi. Iqtisodiy tsikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o’zgarishlar tashqi va ichki omillar birgalikdagi ta’siri oqibatida

kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishi sabablarini izohlashda bir qator nazariyalar ham ilgari suriladi.

3. Iqtisodiy davrlarning asosiy tiplari

sikl turlari	Tsiklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin sikli	2–4 yil	Zaxiralar miqdori → YaMM, inflyatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat tsikllari
Juglar sikli	7–12 yil	Investitsion tsikl → YaMM, inflyatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets sikli	16-25 yil	Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab → daromad
Kondratev sikli	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar
Forrester sikli	200 yil	Energiya va materiallar
Toffler sikli	1000-2000 yil	Tsivilizatsiyalarning rivojlanishi

Kitchin sikli zaxiralar tsikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitchin (1926 y.) o'zining e'tiborini tovar zaxiralarining harakat chog'idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa, u siklning davomiyligini jahondagi oltin zaxiralariningtebranishlari bilan bog'lab, uni 3 yilu 4 oyga teng, deb hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli tsikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko'pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

Juglar tsikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o'rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu tsikl Frantsiya, Angliya va AQShda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan Klement Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825 yili Angliyada metallurgiya va boshqa etakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836 yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQShga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AQSh va qator Evropa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko'ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo'lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSh va Evropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo'lib, ulardan ettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

Kuznets sikli ko'p hollarda «qurilish tsikli» deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo'lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o'zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida milliy daromad, iste'mol sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkichlarida 20 yillik o'zaro bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini ko'rsatib bergan. 1955 yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat tsiklini Kuznets tsikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to'lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo'shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Frantsiya va AQShning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'p omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta tsikllarni ajratib ko'rsatadi.

I-tsikl: 1787-1814 yillar – ko'taruvchi to'lqin; 1814-1851 yillar – pasaytiruvchi to'lqin.

II-tsikl: 1844-1851 yillar – ko'taruvchi to'lqin; 1870-1896 yillar – pasaytiruvchi to'lqin.

III-tsikl: 1896-1920 yillar – ko'taruvchi to'lqin.

Kondratev tsiklining davomiyligi o'rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishi hisoblanadi. Kondratev birinchi katta tsiklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini – temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to'rtinchisini – avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi tsiklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko'rsatadi.

Iqtisodiydavrlarningsinflanishiquyidagichizmadaaksetgan



Davomiyligiga ko’ra	Faoliyat sohasiga ko’ra	Namoyon bo’lish belgisiga ko’ra	Yoyilishiga ko’ra	Ko’lamiga ko’ra
1.Qisqa muddatli 2.O’rta muddatli 3.Uzoq muddatli (uzun to’lqinlar)	1.Sanoat 2.Agrar	1.Neft 2.Oziq-ovqat 3.Energetik 4.Xom ashyo 5.Ekologik 6.Valyuta	1.Tuzilmaviy 2.Tarmoq	1.Milliy 2.Millatlararo

4. Iqtisodiy davrlarning ta’siri

Iqtisodiy tsikl barcha tomonlari bilan namoyon bo’lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o’zaro bog’liqligi sababli uning hech bir sohasi inflyatsiya to’lqini yoki turg’unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e’tiborga olish zarurki, iqtisodiy tsikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta’sir ko’rsatadi. Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko’proq zarar ko’radilar.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og’ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo’jalik buyumlari va shunga o’xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog’liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo’lgan ishchilar tsiklning inqiroz fazasida og’ir oqibatga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar tsiklning yuksalish fazasida o’zining rivojlanishi uchun yuqori darajada rag’bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshidan kechira boshlaganda ishlab chiqaruvchilar ko’pincha, zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to’xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday kon’yunktura sharoitida investitsion tovarlar zaxiralarini ko’paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to’laroq foydalanishlari mumkin bo’ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda, ya’ni tsiklning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to’liq eskirgunga qadar

almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o'zining eskirgan uskunalarini ta'mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan ayrim korxonalar, hatto iste'mol qilingan asosiy kapitalining o'rnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari iqtisodiy tsiklning oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste'molchilar qatlamiga iqtisodiy tsikl turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste'molchilar oila byudjetini qisqartirishlariga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishni to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolari eb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya'ni qisqa muddatda foydalanadigan iste'mol tovarlarini xarid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko'p bo'lmagan yirik firmalar ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun etarlicha monopol hukmronlikka ega bo'lishi mumkin. Shu sababli talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskari bo'lgan holatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuv darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular tsiklning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Demak, kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to'planish darajasi past bo'lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

5.Davlatning davriylikka qarshi siyosati

Davriylikka qarshi siyosat — iqtisodiy siyosat vositalaridan iqtisodiy kon'yunkturaning tebranishlariga qarshi harakati, iqtisodiy davrning keskin burilishining yuqori va quyi nuqtalarini yumshatish uchun uchun foydalanish.

Davriy tebranishlarni davlat tomonidan tartibga solish usullari qanday bo'lmasin, ularning barchasi o'zaro qarama qarshilikka olib keladi. Barcha chora-tadbirlar har bir holatda tebranish borishiga qarshi yo'naltirilishi lozim. Inqiroz va

tanazzul davrida — bozor kon'yunkturasi past va davlat barcha vositalar yordamida xo'jalik faoliyatini faollashtirishga, jonlanish, ayniqsa ko'tarilish davrida u ishchan faollikni ushlab turishga intiladi. Shunday qilib, masalan, ishsizlik, ishchan faollik pasayish davrida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish hamda cho'qqiga erishgan davrda bu xarajatlarni qisqartirish bilan soliqlarni oshirish orqali tartibga solinadi. Bundan tashqari davlat ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xaridini amalga oshirib o'z byudjetini keng qo'llaydi va boshqalar. Davriylikka qarshi tartibga solish shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshiriladiki, u davrni hamda uning yuzaga kelishini zamonaviy sharoitlarga moslaydi.

Davlatlarning iqtisodiy siyosati asosan inqirozga qarshi, davriylikka qarshi sifatida rivojlandi. Davrni tartibga solish bo'yicha keng qamrovli yo'nalish va chora-tadbirlari ishlandi. Bunda bugungi kunda fiskal siyosat instrumentlari, monetar siyosat vositalari va nihoyat takror ishlab chiqarish nisbatlariga bevosita ta'sir chora-tadbirlari – milliy iqtisodiyotlarni dasturlash va rejalashtirish.

Fiskal siyosatdavlat xarajatlari ko'lamlari, tovarlar va xizmatlar xaridi davrga barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Tovar va xizmatlarni davlat xaridi — kon'yunktura tebranishlariga chidamliSIMga yalpi talabning bir qismi. Biroq fiskal siyosat davrga faqat ko'lamiga emas, balki tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi. Darvga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan u yo rag'batlantiruvchi, ekspansiya, yoki to'xtatuvchi, restriktiv bo'lishi mumkin.

Monetar siyosat hozirgi ahamiyatiga oltin standartdan oltinga bo'linmaydigan kredit va qog'oz pullargao'tishi bilan bog'liq asosda paydo bo'ldi. Oltin standart sharoitida muomaladagi pul miqdori davrlarga unchalik sezilarli ta'sir ko'rsatmagan: katta miqdor xazinaga ketgan va u erda pullarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojlar to'ldirilgan. Boshqa ish bu oltinga bo'linmagan pullar bo'lib,ular inflyatsiyaga uchraydi, bu ularni xazinaga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababdan pul miqdori davrga ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanadi.

Bozor iqtisodiyotida markaziy o'rinni pul va kredit egallaydi. Iqtisodiyotning tsiklli o'zgarishi eng avvalo pul massasi oqimini o'zgartirishga bog'liq.

Iqtisodiy faollikning o'sishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, uning turg'unlik bilan almashinib turishiga yagona sabab pul oqimining o'zgarishidir. Tovarlarga talabning ortishi natijasida savdo, chakana narx o'sib, ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi.

Pul oqimi (iste'mol xarajatlari summasi) pul miqdorining o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Pul miqdorining kamayishi iqtisodiy faoliyat faolligini pasaytiradi.

Pul va kredit tizimi beqaror tavsifga ega ekanligi sababli pul oqimini barqarorlashtirish murakkab hisoblanadi. Hozirgi paytda kredit pullari to'lov va muomala vositasi sifatida asosiy rolni o'ynaydi. Aynan bank tizimi kredit pullarni

yaratadi, shunga ko'ra, pul oqimining o'zgarishida banklarning hisob stavkalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaning ayrim namoyandalari pulni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarab, muvozanatning buzilishiga asosiy sabab deb ko'rsatadilar.

Ikkinchi guruhi esa pul tizimi mutanosiblikni buzmaydi, faqat mutanosiblikni buzilishiga olib keluvchi boshqa omillar uchun sharoit yaratadi, degan fikrni ilgari suradilar. Muvofiq ravishda monetar va nomonetar yo'nalish vujudga keldi. Monetar nazariyaning e'tiborli tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) yuksalish fazasi davrida kreditni kengaytirish tufayli kelib chiqqan ishlab chiqarish tuzilmasi nomutanosibliklari tahlil qilinadi;

2) mazkur nomutanosibliklarning salbiy oqibati sifatida kelib chiquvchi inqirozlar tahlil qilinadi.

Shunday qilib, bu nazariya tarafdorlari jamg'arishning davriy ravishda oshib ketishi va mutanosiblik buzilishining asosiy sababi sifatida pulni ko'rsatadilar. **Nomonetar nazariya** tarafdorlari esa texnologik o'zgarishlar, yangiliklar, ixtirolarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, pul jamg'arishning ko'payib ketishidagi rolini ko'rsatishadi. Monetar va nomonetar yo'nalish o'rtasidagi farq uncha katta emas, biri ikkinchisini to'ldiradi. Har ikkala nazariya ham oxir-oqibat iqtisodiy faollikning kuchayishiga iste'mol emas, balki investitsiya sabab bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Iqtisodiy tsikllarni iste'mol tovarlariga talabning o'zgarishiga bog'lab, akseleratsiya printsipiga e'tibor qaratiladi. Bu printsip mohiyatiga ko'ra texnik sabablar tufayli iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning ozgina o'zgarishi ishlab chiqarish uchun zarur tovarlarga talabning keskin o'zgarishiga olib keladi.

Ko'proq jamg'arib, samarali darajada iste'mol qilmaslik jamiyatni tsiklli rivojlanishining sababi qilib ko'rsatiladi:

1) mablag'ni jamg'arish, boshqacha aytganda xazinaga aylantirish turg'unlikka olib kelishi mumkin, chunki bu mablag' investitsiyalash uchun foydalanilmaydi;

2) pulni jamg'arish iste'mol tovarlariga talabning qisqarishiga olib keladi, chunki u iste'molga sarflanmaydi.

3) natijada investitsiyaga nisbatan pul shaklidagi jamg'arish hajmi o'sib borib, iste'mol tovarlariga talab kamayib boradi, taklif esa ortadi, narx pasayadi, iste'mol tovarlari bozoridagi qiyinchiliklar inqirozga olib keladi.

Iqtisodiy tsikl ishlab chiqarish vositalari yoki kapitallashgan investitsion tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq. Kundalik iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish tsikllari o'rtasida katta farq bor.

Kundalik iste’mol mollari doimiy ravishda iste’mol qilinadi. Ularning iste’mol miqdori o’zgargan taqdirda ham uncha katta o’zgarishlar sodir bo’lmaydi.

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni domiy ravishda xarid qilinmaydi. Balki ular iste’molchi daromadi ko’paygan paytdagina sotib olinadi. Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga talab barqaror emas. Ishlab chiqarishni davom ettirish uchun kapital tovarlar ishlab chiqarish zarur.

Iste’mol o’sgan sari kapital tovarlarga talab ham ortadi. Bunda ishlab chiqarish tarkibida nomutanosibliklar yuz beradi, ya’ni iste’mol tovarlari, uzoq muddat foydalaniladigan va kapital tovarlar o’rtasida nisbatlar buziladi.

Inqirozning sababi pul etishmasligi, bank rezervlarining kamligi emas, balki ana shu nisbatlarning buzilishidir. Lekin ko’pchilik iqtisodchilar etarli darajada iste’mol qilmaslik inqirozning sababi emas, balki uning oqibatidir, deb ta’kidlaydilar. Ya’ni iste’molchilar daromadlarini ko’proq jamg’arishga ajratganlari uchun emas, balki to’lov qobiliyatining etarli emasligi, ya’ni xarid qilish uchun pulning yo’qligidan kelib chiqadi.

Iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishini tushuntirishda iqtisodiy nazariyalar bilan bir qatorda psixologik nazariyalar ham keng o’rin olib bormoqda. Psixologik nazariya tarafdorlariga J.M.Keyns, U.Mitchell, F.Xayek va boshqalarni kirtish mumkin. Ularning fikricha, insondagi optimizm va pessimizm faoliyat aktivligiga ob’ektiv iqtisodiy omillar: foiz me’yori, pul oqimi, foyda va boshqalar ta’sir ko’rsatib, buning natijasida ishlab chiqarishning qisqarishi yoki kengayishi ro’y beradi.

Kreditning kengayishi, talab va ishlab chiqarishning o’sishi odamlarning kayfiyatini ko’taradi va aksincha. Bundan tashqari kishilar borgan sari likvidligi yuqori bo’lgan pul jamg’arishga moyilligi ortib borishi va o’z navbatida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etishini ko’rsatishadi.

4-mavzu. ISHCHI KUCHI VA ISHSIZLIK.

Reja

1. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o’lchanishi.
2. Ish izlash va Friksion ishsizlik.
3. Real ish haqi va tarkibiy ishsizlik.

Tayanch so’z va iboralar: Ishsizlik, ishchi kuci, friksion Ishsizlik, tarkibiy Ishsizlik, davriy ishsizlik, iqtisodiy faol aholi, mehnat bozori, real ish haqi, ishchi kuchiga talab, ishchi kuchi taklifi.

1.Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o'lchanishi

Ishsizlik ko'pchilik odamlarga to'g'ridan-to'g'ri va qattiq ta'sir qiladigan makroiqtisodiy muammo hisoblanadi. Ko'pchilik uchun ishdan ajralish bu yashash standartlarining pasayishi va psixologik tushkunlik degani. Ajablanarli emaski, ishsizlik siyosiy debatlarning tez tez takrorlanib turadigan mavzulari va o'sha siyosatchilar o'zlarining maqsadli siyosatlari ish yaratishga yordam berishini takidlashadi. Iqtisodchilar ishsizlikni uning sabablarini bilib olish va ishsizlikka tasir qiladigan jamiyat siyosatlarini rivojlantirishga yordam berish uchun o'rganishadi. Shunday siyosatlardan bazilari masalan job-training dasturlari odamlarga ish topishda yordam beradi. Boshqalari, ishsizlikdan sug'urtalash bazi bir zarurat, ehtiyoj, yo'qchiliklarni yengillashtiradi. Yuqori minimal ish haqi qonunlari misol uchun, ishchi kuchining eng kam layoqatli va tajribali a'zolari orasida ishsizlik darajasini ko'tarib yuboradi deb o'ylashadi. Bizning ishchi kuchi bozori to'g'risidagi muzokaralarimiz haligacha ishsizlikni inkor qilib kelmoqda. Ayniqsa, milliy daromad modeli iqtisodiyot har doim to'liq bandlikda bo'ladi degan faraz bilan qurilgan. Haqiqatda, ishchi kuchi tarkibidagi har bir shaxsda ish mavjud emas. Barcha ochiq bozor iqtisodiyotida, har qanday vaqtda bazi odamlar ishsiz bo'lib kelishgan.

Iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi oqibatida, iqtisodiy pasayish davrida ishlab chiqarish resurslari to'liq foydalanilmay qoladi.

YaIMni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiylaridan biri bo'lgan mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmaslik ishsizlikda namoyon bo'ladi.

Makroiqisodiy tahlilda mehnat resurslari emas balki ishchi kuchi kategoriyasidan ko'proq foydalaniladi.

Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.

Mehnat bozorida boshqa resurslar bozori singari talab va taklif qonuni amal qiladi. Ishchi kuchining bahosi hisoblangan real ish haqi hajmi oshsa ishchi kuchiga bo'lgan talab qisqaradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi, ishchi kuchi taklifi esa kamayadi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorining ishchi kuchi taklifi miqdoridan kam bo'lishi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlar – bu, ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlarni ishchi kuchi soniga nisbatiga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

Ishsizlik darajasi = (ishsizlar soni / ishchi kuchi soni)x100

Har kuni bir nechta odamlar o'z ishlarini yo'qotishadi yoki tashlab ketishadi, va ba'zi ishsizlar ishga yollanadi. Bu davriy inqiroz va oqim ishsiz bo'lgan ishchi kuchining bir qismini belgilaydi. Bu qismda biz ishsizlik tabiiy darajasini nimalar belgilashini ko'rsatadigan ishchi kuchi dinamikasi modelini rivojlantiramiz[2]. Biz biroz muloxaza bilan boshlaymiz, keling L ishchini belgilasin. E ishlayotgan ishchi kuchi soni va U ishsizlar soni. Har bir ishchi yoki ishli yoki ishsiz bo'lgani uchun, Ishchi kuchi ishsizlar va ish bilan bandlarning yig'indisidir.

$$L=E+U$$

Bunda- ishsizlik darajasi U/L ga teng. Ishsizlik darajasiga qanday omillar tasir qilishini ko'rishimiz uchun, faraz qilaylik ishchi kuchi L o'zgarmas va ishchi kuchidagi ishlilar E va ishsizlar o'rtasidagi shaxslarning ko'chishiga bog'langan. Keling s ishdan ayrilishning darajasini belgilasin, ishlaydiganlardan har oyda ishini yo'qotgan yoki tashab ketganlar qismi. F ish topishning darajasini ifodalasin, ishsiz shaxslarning har oyda ish topadigan qismi. Job separation darajasi s va job finding darajasi f birgalikda ishsizlik darajasini ko'rsatib beradi. Agar ishsizlik darajasi oshmasa ham pasaymasa ham, bunday holat ishchi kuchi bozori barqaror bo'lgan vaziyatda bo'ladi, unda ish topadigan odamlar soni fU, ishini yo'qotadigan odamlar soni s Ega teng bo'lishi kerak. Bunday barqaror holatni quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$fU=sE$$

Biz bu tenglamadan ishsizlikning barqaror darajasini topishda foydalanishimiz mumkin. Ishchi kuchi haqidagi tarifimizdan, E=L-U; bu ish bilan bandlar soni ishchi kuchidan ishszizlar sonini ayirganga teng. Agar barqarorlik sharoitida E ni (L-U) bilan almashtirsak, topamiz

$$fU=s(L-U)$$

[2] Robert E. Hall, "A Theory of the Natural Rate of Unemployment and the Duration of Unemployment," *Journal of Monetary Economics* 5 (April 1979): 153–169.



Ish bilan bandlik va ishsizlik o'rtasidagi o'zgarishlar. Har bir davrada ishini yo'qotgan ishsizlar qismi S va ish topishlarning F ning bir qismi. Ishdan ajralish va ish topishning darajalari ishsizlik darajasini belgilaydi.

Keyin, tenglamaning ikkala tarafini L ga bo'lamiz, qo'lga kiritish uchun

$$f\frac{U}{L} = s(1 - \frac{U}{L}).$$

Endi, U/L yechamiz, topishimiz uchun

$$\frac{U}{L} = \frac{s}{s+f}.$$

Bu esa quyidagicha yozilishi mumkin

$$\frac{U}{L} = \frac{1}{1+f/s}.$$

Bu tenglama barqarorlik sharoitidagi ishsizlik darajasi job separation darajasi s va job finding darajasi f ga bog'liqligini ko'rsatadi. Job separation darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi.Job finding darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajsi shunchalik past bo'ladi. Mana quyida son bilan keltirilgan misollar Faraz qiling, ishlilarning 1 foizi har oyda ishini yo'qatadi (s=0.01). bu o'rtacha oganda ish 100 oy yoki taxminan 8 yil davom etadi deganidir. Yana faraz qiling, ishsizlarning 20 foizi har oyda ish topadi (f=0.20), shunday ekan ishsizlikning vaqt oralig'i o'rtacha 5 oy davom etadi. Demak, ishsizlikning barqaror darajasi

$$\frac{U}{L} = \frac{0.01}{0.01 + 0.20}$$
$$= 0.0476.$$

Bu misoldagi ishsizlik darajasi taxminan 5 foizni tashkil etadi. Ishsizlik tabiiy darajasining bunday oddiy modelida jamiyat siyosati uchun muhim ma'no mazmun bor. Ishsizlikning tabiiy darajasini pasaytirishni maqsad qildan har qanday siyosat yoki job separation darajasini kamaytirishi kerak yoki job finding darajasini ko'tarishui kerak. O'z navbatida, job separation va job finding darajasiga tasir qiladiagan har qanday siyosat shuningdek ishsizlikning tabiiy darajasini o'zgartiradi. Bu model ishsizlik darajasini job separation va job finding ga bog'lashda foydali bo'lsa ham, u markaziy savolga javob berishda oqsaydi: birinchi o'rinda nimaga ishsizlik bo'ladi? Agar har doim tezlik bilan ish topaolganda, unda job finding darajasi yuqori bo'lardi va ishsizlik darajasi olga yaqin bo'lardi. Ishsizlik darajasining bu modeli shuni taxmin qiladiki unda, ish topish bir onda sodir bo'ladigan narsa emas, ammo u nimaga deganni tushintirishda oqsaydi. Keying ikkita bo'limda, ishsizlikning ikkita yashirin sabablarini ko'rib chiqamiz: ish izlash va ish haqi barqarorligi[3].

2. Ish izlash va Friksion ishsizlik

Friktsion ishsizlik. *Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchi kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan ish yoki turar joylarni o'zgartirish, o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek, boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada kerakli hisoblanadi.*

Bazi bir friksion ishsizlik o'zgarayotgan iqtisodiyotda bo'lishi aniq. Ko'p sabablarga ko'ra, uy xo'jaliklari va firmalar talab qiladigan tovarlar turlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Tovarga bo'lgan talabning ko'chishi sabab, o'sha tovarlarni ishlab chiqaridigan mehnatga ham talab ko'chadi. Shaxsiy kompyuterlarning ixtiro qilinishi misol uchun, typewriter va typewriter ishlab chiqaruvchilarning mehnatiga talabni kamaytirdi. Ayni hozirgi davrda, elektronika sanoatidagi mehnatga talabni oshirdi.Shunga o'xshab, har xil hududlar har xil mahsulotlar ishlab chiqarganligi sababli ishchi kuchiga talab mamlakatning bir qismida oshayotgan, boshqa bir qismida tushayotgan bo'lishi mumkin.Yog' narxidagi ko'tarilish yog' ishklab chiqaruvchi shtatlardagi ishchi kuchiga talabning o'sishiga sabab bo'lishi mumkin, ammo neftning qimmat bo'lishi haydashni kam attractive qilgani bois, Michigan shtati kabi hududlarda avto-

[3] N.Gregory Mankiw. Macroeconomics, Seventh edition. USA, 2009. *p. 164-166.*

ishlab chiqarishdagi ishchi kuchiga talabni kamaytirishi mumkin.Iqtisodchilar hududlar yoki sanoatlar orasidagi talabning tuzilishidagi o'zgarishlarni sohaviy ko'chish deb atashadi. Chunki sectoral shift lar har doim sodir bo'layapti va ishchilardan sectorni o'zgartirishga vaqt ketganligi sababli, har doim friksion ishsizlik mavjud bo'ladi. Sectoral shift lar job separation va friksion ishsizlikning yagona sababi emas. Qo'shimcha, ishchilar qachonki o'zlarining firmalari inqirozga uchrasa, ularning ish ijrolari yoki ularning o'ziga xos tajribalari ortiq zarur bo'lmasa o'zlarini kutilmaganda ishsiz topishadi.Ishchilar shuningdek karerasini o'zgartirish maqsadida yoki mamlakatning boshqa qismiga ko'chish uchun ishdan ketishlari mumkin.Ishdan ajralishning sabablariga qaramasdan, bu ishchilardan yangi ish toppish uchun vaqt va mashaqqat ketadi. Toki firmalar orasidagi ishchi kuchiga talab va taklif o'zgarayotgan ekan, friksion ishsizlikdan qochib bo'lmaydi.

Ko'pgina ijtimoiy siyosatlar ishsizlik qo'rquvini qisqartirish orqali ishsizlik darajasini pasaytirishga harakat qilishadi. Hukumat mehnat agentliklari ishchilar va ishlarni unumli qilish maqsadida bo'sh ish o'rinlarini elon qilishadi. Davlat tomonidan moliyalashtirilgan dasturlar ishchilarni inqirozga yuz tutayotgan sanoatdan rivojlanayotgan korxona tomon harakatini osonlashtirish maqsadida asos solingan.Agar bu dastur ish toppish darajasini oshira olsa ishsizlik darajasini pasaytira oladi. Ba'zi davlat dasturlari tasodifan ishsizlik qo'rquvini oshirib qo'yadi.Bularning biri bu ishsizlik sug'urtasi.Bu dastur asosida ishsizlar malum davr oralig'ida oz kasblaridagi maoshning malum bir qismini olishadi.Odatda ishchilar maoshining 50 foizini 26 hafta davomida olishadi.Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida bu dastur ancha yuqoriroqdir.Bu dastur ishsizlik qo'rquvi va ishsizlik tabiiy darajasini oshiradi.Natijada bu dasturdan foyda olayotgan ishsizlar ish toppish uchun kamroq harakat qilib unchalik yaxshi bo'lmagan ish talablarini rad qilishadi.Bu ikki o'zgarish ham ish toppish darajasini qisqartiradi.Ular o'z daromadlari himoyalanganligini bilib turganliklari uchun ham ish toppish uchun kamroqq harakat qilishadi.Bu esa ishdan ayriish darajasini oshiradi.Ishsizlik darajasini oshiradigaan bu dastur siyosatning noto'gri tanlovi deb bo'lmaydi albatta.Bu dastur ishchilarning daromadlari noaniqligidan foyda oladi.Undan tashqari o'zlariga unchalik mos bo'lmagan ish takliflarini rad qilishlari o'zlari juda mos bo'lgan boshqa bir ishni topishlari uchun zamin yaratishi mumkin.Iqtisodchilar har doim ishsizlik darajasini kamaytiradigan ishsizlik sug'urtasini isloh qilishni taklif qilganlar.Bir odddiy takliflardan biri,ishdan haydaydigan korxonani ishsizlik sug'urtasidan keladigan to'liq daromad bilan taminlash.Bu usul 100 foizli tajriba deb ataladi chunki korxonalarning ishsizlik sug'urtaasiga to'laydigan puli to'lig'icha shu ishchilarning ishsizligini ko'rsatib beradi.Hozirgi ko'pgina dasturlar esa qisman tajriba darajasidadir.Bu dastur

asosida,korxona ishchini ishdan bo'shatganda bu holat qisman ishsizlikdan keladigan daromad evaziga qoplansa qolgan qismi dasturning umumiy daromadidan qoplanadi.Korxona bor yo'g'i maoshning bir qismini to'laganligi uchun ham mehnat talabi kam bo'lganda korxonalar ishdan bo'shatishga turtki paydo bo'ladi.Bu turtkini qisqartirish orqali taklif qilingan islohot doimiy ishdan chetlashtirishni qisqartirishi mumkin.[4]

3. Real ish haqi va tarkibiy ishsizlik

Ishsizlikning ikkinchi sababi ish haqqining o'zgarmasligi - mehnat taklifi va talabi bir biriga teng bo'lgan darajaga o'zgartirishdagi muvofaqqiyatsizlik. Mehnat bozorining muvozanatli modelida, real ish haqqi mehnat taklifi va talabi muvozanatida joylashadi. Ish haqqi har doim ham egiluvchan bo'lmaydi. Ba'zan, real ish haqqi market-clearing darajasidan yuqorida boladi. Quyidagi chizma nima uchun ish haqqi o'zgarmasligi ishsizlikka olib kelishini ko'rsatadi. Real ish haqqi talab va taklif muvozanatidagi darajadan yuqorida bo'lganda, taklif qilingan mehnat miqdori talab qilingan miqdordan oshib ketadi. Firmalar bazi yo'llar orqali ishchilar orasidagi cheklangan ishni kamroq berishlari kerak. Real ish haqqi o'zgarmasligi ish opish darajasini qisqartiradi va ishsizlik darajasini ohiradi.

Ish haqqi o'zgarmasligi va ish o'rinlarini qisqartirish natijasidagi ishsizlik, ba'zan, tarkibiy ishsizlik deb ataladi. Ishchilarning ishsizligi o'zlariga aynan mos ishni qidirishlari emas, balki, ishlashni hohlovchi ishchilar soni va mavjud ish o'rinlari orasidagi tengsizlikdir. Ayni holatdagi ish haqqida, taklif qilingan mehnat miqdori mehnat talabidan oshib ketadi, ko'plab ishchilar ish o'rinlari ochilishini kutib qoladilar.

[4] N.Gregory Mankiw. Macroeconomics, Seventh edition. USA, 2009. *p. 166-167.*



Real ish haqi qattiqligi ishni almashtirishga olib keladi.Agar real ish haqi muvozant nuqtadan yuqorida tursa, unda ishchi kuchi taklifi talabdan oshib ketadi.Natija ishsizlik.

Ish haqqining o'zgarmasligi va strukturaviy ishsizlikni tushunish uchun , biz x nima uchun mehnat bozori u qadar aniq emasligini tahlil qilishimiz kerak. Real ish haqqi muvozanatli holatdan oshib ketsa va ishchi taklifi talabdan oshib ketsa, biz firmalardan ish haqqini pastlatishi mumkinligini kutamiz. Strukturaviy ishsizlik oshib boradi, chunki , firmalar ortiqcha mehnat taklifiga qaramasdan ish haqqini pastlatishda omadsizlikka uchrashadi. Biz endi ish haqqining o'zgarmasligiga uchta sababni ko'rib chiqamiz, ular:

Eng kam ish haqqi qonunlari, Birlashmaning monopoilya quvvati, Samarali ish haqqi.

Tarkibiy ishsizlar guruhiga ishlab chiqarish strukturasining o'zgarishi natijasida ishchi kuchiga talab tarkibining o'zgarishi natijasida ishsiz qolganlar kiradi. Unga asosan malakalarini o'zgartirishi va oshirishi, ma'lumot olishi, yangi kasb egallashi lozim bo'lgan ishsizlar guruhlari kiradi. Friktsion ishsizlik bilan tarkibiy ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida, ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib, ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa, ishchi kuchi darhol va tezroq ish joylarini topa olmaydi.

Hukumat ish haqqining o'zgarmasligiga sababchi bo'ladi, qachonki, u muvozanatli holatdan pastga tushib ketishning oldini olsa.Eng kam ish haqqi qonunlari firmalarning ishchilarga beradigan oyligiga qonuniy minimum o'rnatadi. Bazi ishchilar uchun, ayniqsa tajribasiz va uquvsiz ishchilar uchun, eng kam ish haqqi o'zlarining muvozanatli ish haqqi darajasidan oshib ketadi. Shu sababli, firma talab qilgan mehnat miqdori qisqaradi.

Iqtisodchilar shunga ishonadiki, eng kam ish haqqi o'smir yoshidagilardagi ishsizlikda o'zining eng katta tasiriga ega. O'smirlarning muvozanatli ish haqqi 2 sabab tufayli past bo'ladi. Birinchisi, o'smirlar mehnat bozoridagi ishchilar orasida eng tajribasiz va qobilyatsizlardir. Ularda past marjinal samaradorlik

mavjud. Ikinchisi, o'smirlar tez – tez o'zlarining "kompensatsiya"larini kasb-training shaklida oladi, to'g'ridan to'g'ri to'lov orqali olishdan ko'ra. "Shogirdlik" oylik ish haqqi o'rniga olinadigan traingingga klassik misol.

Bu ikkala sabab uchun, talabga teng bo'lgan o'smir ishchilar taklifidagi ish haqqi past bo'ladi. Shuning uchun, eng kam ish haqqi o'smirlar uchun boshqa ishchilarga qaraganda ko'proq majburiyatni yuklaydi.

Ko'p iqtisodchilar o'smirlarning ish bilan taminlanishida eng kam ish haqqining tasirini o'rganishgan. Bu tadqiqodchilar vaqt mobaynida minimum ish haqqi turli hil talqinlari bilan ish bilan taminlangan o'smirlar turli hil talqinlarini taqqoslashadi. Bu tadqiqotlar shuni aniqladiki, minimum ish haqqidagi 10 % lik o'sish o'smirlarning ish bilan taminlanishini 1 % dan 3 % ga qisqartiradi[5].

Yuqoriroq Minimum ish haqqiga qarama qarshi taraflar shuni takidlashadiki, bu yo'l nochor ishchilarga yordam berishning eng yaxshi yo'li emas. Ular yuqori mehnat narxlari nafaqat ishsizlikni oshiribgina qolmasdan, qolaversa, minimum ish haqqi yomon aniqlanganligiga qarshi chiqishadi. Ko'plab minimum ish haqqi oluvchilar o'smirlardir.

Ko'plab iqtisodchi va siyosatshunoslar shunga ishonadiki, nochor ishchilarning daromadini oshirishning eng yaxshi yo'li soliq imtiyozlaridir. Ishlab topilgan daromaddan soliqlar imtiyozi nochor ishchi oilalar daromadidan olinadigan daromad solig'iga berilgan imtiyozdir. Past daromadli oilalar uchun imtiyoz soliqdan yuqorida turadi va oyla hukumatdan to'lov olib turadi. Minimum ish haqqidan farqli ravishda, daromad solig'idagi imtiyozlar mehnat narxini firmalar uchun oshirmaydi. Shuning uchun, firma talab qilgan ishchi kuchi miqdorini qisqartirmaydi. Hukumatning daromad solig'i qisqarishiga qaramasdan, Buning yomon tarafi mavjud.

Samarali ish haqqi nazaryalari ish haqqi o'zgarmasligining sabablaridan biridir.

Bu nazaryalar shuni anglatadiki, yuqori ish haqqi ishchilarni ancha samarali ishlashga undaydi.Ishchining nafliligiga ish haqqining tasiri oshiqcha mehnat taklifiga qaramasdan firmalarning ish haqqini qisqartira olmasligi bilan izohlanadi. Ish haqqi qisqarishi firma uchun ish haqqi to'lovlarini pastlatishiga

[5] Charles Brown, "Minimum Wage Laws: Are They Overrated?" *Journal of Economic Perspectives* 2(Summer 1988): 133–146. Broun minimal ish haqi tasirlarini ko'rsatib berdi, ammo shunga e'tibor berish kerakki, bandlik tasirlarining magnitutasi mahsli hisoblanadi. Ishsizlikning sezilarsiz ta'sirlarini tadqiq qilish uchun, qarang David Card and Alan Krueger, *Myth and Measurement:The New Economics of the Minimum Wage* (Princeton, NJ: Princeton University Press, 1995); andLawrence Katz and Alan Krueger, "The Effects of the Minimum Wage on the Fast-Food Industry,"*Industrial and Labor Relations Review* 46 (October 1992): 6–21. Qarama qarshi xulosalarni o'rganish uchun, qarang David Neumark and William Wascher, "Employment Effects of Minimumand Subminimum Wages: Panel Data on State Minimum Wage Laws," *Industrial and Labor RelationsReview* 46 (October 1992): 55–81.

qaramasdan, agar nazarya to'g'ri bo'lsa, u ishchilarning samaradorligini va firmaning foydasini pastlatishga olib kelishi mumkin.

Iqtisodchilar ish haqqi qanday qilib ishchi samaradorliligiga tasir ko'rsatishi haqida turli xildagi nazaryalarni ilgari surishgan. Nisbatan past rivojlanayotgan davlatlar qabul qilgan Birgina ish haqqi samaradorligi nazaryasi shuni anglatadiki, ish haqqi istemolga tasir qiladi. Yaxshi haq to'lanadigan ishchilar yuqori istemolga ega bo'lishadi, va sog'lom ishchilar ancha samaradordir. Firmaq ish haqqini sog'lom ishchi kuchini bir meyotda ushlash uchun muvozanatli arajadan yuqori ushlab turishi mumkin. Albatta, bu qarash boy davlatlar uchun u qadar muhim emas. Chunki, muvozanatli daraja sog'lom hayot kechirish standartlaridan yuqorida turadi.

2-ish haqqi samaradorligi nazaryasi, rivojlangan davlatlar uchun, shuni anglatadiki, yuqori ish haqqi mehnat aylanmasini qisqartiradi. Ishchilar o'z ishlarini ko'plab sabablar tufayli tark etishadi- boshqa firmada yuqori lavozim uchun, karyerasini o'zgartirish uchun , yoki, boshqa joyga ko'chkani tufayli. Firma o'z ishchilariga qancha yuqori ish haqqi to'lasa ishchilarning firma bilan birga qolish omili shuncha yuqori bo'ladi. Yuqori ish haqqi to'lash orqali, firma ishchilarining tez tez o'zgarib turishining oldini oladi, shu sababli, vaqt va yangi ishchilarni tayorlash uchun mablag'lar tejab qolinadi.

3- ish haqqi samaradorligi nazaryasi shuni anglatadiki, firmaning ishchi kuchi o'rtacha sifati ishchilariga qancha ish haqqi berishiga bog'liq. Agar firma ish haqqini qisqartirsa, yaxshi kadrlari boshqa joydan ish qidirishi mumkin va firma malakasi pastroq ishchilar bilan bo'lib qolishi mumkin. Iqtisodchilar bu yoqimsiz saralashni – ***noqulay tanlov*** *sifatida tan oladi. Muvozanatli darajadan yuqorida ish haqqi to'lash orqali, firma noqulay tanlovni qisqartirishi, shchi kuchining o'rtacha sifatini oshirishi, va shu sababli samaradorlikni ko'tarishi mumkin.*

4-ish haqqi samaradorligi nazaryasi shuni o'z ichiga oladiki, yuqori ish haqqi ishchining imkoniyatini oshiradi. Bu nazarya shundan iboratki, firmalar o'z ishchilarining imkoniyatini to'liq nazorat qila olishmaydi va ishchilar o'zlari qanday darajada ishlashini belgilashadi. Ishchilar astoydil ishlashlarini yoki ishga engil qarashlarini o'zlari tanlashlari mumkin.Iqtisodchilar bu ehtimollikni – ***ruhiy xavf*** *sifatida tan olishadi.Firma ruhiy havf muammosini yuqori ish haqqi orqali qisqartirishi mumkin.Ish haqqi qancha yuqori bo'lsa, ishchining ishdan ketish narhi shuncha yuqori bo'ladi. Yuqori ish haqqi to'ash orqali, firma o'z ishchilarining ishga yengil qarashini qisqartiradi va shu sababli ish samaradorligi yuksaladi.*

Bu 4 ta nazariya bir biridan biroz farq qilsada, ular bir hil mazmunni ifodalaydi, chunki, firma ancha samarali ish olib boradi, agar ishchilariga yuqori

ish haqqi to'lasa. Firma talab va taklif balansidan yuqori darajada ish haqqi taklif qilsa, ancha o'ziga foyda keltirishi mumkin. Bu muvozanatdan yuqori ish haqqi natijasida ish toppish ko'rsatkichi pastlaydi va ishsizlik ko'tariladi[6].

5-mavzu. INFLYATSIYA: SABABLARI, OQIBATLARI VA IJTIMOIY XARAJATLAR

1. **Inflyatsiya tushunchasi, ko'rsatkichlari va o'lchanishi**
2. **O'sish sur'atlariga ko'ra inflyatsiya turlari**
3. **Inflyatsiya sabablari**
4. **Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosat**

Tayanch so'z va iboralar: inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, Filipps egri chizig'i, aksilinflyatsiya siyosati, graduallash.

1.Inflyatsiya tushunchasi, ko'rsatkichlari va o'lchanishi

Inflyatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) – ma'lum davr mobaynida mamlakatda narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi. Inflyatsiya bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavfli ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog'liq.

Ammo inflyatsiya davrida barcha tovarlarning narxlari ham oshavermaydi: ayrimlariniki barqaror bo'lib tursa, ba'zilariniki esa tushishi mumkin.

"Inflyatsiya" atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlangan. . Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschlar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo'lishida deb bilishadi. Shu sababli

[6] Chuqurroq muhokama uchun, qarang Janet Yellen, "Efficiency Wage Models ofUnemployment," *American Economic Review Papers and Proceedings* (May 1984): 200–205; and LawrenceKatz, "Efficiency Wages: A Partial Evaluation," *NBER Macroeconomics Annual* (1986): 235–276.

ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo'lsa byudjet taqchilligi va qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko'paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa, yoki yalpi talab ko'paygani holda o'zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik narxlar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Narxlarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

1) valyuta kururslarining o'zgarishi;

2) kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;

3) kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati narxsining o'sishi.

Inflyatsiya narx indekslari - deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi inflyatsiya darajasi (narxlarning o'sish sur'ati) deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\pi = \frac{P_t - P_{t-1}}{P_{t-1}} \cdot 100\% \qquad \text{yoki} \qquad p = \frac{\Delta P}{P_{t-1}} \cdot 100\% \qquad \text{yoki}$$

$$\pi = \left(\frac{P_t}{P_{t-1}} - 1 \right) \cdot 100\%$$

bunda: π– yillik inflyatsiya sur'ati;

Rt - joriy yilning narxlar indeksi;

Pt-1 - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflyatsiyani miqdoran o'lchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror

o’sishi sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga bo’lish kifoya:

$$\text{Narxlar ikki martaga oshishi uchun zarur yillar soni} = \frac{70}{\pi}$$

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 7 % ga teng bo’lsa, taxminan 10 yilda narxlar ikki martaga oshadi, ya’ni, (70:7 = 10).

Real YaIM va jamg’armaning necha yildan so’ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo’lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi.

2. O’sish sur’atlariga ko’ra inflyatsiya turlari

Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning narxlarini o’sishi, yani pullarning mikdori o’sishi jixatidan asosan uch shaklini ajratiladi:

1. Sokin inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo’lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko’rsatiladigan xizmatlarga bo’lgan narx-navolar yiliga o’rtacha 3% dan 10% gacha oshishi mumkii. Bu mamlakatlarda muomaladagi pul massasi saklanib turadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati saklanib turadi.

2. Shiddatli inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iktisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud bo’lib, ushbu xolatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko’rsatiladigan xizmatlarga bo’lgan narx- iavolar yiliga o’rtacha 10% dan 100% gacha ba’zi holatlarda 200% gacha oshishi mumukin. Buning natijasida muomaladagi pul massasi ko’payadi va milliy pul birliginnng xarid qilish kobiliyati tushadi. Mamlakat aholisi o’rtasida milliy pul birligini jamg’arishi emas, balki oltin, ko’chmas mulk holatida jamg’arishi jarayoni kuchayadi.

3. Jilovlanmagan (giperinflyatsiya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya holatida mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko’rsatiladigan xizmatlarga bo’lgan narx-navolar yiliga 1000% dan ortiq yoki oyiga 100% dan ortik darajada oshadi. Ushbu xolatda milliy ikgisodiyotda inqiroz yuzaga chiqadi. Buning natijasida ishlab chikarish va bozor boshkaruvsiz faoliyat ko’rsatadiki, narx va ish haki o’rtasidagi farq ortadi. Mamlakat aholisi qo’lidagi kogoz pullarga tovarlar sotib oladi. Bu holat esa muomalada tovar massasi bilan tovar va xizmatlar bilan ta’minlanmagan ortiqcha qogoz pullarii to’lib-toshishiga olib ksladi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, inflyatsiyaning asosiy sababi odatda bir emas, balki bir nechta bo’lib o’zaro mahkam bog’langan bo’ladi va narxining ko’tarilib borishi bilangiia namoyon bo’lib qolmaydi, balki narxni boshqarilishiga ham bogliq bo’ladi. Ushbu jixatdan quyidagi inflyatsiya shakllari ajratiladi:

1. Oshkora inflyatsiya. Talab tomoniga qaragan makroikgisodiy tengsizlik doimiy ravishda narxning ko'tarilib borishi bilan ifodalanadigan bo'lsa, buiday inflyatsiya oshkora inflyatsiya dsb ataladi. Oshkora inflyatsiya bozor mexanizmini buzmaydi: narx ba'zi bozorlarda ko'tarilishi bilan bir vaktda boshka bozorlarda pasayib borishi mumkin. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bozor mexanizmlari o'z ta'sirini davom ettirib, milliy ikgisodiyotga baholar to'grisidagi ma'lumotlarni oshkora etkazib turadi, investitsiyalarni ilgari surib, ishlab chiqarishnipg kengayishi bilan taklifni rag'batlantirib boradi.

2. Yashirin inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turi shunday ko'rinishda bo'ladiki, bunday holatda ba'zi bir iste'mol mahsulotlariga narx ma'muriy tarzda davlat tomonidan o'rnatiladi va tartibga solib turiladi. Bundan asosiy maqsad, davlat tomonidan ba'zi mahsulotlarga narxni «ijtimoiy past» darajada belgilaydi. Yashirin inflyatsiya sharoitida narxning keskin o'sishi kuzatilmasligi mumkin. Lekin milliy pul birligining qadrsizlanishi, mahsulotlar aholi pul mablaglariga kerakli mahsulotlarni harid qilib bo'lmasligi holatlari paydo bo'ladi. Iktisodiyotda yashirin inflyatsiya yuzaga chiqkanda mahsulotlarning narxi hamda aholini daromadlarini o'sishi vaqtincha to'xtatiladi. Yashirin inflyatsiyani vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri bu narxlar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatishdir. Buning natijasida bozor mexanizmi deformatsiyalanadi. Uning kaysi darajada va o'zgarganligi darajasi va davomiyligi davlat tomonidan olib boriladigan siyosatga hamda tartibga solish shaklliga bevosita bogliq bo'ladi. Ushbu inflyatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflyatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi.



Bosim ostidagi(yashirin) inflyatsiya

3.Inflyatsiya sabablari

Inflyatsiya XVIII asrning o'rtalarida muomalaga ta'minlanmagan juda ko'p miqdorda pul chiqarishi natijasida pul tizimidagi inqiroz holat asosida yuzaga chiqqan. Inflyatsiya (lotincha «inflation» so'zidan olingan va shishish, ko'pchish, ko'tarilish ma'nosini anglatadi) o'z mohiyagiga asosan pulning kadrsizlanishi, tovar va xizmatlarga bo'lgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jarayonini anglatadi. Shuni ta'kddlash lozimki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi inflyatsiya nisbatan me'yor darajasidagi pul massasi holatida ham yuzaga chiqishi mumkin.

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chikarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya xamda kredit sohasidagi salbiy omillar Bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib, iqtisodiyot tarmoklari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, daalat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda ikgisodchi olimlar inflyatsiyaning yuzaga chiqadigan omillar asosan ikki guruxga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar.

1. Ichki omillarni mohiyagiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, byudjetning taqchilligini mavjudligi. davlat qarzdorligini ortishi, pul emissiyasi, kredit dastaklarining aylanishini ko'payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy ikgisodiyog tarmoklari o'rtasidagi nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishdagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllantirishdagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin;

2. Tashqi omillar o'z mohiyatiga asosan biron anik davlat rivojlanishiga ta'sir etadigan dunyoda amalga oshayotgan jarayonlarni aks ettiradi. Ushbu omillarga dune mamlakatlarida yuzaga chiqadigan soha inqirozlari hisoblanadigan xom-ashyo, ensrgtetika, neft, valyuta inkirozlarni kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashkari biron-bir davlatning boshka davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat miqyosidagi valyuta siyosatini, yashirin holatda valyuta, oltinni eksportini amalga oshirilishini ham kiritish mumkin. Biz quyidagi chizmada inflyatsiyani yuzaga chiqish shakllarini taxlil etamiz. Ushbu chizma tahlilidan ko'rinib turibdiki, ipflyatsiya asosan uch yo'nalishda yuzaga chikadi. Birinchi yo'nalishda

maxsulotlar, ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narxlarni asossiz ravishda o'sib ketishi tufayli pul qadrsizlana bopshaydi. Buning natijasida milliy valyutaning xarid kilish kobiliyagi tushib ketadi. Ikkinchi yo'nalishda, xorijiy valyutalarga nisbatan milliy valyutaning kursi pasayib ketadi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va mamlakat aholisi erkin muomaladagi xorijiy valyutalari (AQSh dollari, evro, shveytsariya franki va boshqalarni) jamg'ara boshlaydi. Uchinchi yo'nalishda oltinga bo'lgan milliy pul birligida ifodalangan narx ko'tarilib ketadi. Buning natijasida mamlakat aholisi o'rtasida oltinning to'planib kolishi amalga oshadi.

Odatda inflyatsiyani ikki xilga talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasiga ajratiladi. Talab inflyatsiyasi - bu iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar narxining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so'zlar bilan aytganda, «xaddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi». Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, narx, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Iqtisod pasayish holatida bo'lganda mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, narx darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Narx o'zgarmasligining sababi shundaki katta hajmdagi bo'sh turgan mehnat va xom ashyo resurlarini shu o'zgarmas narxda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o'zi kifoya hamda qo'shimcha stanok sotib olishga hojat yo'q.

Bundan tashqari, narx ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya'ni, ba'zi sanoat korxonalarida bo'sh turgan resurs va zahiralarni ishlab chiqarishga ertaroq to'liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko'payib ketadi, natijada narx yana osha boshlaydi.

R^0 – o'tgan yilning (bazis) narxlar indeksi.



Talab inflyatsiyasi

$\frac{\Delta M}{M}\cdot 100\% + \frac{\Delta V}{V}\cdot 100\% = \frac{\Delta P}{P}\cdot 100\% + \frac{\Delta Y}{Y}\cdot 100\%$, bu erda (ΔM/M x 100%) – pul massasini qo'shimcha o'sishi, odatda *m bilan belgilanadi*, (ΔV/Vx 100%) – pul aylanish tezligining qo'shimcha o'sishi, (ΔP/Px 100%) – narx darajasining qo'shimcha o'sishi, ya'ni inflyatsiya sur'ati Δ, (ΔY/Yx 100%) – real YaIMning qo'shimcha o'sishi, *g bilan belgilanadi*.

Talab inflyatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'ladi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni, uning real daromadi kamayadi. Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30% ga ko'paygan, narxlar darajasi 50% ga oshgan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo'ladi. Chunki, narxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan yuqori bo'lgan (30% - 50%= 20%).

Taklif inflyatsiyasi - bu mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar narxlarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning narxlari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning narxsi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga

sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari narxsining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, taklif inflyatsiyasi o'z-o'zini cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo'shimcha o'sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o'sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi.



Taklif inflyatsiyasi

Inflyatsiyani real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya sharoitida daromad oluvchi inflyatsiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajavsini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$i = r + \pi kut$, bu erda i-nominal foiz stavkasi; r- real foiz stavkasi; πkut-kutilayotgan infnflyatsiya darajasi.

Inflyatsiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$r = \frac{i - \pi kut}{1 - \pi kut}$$

Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. Shuningdek kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar

o’rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyatsiyasini qat’iy chegaralash qiyin. Ba’zida bu ikki turdagi inflyatsiya bir-biri bilan qo’shilib ketadi. Masalan, talab inflyatsiyasi sharoitida yollanma ishchilar kutilayotgan inflyatsiya darajasini e’tiborga olib ish haqilari oshirilishini mehnat shartnomalariga kiritadilar. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib taklif inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Tovarlar taklifning kamayishini kuzatayotgan iqtisodiy agentlar pul mablag’larini tovarlarga aylantirishga shoshadilar. Bu holat talab inflyatsiyasi ko’rinishini keltirib chiqaradi. Bunday ketma-ketlik oxir-oqibat giperinflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Giperinflyatsiya boshqarib bo’lmaydigan inflyatsiya jarayoni bo’lib, ishlab chiqarish va bandlik darajalariga halokatli ta’sir ko’rsatadi. Xarajatlar inflyatsiyasi stagflyatsiyaga, ya’ni bir vaqtda ishlab chiqarishni pasayishi va narx darajasining o’sishiga olib keladi.

Inflyatsion spiral

Yillik sur’ati bir necha o’n yoki yuz foizni tashkil etgan inflyatsiya pul tizimining boshlanayotgan yoki kuchayayotgan inqirozi belgisidir. Giperinflyatsiya uning halokatini, butun bozor mexanizmi falajlanishini anglatadi.



Giperinflyatsiyaning rasmiy mezoni amerikalik iqtisodchi Filipp Kegan tomonidan kiritilgan. F. Kegan giperinflyatsiyaning boshlanishi deb narxlarning birinchi bor 50% dan oshgan oyni, tugallanishi deb esa narxlarning o’sishi bu sur’atdan pasaygan va shundan so’ng kamida bir yil davomida undan oshmagan oydan oldingisini hisoblash kerak deb taklif qilgan. Giperinflyatsiya sharoitida pul o’zining qiymat o’lchovi va almashinuv vositasi singari funktsiyalarini bajarolmay qoladi. Normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Mablag’lar ishlab chiqarishga emas, balki tovar-moddiy boyliklari jamg’arishga yo’naltiriladi.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning xaqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi puliing taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni, uning real daromadi kamayadi. Inflyatsiyaning o'sish sur'atini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\text{Inflyatsiya o'sish sur'ati} = \frac{R^1 - R^0}{R^0}$$

R^1 – joriy yilning narxlar indeksi;

4.Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosat

Inflyatsiyaga qarshi siyosat - narxlar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Inflyatsiyaga qarshi siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Inflyatsiyaga qarshi siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-yalpi talabni tartibga solish;

-yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo'nalish tarafdorlari bo'lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatning bu tadbirlari iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ammo bunday inflyatsiyaga qarshi siyosati davlat byudjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo'shimcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug'diradi. Keyns davlat byudjeti taqchilligini davlat tomonidan olinadigan uzoq muddatli qarzlar hisobiga qoplashni taklif etgan.

Inflyatsiyaga qarshi siyosatining monetarstik yo'nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo'yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal asilinflyatsiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o'tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog'liq hodisa bo'lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o'sish sur'atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur'atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Konfiskatsiya tipidagi shok terapiyasi ko'rinishlaridan biri bo'lib daromadlarning va narxlarning nominal darajalarini o'zgartirmagan holda eski pullarni belgilangan nisbatda yangisiga alishtirishtirish hisoblanadi.

Bunday tadbirlar aholi tomonidan ohir qabul qilinishi sababli, u qisqa muddatda samara berishi zarur.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan inflyatsiyaga qarshi siyosatining yana bir ko'rinishi - inflyatsiya sur'atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyatsiya sur'atlari pul massasini ko'p marotalaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o'sish sur'atini pasaytirishni ko'zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta sekinlik bilan pasaytira borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo'llash pul massasi va narxlar darajasining yillik o'sish sur'ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo'ladi, deb hisoblanadi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosatining monetar usullarga muqobil bo'lgan variantlaridan biri narxlar va daromadlarni tartibga solish siyosatidir. Bu usul daromadlarning o'sishi va narxlarning o'sishi ni muvofiqlashtirishni (adaptiv siyosat) ko'zda tutadi.

Daromadlar va narxlarni tartibga solish siyosatini amalga oshirish hukumat tomonidan narxlar (narxlar) va daromadlar darajalarini muzlatib qo'yish, pul ko'rinishidagi ish haqining o'sishini o'rtacha mehnat unumdorligining o'sishiga bog'lab qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Soliqlar tarkibini o'zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to'g'ridan-to'g'ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko'paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag'batlantirish funktsiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog'liq.

Inflyatsiyaning yuqori sur'atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlari ning baaqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o'sish sur'atlarini;
- "inflyatsiyani import qilish" ga yo'l qo'ymaslik.
-

6-mavzu. YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELI

Reja

1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar

2. Yalpi taklif va unga ta'sir etuvchi omillar

3. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari

Tayanch so'z va iboralar yalpi talab, yalpi taklif, muvozanatli hajm, Keyns kesmasi, vertikal yoki klassik kesma, oraliq kesma, xrapovik samarasi

1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar

Makroko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga narxlar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izoxlab berish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand – aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi talabvataklif, narxlarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va narxlar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun asosiy model bo'lib hisoblanadi va boshqa bir qancha modellar AD-AS modelining xususiy holi hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Yalpi talab — uy xo'jaliklari, korxonalar, xukumat va chet ellik xaridorlarning narxlarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Yoki boshqacha qilib aytganda umumiy talab iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan umumiy harajatlar yig'indisidir. Formula ko'rinishida umumiy talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$AD = C+I+G+X_n$

Narxlar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq jami talab egri chizig'i deb ataladi. Buni chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (6.1- chizma). 6.1- chizmadan ko'rinib turibdiki, talab egri chizig'i doimo pastga va o'ngga suriladi. Nima uchun?



7.1-chizma. Yalpi talab egri chizig'i

Bunday surilishning sababi har xil. Ya'ni, alohida olingan tovarlarda talab egri chizig'ining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rinbosar tovarlar sabab bo'lar edi. Ayrim tovarlarning narxi pasayganda, iste'molchilarning pul daromadlari ko'proq maxsulot sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, narx pasayganda iste'molchi ushbu tovarni ko'proq boshqa sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin.

M*V=Y*R

Bu erda: M — muomaladagi pul miqdori;

V— pulning aylanish tezligi;

R — iqtisodiyotdagi narxlar darajasi (narx indeksi);

Y — talab qilinayotgan real ishlab chiqarish xajmi.

Bu tenglamadan $P = \frac{M * V}{Y}$; $Y = \frac{M * V}{P}$ tenglamalarni keltirib chiqaramiz.

Bu tenglamalardan ko'rinadiki, narxlar darajasi qancha oshsa, real milliy mahsulot xajmiga talab hajmi shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi(V) o'zgarmas bo'lsa, narxlar darajasi va umumiy talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Buiday bogliqlik, shuningdek quyidagi narx omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi;
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi;
3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi yoki Keyns samarasi shuni bildiradiki, jami talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Demak, tovarlarning narx darajalari oshsa, iste'molchilarga xarid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo'ladi. Ish-bilarmonlar uchun ham ish haqi va boshqa xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pul zarur bo'ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar narxsi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi.

Pul taklifi hajmi o'zgarmagan holatda talabning oshishi foiz stavkasini ko'tarilishiga olib keladi. Foiz stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda ishbilarmonlarning investitsiya tovarlariga bo'lgan talabi pasayadi.

Investitsiya harajatlari umumiy talabning bir qismi bo'lganligi tufayli bu umumiy talab hajmining pasayishiga olib keladi.

$P \uparrow \rightarrow M_d \uparrow (M_s \text{ sonst}) \rightarrow R \uparrow \rightarrow I \downarrow \rightarrow AD \downarrow$

Boylik samarasi yoki real kassa koldiqlari samarasi (Pigu samarasi) shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, nominal narxsi oldindan belgilangan moliyaviy aktivlar (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi joriy daromadidan iste'mol xarajatlari miqdorini qisqartiradi, ya'ni iste'molga chegaraviy moyillik pasayib boradi. Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln. so'm bo'lsa, undan hech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi mumkin bo'ladi, agarda inflyatsiya ta'sirida mashina narxi 12 mln. so'mga ko'tarilsa, u mashina sotib ololmasligi mumkin va yana 2 mln. so'm jamg'arish uchun joriy davrda olgan ixtiyoridagi daromadidan ko'proq qismini jamg'aradi.

Iste'mol xarajati umumiy talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib ksladi.

$$P \uparrow \rightarrow \left\{ \begin{array}{l} \text{Moliyaviy aktivlarning real qiymati} \downarrow \\ \end{array} \begin{array}{l} S \downarrow \\ S \uparrow \end{array} \right\} \begin{array}{l} \nearrow \\ \rightarrow \\ \searrow \end{array} AD \downarrow$$

Import xaridlari samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab hajmi kamayadi va o'z navbatida shu mamlakatda import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki milliy mahsulotga talab hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa sof eksport hajmi orqali umumiy talab hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

$$P \uparrow \begin{array}{l} \nearrow X \downarrow \\ \searrow M \uparrow \end{array} \begin{array}{l} \searrow \\ \searrow \end{array} Xn \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Yuqorida ko'rib o'tilgan omillar jami talabning narx omillari deb ataladi.

Bundan tashqari jami talabning narhlarga bog'liq bo'lmagan omillari ham mavjud. Bu omillardagi o'zgarishlar jami talabning miqdorida o'z aksini topadi va uning egri chizig'ini chapga yoki o'ngga siljitadi. Jami talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar:

- iste'molchilarning real moddiy aktivlari qiymatining o'zgarishi, bu erda real moddiy aktivlarning qiymati inflyatsiya ta'sirida o'zgarishini emas (Pigu samarasi), balki boshqa sabalarga ko'ra o'zgarishi nazarda tutiladi. Masalan aktsiyalarning narxi keskin o'sishi bilan aktsiyadorlarning boyligi oshadi va ular ko'proq iste'mol kilishga moyil bo'ladi va aksincha uylarning va erlarni narxi keskin pasayishi bilan iste'molchining boyligi kamayadi va u ko'proq jamg'aradi;
- iste'molchilar kutishi, ya'ni kelajakda real daromadlarning ko'tarilishi kutilsa, yoki inflyatsiya darajasi yuqoriroq bo'lishi bashorat qilinsa, aholi ko'proq iste'mol qilishni boshlaydi;
- iste'molchilarning qarzlari miqdorining o'zgarishi – agar oldingi iste'mol kredit hisobiga qilingan bo'lsa;
- iste'molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi, soliqlarning pasayishi ixtiyordagi daromad hajmini oshiradi.

2. Investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar:

- foiz stavkasidagi o'zgarishlar, bu erda Keyns samarasi emas, balki foiz stavkasini boshka narxlar darajasiga bog'lik bo'lmagan o'zgarishlari nazarda tutiladi. Masalan, pul massasining oshishi foiz stavkasini pasaytiradi va natijada investitsiya xarajatlari oshadi;
- investitsiyalardan kutilayotgan foyda me'yorining o'zgarishi, masalan, iste'mol xarajatlarning oshishi kutilayotgan bo'lsa, ishlab chikaruvchilarning kutilayotgan foydasi ham oshadi va natijada ular ishlab chiqarishga ko'proq investitsiya qilishga moyil bo'ladilar;
- korxonalardan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi, soliqlar darajasining oshirilishi korxonalarning kapital qo'yilmalardan olgan foydasini kamaytiradi va natijada ular kamrok investitsiya qiladi;
- yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi, yangi va takomillashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish uchun ishlab chiqaruvchilar yangi uskunalar sotib oladi;
- zahiradagi quvvatlar o'zgarishi, zahiradigi ishlab chiqarish quvvatlari miqdori yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar yangi uskunalar sotib olishni va yangi inshootlar qurishni to'xtatib qo'yyadilar.

3.Davlat xarajatlarining o'zgarishi. Masalan, xarbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.

4. Sof eksport hajmidagi o'zgarishlar.

- boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o’zgarishi milliy eksportga bo’lgan talabni oshiradi. Misol, jahondagi moliyaviy-iqtisodiy inkiroz natijasida ko’plab rivojlangan mamlaktlardagi axolining real daromadlari tushib ketgan va ularning bizning mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarga bo’lgan talabi ham kamaygan. Hozirgi kunda neft narxining keskin o’sishi neft eksport qiluvchi mamlakatlar milliy daromadlarini oshirib borishiga va natijada bu mamlakatlarda bizning mahsulotlarga talabini oshib borishiga sabab bo’lmoqda.
- valyuta kurslaridagi o’zgarishlar, milliy valyuta so’mning kursi pasayishi bilan xorijdan kelayotgan mehmonlar olib kelgan dollari evaziga ko’proq so’mga ega bo’lishadi, ya’ni bizning mahsulotlarimiz xorijliklar uchun nisbatan arzonroq bo’lib qoladi.

Pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yuqoridagilardan tashqari umumiy talabning narxlarga bog’liq bo’lmagan yana ikki omilni beradi. Bular: pul taklifi (M) va pulning aylanish tezligi (V) dir. Narxlar o’zgarmagan holda, pul massasining ko’payishi yoki pulning aylanish tezligining oshishi qisqa muddatda jami talab egri chizig’ini o’ngga siljitadi, chunki bu o’zgarishlar iqtisodiyotdagi mavjud bo’lgan real pul zahiralarini hamda iste’molchilarning sotib olish qobiliyatini oshiradi.

Umumiy talabning narxga bog’liq bo’lmagan omillari ta’sirida AD egri chizig’io’ngga yoki chapga siljiydi. Natijada ma’lum narx darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan milliy mahsulot xajmi o’zgaradi.



7.2-chizma. Umumiy talab egri chizig’ining o’ngga siljishi



7.3-chizma. Umuchiy talab egri chizig’ining chapga siljishi

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valyuta kursining ma’lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig’ining o’ngga siljishiga olib keladi. Bunga aksincha bo’lgan holatlarda AD egri chizig’i chapga siljiydi.

2. Yalpi taklif va unga ta’sir etuvchi omillar

Yalpi taklif deganda muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo’lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Umumiy taklif tushunchasi ko’pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo’llaniladi.Yalpi taklif – bu muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo’lgan iste’mol hamda investitsiya tovarlari va xizmatlarning umumiy miqdoridir. Narxlar darajasi deganda, turli xil tovar va xizmatlarning alohida narxlarini umumlashtiruvchi jami narx tushuniladi. Narxlarni narxlar darajasiga, jami iste’molchilarning to’lov qobiliyatli talabini jami talabga, barcha tovar va xizmatlarni esa milliy ishlab chiqarishning real hajmiga bunday birlashtirish yiriklashtirish deb ataladi. Ko’rsatkichlarni yiriklashtirishni bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Makrodarajada iqtisodiyotni usiz tahlil qilib yoki oldindan aytib bo’lmaydi. Yalpi talab va taklif hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar to’zilishining asosi hisoblanadi. Oddiy ko’rinishda bu ko’rsatkichlarning o’zaro bir-biriga bog’liqligi grafik yordamida aks ettiriladi (7.4-chizma).



7.4-chizma. Yalpi talab, yalpi taklif va narxlar darajasi o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik.

Narxlarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo’shimcha mahsulot ishlab chiqarishga rag’bat yaratadi va aksincha past narxlar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqarishga olib keladi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan narxlar darajasi o’rtasida to’g’ri aloqa mavjud. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi narxlar o’sib borishi bilan o’sib, pasayishi bilan tushib boradi. Yalpi taklif (AS) egri chizig’i alohida tovar taklifi egri

chizig'idan farq qilib uch qismdan, gorizontal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat. Bu umumiy taklifni tahlil qilishga klassik va keynschilarga xos yondashuv bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha oraliq kesma ham keyns kesmasiga kiritib yuboriladi.

Yalpi taklif egri chizig'idagi bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni aks ettiradi?

1. Keyns kesmasida milliy ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi to'liq bandlik sharoitidagi milliy ishlab chiqarish hajmidan kamdir. Demak, gorizontal kesma iqtisodiet inqirozga uchragan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sha-roitni ko'rsatadi. Foydalanilmayotgan ushbu resurslarni narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi narxlar darajasi o'zgarmay qolgan sharoitda ro'y bsradi.



Ishlab chiqarishning real xajmi

7.5 - chizma. Jami taklif egri chizig'i

Yalpi talabning Keyns kesmasida iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi. Umumiy talabni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

- iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to'liq band bo'lmagan sharoitda amal qiladi;
- narxlar, nominal ish haqi qayd etilgan, bozor tebranishlaridan juda kam ta'sirlanadi;
- real miqdorlar (ishlab chiqarish, bandlilik, real ish haqi) harakatchan va bozor tebranishlaridan tez ta'sirlanadi.

2. Vertikal yoki klassik kesma. Egri chiziq bo'yicha o'ngga surilishi natijasida ishlab chiqarishning mavjud hajmida iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Iqtisodiyot egri

chiziqning bu kesmasida o’zining ishlab chiqarish potentsiali darajasida bo’ladi. Bu shuni bildiradiki, narxlarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to’liq quvvatda faoliyat ko’rsatayapti. To’liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriroq narxlarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalarning resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi, boshqalari uchun yo’qotishga olib keladi. Natijada bu mahsulotlar narxi oshishi mumkin, lekin ishlab chiqarishning real hajmi o’zgarmay qoladi.

Klassik nazariyada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

- ishlab chiqarish hajmi faqatgina ishlab chiqarish omi-lari hajmiga va texnologiyalarga bog’liq va narxlar darajasiga bog’liq emas;

- ishlab chiqarish omillari va texnologiyalarda o’zgarish sekinlik bilan ro’y beradi;

- iqtisodiyot to’liq bandlik sharoitida amal qiladi, ya’ni ishlab chiqarish hajmi potentsial darajaga teng;

- narxlar va nominal ish haqi o’zgaruvchan, ularning o’zgarishi bozorlarda muvozanatni ta’minlab turadi.

3. Oraliq kesma — ishlab chiqarish real hajmining o’sishi narxlar darajasining o’sishiga mos ravishda o’sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning pasayish holatidan to’liq bandlikka o’tishi notekis va turli vaziyatlarda ro’y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning yotishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda hozircha ortiqcha resurslar mavjud bo’ladi. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yangi asosiy vositalar sotib olish va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to’g’ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketadigan xarajatlarning oshishiga va natijada narxlar darajasining o’sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish hajmi ko’payishi yoki kamayishi narxga bog’liq bo’lmagan omillar hisobiga ham ro’y berishi, bu omillar esa yalpi taklif egri chizig’ini o’ng yoki chap tomonga siljitishi mumkin. Narxga bog’liq bo’lmagan omillarnig xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta’sir qiladi va shu orqali yalpi taklif egri chizig’ining siljishiga sabab bo’ladi.

Bu omillar quyidagilardan iborat

1. Resurslarga bo’lgan talabning o’zgarishi:

➢ ichki bozordagi resurslar miqdorining kamayishi ularning narxining oshishiga olib keladi:

• er resurslari;

• mehnat resurslari;

• kapital;

• tadbirkorlik qobiliyatlari;

➢ valyuta kursining o’zgarishisababli import resurslar narxlaridagi o’zgarishlar;

➢ bozordagi hukmronlik va monopoliya, OPEK tomonidan neft narxшning ko’tarilishi.

2. Ishlab chiqarish unumdorlikdagi o’zgarishlar .

3. Huquqiy me’yordagi o’zgarishlar:

➢ soliq va subsidiyalarning o’zgarishi;

➢ davlatning tartibga solish jarayonidagi o’zgarishlar, davlat tomonidan iktisodiyotni tartibga solinishi oxiri oqibatishlabchikarishxarajatlarinioshiradi. Masalan, soliq turlarini ko’paytirilishi qo’shimcha buxgalterning xizmatidan foydalanishga majbur qilishi mumkin, ya’ni davlat tomonidan iqtisodiyotni yuqori darajada tartibga solinishi qog’oz ishini ko’paytiradi.

3. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va taklif hajmi bir-biriga mos kelishi yoki teng bo’lishi kerak. Avvalo yalpi talab egri chizig’i va yalpi taklif egri chizigining oraliq kesmada mos kelishini ko’rib chiqamiz. Narxlarning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatli darajalari mos ravishda Re va Ye lar bilan belgilangan. Nima uchun Re narxlarning muvozanatli darajasi va Ye milliy ishlab chiqarishning muvozanatli darajasini bildirishini ko’rsatishimiz uchun narxlarning muvozanatli darajasi Re emas, balki R1 deb hisoblaymiz. Narxlar darajasi R1 bo’lgan vaziyatda korxonalar milliy ishlab chiqarish hajmini Y1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste’molchilar narxlar darajasi R1 bo’lganda mahsulotlarni Y2 darajada sotib olishga tayyor turadi. AD>AS bo’lganligi tufayli iste’molchilar o’rtasidagi raqobat narxlar darajasini Re gacha suradi. Narxlar darajasining R1 dan Re gacha ko’tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y1 dan Ye gacha oshirishga va iste’molchilarning talabini Y2 dan Ye gacha kamaytirishga olib kelali. Va bu AD, AS to’g’ri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan Re narx narxlarning muvozanatli darajasi va e muvozanat nuqtasidir.



6.6-chizma. Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmadagi muvozanat

6.6-chizmada yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'iniKeyns kesmasida kesib o'tadi. Bunday vaziyatda narxlar darajasi hech qanday ahamiyatga ega emas. Buni tushunish uchun avvalo milliy ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini Ye va muvozanatli narxlar darajasini Re bilan belgilaymiz.

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmi aynan Ye ekanligini isbotlash uchun bu hajmni Y_1 deb hisoblaymiz. U xolda AD<AS, oqibatida sotilmay qolgan tovarlar va xizmatlar hajmining ortishi ishlab chiqarishni Ye darajaga pasaytirilishiga olib keladi. Muvozanatli ishlab chiqarish hajmini Y_2 deb hisoblacak, aksincha, AS<AD oqibatda korxonalarda tovar zaxiralari kamayib ularni ishlab chiqarishni Ye darajaga oshirishga undaydi. Shunday qilib aynan jami taklif va jami talabning kesishish nuqtasigina AD-AS modelda muvozanat nuqtasi va shu nuqtaga mos keluvchi ishlab chiqarish hajmi esa milliy ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasida yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishiga olib keladi, narxlar darajasi esa o'zgarmaydi.

Yalpi talab egri chizig'ini AS egri chizig'ining vertikal kesmasida o'zgarsa bu ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat narxlar darajasi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, bu kesmada talabning oshishi talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat narxlar darajasi o'zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab inflyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Yalpi taklif o'zgarishining narxlarning va ishlab chiqarishning muvozanatli darajasiga ta'sirini 6.7-chizma misolida ko'rib chiqamiz.



6.7-chizma. Yalpi taklif o'zgarishining ta'siri

Narxdan boshqa omillar ta'sirida yalpi taklifning AS_1 dan AS_2 ga siljishi natijasida ishlab chiqarish xajmi Y_1 dan Y_2 gacha kamayadi, narxlar darajasi esa R1 dan R2 gacha ko'tariladi, ya'ni stagflyatsiya ro'y beradi.

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog'liq bo'lmagan omillardan birortasi o'zgarib, yalpi taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni, erning narxi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va bular natijasida mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda jami taklif egri chizig'i AS_1 dan AS_3 holatga siljiydi. Bunda narxlar muvozanat darajasi R1 dan R3ga qadar pasayadi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y1 dan Y3 qadar oshadi, ya'ni, iqtisodiy o'sish holati ro'y beradi.

7-Mavzu: ISTE'MOL VA JAMG'ARISH

Reja

1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.
2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik.
3. Jon Maynard Keyns va iste'mol funksiyasi.
4. Irving Fisher va vaqtlararo tanlov.

Tayanch so'z va iboralar Avtonom iste'mol, Avtonom investitsiyalar, Investitsiya, Akselerator, Iste'molga o'rtacha moyillik, Iste'molga (jamg'arishga) chegaralangan moyillik

7.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab, yoki YaIMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan komponentdir. Rivojlangan mamlakatlarda iste'mol xarajatlari shaxsiy tasarrufdagi daromadning 90 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. Shu tufayli ham iste'mol xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi. Klassik maktab vakillari jamg'arish hajmi foz stavkasining funktsiyasi de qarashsa J.M. Keyns uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari deb hisoblaydi. Yanada aniqlik kiritsak iste'mol va jamg'arish hajmini belgilovchi asosiy omil uy xo'jaliklarining ishlab topgan daromadlari, olgan transfert to'lovlari va to'lagan soliqlari bilan belgilanadigan tasarrufidagi daromadi (DI – disposable income, yoki Yd) ko'rsatkichidir. Makroiqtisodiy nazariyada iste'mol va jamg'armalar, milliy daromad yoki shaxsiy daromadlarning funktsiyasi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Ixtiyordagi shaxsiy daroma d iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi, ya'ni qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar odatda ko'proq iste'mol qilib, kamroq jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish ulushining o'sishi tomonga o'zgaradi.

Iste'mol bu ixtiyordagi daromadning iste'molchi tomonidan joriy davrdagi ehtiyojlarini qondirish uchun sarflagan qismi bo'lib, u pirovard hamda oraliq iste'molga ajratiladi. Oraliq iste'molda tovar va xizmatlar iste'mol jarayonida to'liq yo'q bo'lib ketmaydi, pirovard iste'molda esa ular iste'mol jarayonida to'liq ishlatiladi. Jamg'arish esa iste'moldan farqli ravishda kelgusidagi ehtiyojlarni

qondirish uchun xizmat qiladi va ixtiyordagi daromadning iste'moldan keyin qolgan qismini aks ettiradi.

Ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

7.1-jadval

Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari (shartli raqamlarda)

ming so'm

Yillar	**Ixtiyordagi daromad Yd**	**Iste'mol C**	**Jamg'arish S**
2006 yil	170	175	-5
2007 yil	210	210	0
2008 yil	250	245	5
2009 yil	290	280	10
2010 yil	330	315	15
2011 yil	370	350	20
2012 yil	410	385	25
2013 yil	450	420	30
2014 yil	490	455	35
2015 yil	530	490	40

Ixtiyordagi daromad hajmi 170 ming so'mga teng bo'lganda iste'mol 175 ming so'mga teng, ya'ni ixtiyordagi daromaddan 5 ming so'm ko'p bo'ladi. Ya'ni aholi 5 ming so'mga teng miqdorda qarz hisobiga yoki o'tgan yillarda to'plangan jamg'armalar hisobiga iste'mol xarajatlari qiladi.

Ixtiyordagi daromad hajmi 210 ming so'mga teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi. 7.1-jadval ma'lumotlari asosida iste'mol grafigini chizamiz.

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishda berilgan.

Birinchisi – bu bissektrisa, u shunday shartli vaziyatni ifodalaydiki, qachonki har qanday yilda iste'mol ixtiyordagi daromadga teng bo'ladi, ya'ni jamg'arish butunlay mavjud bo'lmaydi. Algebraik, bu o'zaro bog'liqlik Yd=C tengligi ko'rinishida ifodalangan.

Ikkinchi to'g'ri chiziq – bu haqiqatdagi iste'mol grafigi bo'lib, haqiqiy iste'mol va ixtiyordagi daromad teng bo'lgan nuqtada (190 ming so'm) bissektrisa bilan kesishadi. Bundan quyig nuqtada haqiqiy iste'mol ixtiyordagi daromaddan ortiq. Bu vaziyat insonlarni qarz hisobiga hayot kechirishlarini bildiradi. Ikki

to’g’ri chiziq kesishish nuqtasidan yuqorida haqiqiy iste’molning barcha miqdorlari ixtiyordagi daromaddan kam hamda ular o’rtasidagi farq jamg’arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste’mol grafigi o’zining og’ish burchagiga ega va bissektrisadan farqli ravishda daromad nolga teng bo’lganda iste’molni ma’lum miqdorini ko’rsatadi (7.1-chizma).



7.1-chizma. Iste’mol grafigi

Chizmadan ko’rinib turibdiki, odamlar joriy yilda hech qanday daromadga ega bo’lishmasa ham, iste’mol qilishdan butunlay to’xtamaydilar, balki ular o’zlarining o’tgan yillardagi jamg’armalari yoki qarz hisobiga yashashadi. Ixtiyordagi daromad va haqiqiy iste’mol o’rtasidagi algebraik bog’liqlikni C=a+bYd ko’rinishidagi chiziqli tenglama ifodalaydi. Bunda a – ixtiyoridagi daromaddan qat’iy nazar avtonom iste’mol, b – chiziqning og’ishi. Chiziqning og’ishi iste’mol hajmini o’zgarishi (vertikal o’zgarish) va ixtiyordagi daromad miqdorini o’zgarishi (gorizontal o’zgarishi) nisbatlari sifatida aniqlanadi.

Keltirilgan ma’lumotlar asosida jamg’arish grafigini ham ko’rib chiqamiz (15-chizma).



7. 2-chizma. Jamg’arish grafigi

Jamg'arish grafigi ixtiyordagi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va ixtiyordagi daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi (S= Yd - C). Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nolga (0) teng bo'lgan holda ixtiyordagi daromad hajmi o'sib borishi bilan uning miqdori ham oshib boradi. Jamg'arish grafigi iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodaga ega: S=-a+(1-b) Yd, bunda a – ixtiyordagi daromad darajasi uning boshlang'ich miqdoridan past bo'lgandagi qarz hajmi, (1-b) – og'ish burchagi bo'lib, jamg'arishni o'zgarishini (vertikal o'zgarish) daromadning o'zgarishiga (gorizontal o'zgarish) bo'lgan nisbati sifatida aniqlanadi.

Mavzuning birinchi savolida keltirilgan gepotetik ma'lumotlar va grafiklarga tayanib iste'mol funktsiyasini yozamiz:

C = a + b Yd , bu yerda: a – avtonom xarajatlar; Yd – tasarrufidagi daromad **(Yd =Y-T), b**u erda: T – soliqlar;

b – iste'mol hajmining tasarrufidagi daromadga bog'liqligini ifodalovchi koeffitsient, boshqacha aytganda iste'molga chegaralangan moyillik.

$$b = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} 100$$

Demak, iste'mol hajmi avtonom iste'molga, tasarrufidagi daromad hajmiga va iste'mol hajmining tasarrufidagi daromad o'zgarishiga ta'sirchanligiga bog'liq.

Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash mumkin, ya'ni jamg'arish funktsiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

S = -a + (1 -b) Yd

Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to'g'rirog'i bu omillardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Uy xo'jaliklari daromadlari.
2. Uy xo'jaliklarida to'plangan mulk hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste'molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Dastlabki besh omil ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari o'zaro teskari tomonga siljiydi. Bu besh omil ta'sirida joriy tasarrufidagi daromad tarkibida iste'mol va jamg'arish ulushi nisbatlari o'zgaradi. Soliqqa tortish darajasining o'zgarishi ixtiyordagi daromad hajmini o'zgartirgani tufayli uning ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari bir tomonga qarab siljiydi. Iste'mol funktsiyasini aniqlash borsidagi tadqiqotlar, uning hajmi shuningdek 6)aholining daromadlari

hajmi va to'plagan mulki ko'lamiga ko'ra tabaqalanishi darajasi hamda 7) aholining soni va yoshiga ko'ra tarkibiga ham bog'liqligini ko'rsatdi.

7.2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik.

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida iste'mol va jamg'arish funktsiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik va chegaralangan moyillik tushunchalarini mohiyatini anglab olishimiz lozim.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufidagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{S}{Yd} \cdot 100$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufidagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APS = \frac{S}{Yd} \cdot 100$$

Bunda: APS (average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Misol uchun, tasarrufidagi daromad darajasi 410 va 530 shartli birlikka va iste'mol darajalari 405 va 495 shartli birlikka teng bo'lgan holatlar uchun iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

ARS =(405 / 410) x 100 = 98, 78% yoki 0,98;

ARS = (495 / 530) x 100 = 93,39% yoki 0,93 ga teng.

Demak, bu misollardan ko'rinib turibdiki, tasarrufidagi daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan uning tarkibidagi iste'mol ulushi kamayib va aksincha jamg'arma ulushi ko'payib boradi. Bu holatni Keynsning "asosiy psixologik qonun"i bilan izohlash mumkin. "Mavjudligiga nafaqat aprior tasavvurlarga ko'ra, bizning inson tabiatini bilishimizdan kelib chiqib shuningdek o'tmish tajribasini sinchiklab o'rganish asosida biz to'liq ishonishimiz lozim bo'lgan asosiy psixologik qonun shundan iboratki kishilar daromadlari o'sishi bilan, odatda, o'z iste'mollarini oshirishga moyillar, ammo daromadlari o'sgan darajada emas"

Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, shu tufayli ham iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik yig'indisi 100% ga yoki koeffitsient ko'rinishda 1 ga teng:

ARS + ARS = 100% yoki **1.**

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlarining o'sgan qismini yo iste'mol qiladi, yoki jamg'aradi.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufidagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MPC = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} 100$$

Bu erda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chegaralangan moyillik.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra ixtiyordagi daromad 410 sh.b.dan 430 sh.b.kacha oshgan holatda MRSni hisoblaymiz.

ΔS =420 - 405 =15; ΔYd =430 - 410 = 20;

MRS = (15/20) 100=75%;

Bu shuni bildiradiki, daromad 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarganda iste'mol 75 % (yoki 0,75)ga o'zgaradi.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MRS = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} 100$$

Bu erda: MPS (marginal propensity to saving) – jamg'arishga o'rtacha moyillik.Yuqorida keltirilgan misolda:

ΔYd = 430 - 410 = 20 ΔS = 10 - 5 = 5

MRS = (5/20) 100 = 25%;

Shunday qilib, iste'molga chegaralangan moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armaga chegaralangan moyillik 0,25 ni tashkil etadi. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Shu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100%ga yoki koeffitsient ko'rinishida 1ga teng bo'ladi.

MRS + MRS =100% yoki 1.

MRS va MRS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

7.3. Jon Maynard Keyns va iste'mol funksiyasi

Biz, 1936-yilda chop etilgan Jon Maynard Keynsning bosh nazariyasi bilan iste'molni o'rganishni boshlaymiz.Bizning Keyns iste'mol funksiyasini nazariyasini yaratdi va bu nazariya makroiqtisodiy tahlilda asosiy rol o'ynagan. Keling ko'rib chiqaylik,Keynes iste'mol funktsiyasi haqida o'ylad, va uning g'oyalari ma'lumotlarga qarshi chiqqaniga guvoh bo'ldi.

Keyns nazariyasi

Bugungi kunda, iqtisodchilar murakkab texnikaga tayanib iste'mol ma'lumotlarini tahlil qiladilar. Kompyuter yordamida, milliy daromad hisobi orqali umumiy iqtisodiyotning tahlil qilish va individual uy xo'jaliklarining tekshirish, ular haqidagi jami ma'lumotlar ustida batafsil tahlil qilish ishlari amalga oshiriladi. Keyns, chunki 1930-yilda ma'lumotlar silsilasi kattaligidek kompyuterlar tahlil qilishning ham afzalligi zaruriyligi haqida yozgan edi. Statistik tahlilga tayanish o'rniga, Keyns iste'mol funktsiyasi asosida o'z-o'zini kuzatish va sababli kuzatish conyucturasini yaratdi.

Birinchi va eng muhimi, Keyns marginal iste'mol talabi deb iste'mol miqdorini nol va bir o'rtasidagi qo'shimcha dollar daromadini hisoblaydi. U shunday yozadi: "fundamental psixologik qonunlarga yukasak ishonchlar bilan vakolat berganmiz…, daromadlari oshganidek iste'mol qilish ham oshadi ammo ko'proq daromadda o'sish kuzatiladi. "Ya'ni shaxs qo'shimcha dollar olsa, u odatdama'lum bir qismini sarflaydi, va ma'lum bir qismini jamg'aradi. 10 bobda ko'rib chiqqanimizdek Keyns muvozanatini rivojlantirdik, iste'molga bo'lgan marginal talab Keyns siyosati tavsiyalariga ya'ni keng tarqalgan ishsizlikni kamaytirish uchun muhim edi. Fiskal siyosat kuchi iqtisodiyotga ta'sir qilishida ya'ni fiskal siyosat bilan ifodalangan daromad va iste'mol o'rtasidagi fikr mulohazalarni ko'payishidadir.

Ikkinchidan, Keyns iste'molnidaromadga nisbati, bu o'rtacha iste'mol talabi pasayadi, daromad ko'tariladi, U jamg'arish qimmatli, chunki u kambag'allikdan ko'ra o'z daromadini yuqori nisbatda ushlab turishi bilan boy bo'lishga intiladi. Shuningdek, keyns analizi shundan iboratki, istemolga bo'lgan o'rtacha talab kamaysa, daromad oshishi keynsning markaziy iqtisodiyotiga aylandi.

Uchinchidan, Keyns fikricha daromad iste'molning asosiy me'zonidir, va talab darajasi muhim rol o'ynamaydi.Uning tahmini o'zidan oldingi klassik iqtisodchilari e'tiqodidan keskin farq qiladi. Klassik iqtisodchilar, yuqori talablar nazariyasi bir masala sifatida jami jamg'armani rag'batlantiradi, iste'molni esa rag'batlantirmaydi deb hisoblaydi. Keyns talab darajasini iste'molga ta'sir ko'rsatishi mumkin, deb tan oldi. Uning yozishicha,"tajribalardagi asosiy xulosasi talab darajasining qisqa muddatli ta'siri nisbatan ahamiyatsiz bo'ladi".
Bu uch taxminlar asosida, Keyns iste'mol funktsiyasini quydagicha ishlab chiqadi

$$C = C^{-} + cY,\ C^{-} > 0,\ 0 < c < 1,$$

C-iste'mol ,Y- bir martalik daromad, C ¯ o'zgarmas, va c-iste'mol qilishning marginal talabi. , iste'mol funktsiyasi, to'g'ri chiziq grafigi bo'ladi. C vertikal o'qda to'xtaydi, va c qiya holatda belgilaydi. Keyns o'rtaga tashlagan iste'mol funktsiyasi uch xususiyatlariga e'tibor bering. Bu Keynsning dastlabki farazi tasdiqlandi,

chunki , nol va bir orasidagi iste'molga b'lgan marginal talab bu – c, shunday qilib, yuqori daromad yuqori iste'mol va shuningdek yuqori jamg'arish bo'lishiga olib keladi. Bu iste'mol funktsiyasida Keyns ikkinchi farazi tasdiqlandi, chunki o'rtacha iste'mol talabi APC ni tashkil etadi,

$$APC = C / Y = C / Y + c.$$

Y ko'tarilsa, C/Y pasayadi, shuning uchun o'rtacha iste'mol talabi C / Y tushadi. Nihoyat, iste'mol funktsiyasi Keynsning uchinchi farazi tasdiqlandi, chunki talab darajasi iste'mol faktori sifatida bu tenglamani o'z ichiga olmaydi.

Ilk amaliy muvafaqqiyatlar.

Keyns iste'mol funktsiyasini tadbiq qilgandan so'ng, iqtisodchilar uning farazlari haqidagi ma'lumotlarni yig`ib, o'rganishniva sinashni boshladilar. Dastlabki tadqiqotlar Keynsning iste'mol funktsiyasi tahmini iste'molchilar tabiati qanday ekanligini ko'rsatadi. Bu izlanishlarning ba'zilarida, tadqiqotchilar uy xo'jaliklarini tekshirib, iste'mol va daromad to'g'risida ma'lumotlarni to'plagan.



Keynsning iste'mol funksiyasi.
Bu grafik iste'mol funksiyasini ko'rsatib beradi. Birinchidan iste'molga chekli moyillik 0 va 1 ning orasida. Ikkinchidan iste'molga o'rtacha moyillik daromad ko'tarilgan sari pasayadi. Uchinchidan iste'mol joriy daromad orqali ifodalanadi.

Daromad yuqori bo'lsa iste'mol ham yuqori boladi va marginal talab noldan katta bo'lishi tasdiqlangan. Ular, shuningdek, daromadi yuqori bo'lganda jamg'arish ham yuqori bo'ladi, marginal talab esa birdan kichik bo'lishini tasdiqladilar. Bundan tashqari, bu tadqiqotchilar yuqori-daromadda jamg'arish ham yuqori bo'ladi,o'rtacha iste'mol talabi kamayganda daromad oshadi. Shunday qilib, bu Keynsning marginal va o'rtacha talab haqidagi qarashlari ma'lumotlari tekshirildi.

Boshqa tadqiqotlarga kelsak, tadqiqotchilar ikkinchi jahon urushi orasidagi davr iste'mol va daromad to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar o'rgandilar.

Ushbu ma'lumotlar ham Keynsning iste'mol funktsiyasi nazariyasini qo'llab-quvvatladi.Daromad past bo'lgan yillarda daromad va jamg'arish miqdori ham past bo'lgan ya'ni marginal iste'mol talabi nol va bir orasida bo'lgan.Bundan tashqari daromad kam yillar davomida iste'mol daromadga nisbati yuqori edi, bu esa Keyns ikkinchi farazini tasdiqlaydi. Daromad va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik juda kuchli edi, boshqa hech qanday o'zgaruvchanlik iste'molini tushuntirib berish uchun muhim bo'lmagan.Shunday qilib, ma'lumotlar, shuningdek,daromad asosiy hal qiluvchi ekanligini Keynes uchinchi farazi ham tasdiqlandi ya'ni qancha odamlar daromadini iste'mol qilishni tanlaydi.

7.4. Irving Fisher va vaqtlararo tanlov

Keynsning iste'mol funksiyasi orqali joriy daromadga joriy iste'mol bog'liqligi ayondir. Bu bog'liqlik to'la bog'lanish emas qachon odamlar qancha iste'mol uchun qancha jamg'arish uchun qaror qilsalar shundagina ular hozirgi va kelajakka ishonch nazari bilan qaraydilar.Ular bugun ko'proq iste'mol qilishdan zavqlanadilar, ertaga esa kamroq zavqlanadilar. Xo'jaliklarda kelajakda oladigan daromadini oldindan bilishi zarur va tovar va xizmatlarni sotib olish qobiliyati mavjud bo'lishi kerak.

Iqtisodchi Irving Fisher iste'molchilarning maqsadli va vaqtlararo tanlovi ya'ni turli davrlarini o'z ichiga olgan tanlovlarni tahlil qilgan iqtisodchilar bilan birgalikda modelini rivojlantirgan.

Vaqtlararo byudjet taqchilligi

Ko'p odamlar tovarlar va xizmatlar miqdorini yoki sifatini oshirishni afzal ko'radilar,Ular yaxshiroq kiyimlarini kiyishni, yaxshiroq restoranlarda ovqatlanishni yoki ko'proq filmlar ko'rishni xohlaydilar. Odamlar o'zlari istaganidan kam iste'mol qilishlarining sababi ularning daromadlari cheklanganligidadir. Boshqacha iste'molchilar qancha sarf qila olish chegarasiga duch kelishadi, bu esa budjet cheklovi deyiladi.Qachon ular qancha iste'mol qilish va qancha kelajak uchun jamg'arish to'grisida qaror qabul qilsalar, ular intertemporal budjet chekloviga duch kelishadi ya'ni bugun va kelajak iste'moli uchun jami resurlar yaroqliligi bilan o'lchanadi.

Oddiy narsalarni saqlab qolish uchun, biz ikki davr yashaydigan iste'molchi qarorini tekshiramiz. Birinchi davr iste'molchi yoshlarni ifodalaydi va ikkinchi davr iste'molchining katta yoshliligini ifodalaydi. Iste'molchi daromad Y1 oladi va birinchi davrda C1 istemol qiladi va daromad Y2 oladi va C2 ikkinchi davrda iste'mol qiladi. (barcha o'zgaruvchilar haqiqiy, ya'ni inflyatsiya uchun o'rnatiladi.) Chunki iste'molchida qarz berish va jamgárish uchun imkoniyatlar mavjud, iste'mol ma'lum bir muddatda daromaddan yuqori yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Iste'molchining daromadi ikki davrda qanday chegaralanadi. Birinchi davrda,

jamgárma = daromad minus iste'molga teng. *Ya'ni*

$$S = Y1 - C1,$$

S jamgárma. Ikkinchi davrda iste'mol jamgármadagi talab plus ikkinchi davr daromadi ya'ni,

$$C_2 = (1 + r) S + Y2$$

r – real talab darajasi hisoblanadi. Misol uchun, agar real talab darajasi 5 foiz bo'lsa, keyin jamg'arishning har 1$ birinchi davrdagi, iste'molchi ikkinchi davrda qo'shimcha $ 1,05 ega. Chunki uchinchi davr mavjud emas, iste'molchi ikkinchi davrda jamgára olmaydi.

O`zgaruvchan S jamgárish yoki qarz bo'lishi mumkin va bu tenglamalar ikkala hollarda teng bo'ladi.Agar birinchi davrda iste'mol ikkinchi davr daromadidan kam bo'lsa, iste'molchi jamg'aradi, S noldan katta bo'ladi. Agar birinchi davrda iste'mol daromaddan oshsa,iste'molchi qarz beradi va S noldan kichik bo'ladi. Biz qarz berish talab darajasi va jamgárish talab darajasi bir xil deb faraz qilamiz.

Iste'mol byudjeti cheklovini hosil qilish uchun, ikki oldingi tenglamalarni birlashtirish kerak birinchi tenglamani o'rniga ikkinchi tenglama S qo'yiladi.

$$C2 = (1 + r) (Y_1 - C_1) + Y_2.$$

Tenglamani yengillashtirish uchun, biz shartlarini qayta tashkil qilishimiz kerak.

(1 + r) C1 o'ng tomondan olinib tenglamaning chap tomonga suriladi va joylashtiriladi.

$$(1 + r) C_1 + C_2 = (1 + r) Y_1 + Y_2.$$

Endi 1 + r har ikki tomonidan ajratib olinadi.

$$C1 + = Y1 + C_2/1+r = Y1 + Y_2/1+r$$

Bu tenglama daromadga ikki davrlarda iste'mol bilan bog'liq.
Bu intertemporal budjet cheklovini tasvirlashning standart yo'lidir.
Iste'mol byudjeti cheklov osonlikcha talqin etiladi. Agar talab darajasi nolga teng bo'lsa, budjet cheklovi shuni ko'rsatadiki ikkinchi davrdagi jami iste'mol ikkinchi davrdagi jami daromadga teng bo'ladi. Talab darajasi noldan katta bo'laganda kelajakdagi daromad va iste'mol 1+r orqali hisobga olinmaydi. Bu diskontlash jamg'armaga talab orqali vujudga kelgan.Iste'molchi talabi joriy daromaddan kelib chiqadi ya'ni kelajakdagi daromad joriy daromadga qaraganda yaxshiroq.

Xuddi shunday, kelajakda iste'mol uchun jamg'armadan to'lanadi ya'ni kelajakda daromad joriy daromadga qaraganda kamroq bo'ladi. Ikkinchi davr iste'moli omil 1 / (1 + r) bilan o'lchanadi:Birinchi davr istemol miqdori ikkinchi davr iste'molning bir qismini tashkil etishi lozim.

Quyidagi rasmda iste'mol byudjet cheklovi aks etgan.Rasmda uch nuqta belgilangan. Nuqta A, iste'molchi har bir davrda o'zining daromadini iste'mol qiladi ($C_1 = Y_1$ va $C_2 = Y_2$), shuning uchun ikki davrda ham na qarz olish na



Iste'molchi budjet cheklovi.
Bu grafik birinchi va ikkinchi davrlarda iste'molchi tanlovini ko'ramiz. Agar u A va B nuqtalarni tanlasa, u kamroq iste'mol qiladi. Agar u A va C nuqtani tanlasa u ko'proq iste'mol qiladi.

jamg'arish bo'lmaydi.Nuqta B da, iste'molchi birinchi davrida hech narsa iste'mol qilmaydi (C1 = 0) va barcha daromadini jamg'aradi, shuning uchun ikkinchi davri iste'mol C_2 $(1 + r)$ $Y_1 + Y_2$hisoblanadi. C nuqtada, iste'molchi ikkinchi davrida hech narsa iste'mol qilmaslikni rejalashtiradi ($C_2 = 0$) va shuning uchun,qarz olish ikkinchi davri daromadiga imkon qadar qarshi bo'ladi, shuningdek, birinchi davri iste'mol C_1bu $Y_1 + Y_2 / (1 + r)$ hisoblanadi.Birinchi va ikkinchi davr iste'molining uchta asosiy kombinatsiyasi mavjud ya'ni iste'molchi B dan C surilishi mumkin.

Qachonki 1-davr iste'moli past va 2-davr iste'moli baland bo'lganda, ya'ni Y nuqtada, ayirboshlashning muhim bo'lmagan qismi baland bo'ladi: iste'molchi 1-davr iste'molining bir qismidan voz kechish uchun ko'proq qo'shimcha tarzda 2-davr iste'moliga ehtiyoj sezadi.

Iste'molchi berilgan o'xshash egri chiziqning hamma nuqtalarida teng ravishda baxtli bo'ladi, lekin u boshqalariga qaraganda ba'zi o'xshash egri chiziqlarni afzal ko'radi. Chunki u kamroq iste'moldan ko'ra, ko'proq iste'molni afzal ko'radi, u quyiroqdagi o'xshash egri chiziqlardan ko'ra yuqoriroqdagi o'xshash egri chiziqlarni afzal ko'radi. Quyidagi chizmada iste'mol IC1 egri chizig'idagi istalgan nuqtalardan ko'ra IC2 egri chizig'idagi istalgan nuqtalarni ma'qul ko'radi.



Iste'molchi afzalligi.
Befarqlik egri chizig'i iste'molchi afzalligini birinchi va ikkinchi iste'mol davrlari bo'yicha ko'rsatib beradi. Befarqlik egri chizig'I ikkita davrda iste'mol egri chizig'I kombinatsiyasini ko'rsatadi.Bu rasm ko'p befarqlik egri chizig'ining ikkitasini ko'rsatadi.
Iste'molchi W,X,Y nuqtalarda bir xil qoniqadi ammo W, X, Y nuqtalarga qaraganda Z nuqtani afzal ko'radi.

O'xshash egri chiziqlar to'plami iste'molchi tanlovining to'liq holatini ko'rsatadi. Bu shuni bizga ma'lum qiladiki, iste'molchi W nuqtadan ko'ra Z nuqtani tanlaydi, lekin bu aniq bo'lishi kerak, chunki Z nuqtada ikkala davrda ham ko'proq iste'mol bo'ladi. Z nuqta va Y nuqtalarni taqqoslaymiz: Z nuqtada 1-davrda ko'proq iste'mol va 2-davrda esa kamroq iste'mol mavjud. Qaysi biri tanlangan, Z yoki Y? Z nuqta Y nuqtaga qaraganda yuqoridagi o'xshash egri chiziqda ekanligidan biz bilamizki, iste'molchi Y nuqtadan ko'ra Z nuqtani afzal ko'radi. Shunday qilib, biz 1-davr va 2-davr iste'mollarining istalgan kombinatsiyalarini joylashtirish uchun o'xshash egri chiziqlar to'plamini ishlatishimiz kerak. [7]

Iste'mol xarajatlarini YaIMning eng yirik komponenti bo'lib, uning hajmini avvalo uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi belgilaydi. Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan undagi jamg'armalar ulushi ham oshib boradi.

Iste'mol va jamg'arish hajmi, shuningdek iste'molchilar boyliklari darajasiga, narx va soliq o'zgarishlari, iste'molchilarning qarzi darajasiga va boshqa omillarga bog'liq.

Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik aholi daromadlarining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga sarflanganligini xarakterlovchi ko'rsatkichlardir.

Iste'molga chegaraviy moyillik (MRS) iste'moldagi o'zgarishlarni ixtiyordagi daromad darajasidagi o'zgarishga bo'lib topiladi. MRS ning katta yoki kichikligi fiskal siyosat samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

[7] N. Gregory Mankiw. Macroeconomics (7th edition). USA, 2009, p 496-498.

8-mavzu. INVESTETSIYA VA UNING IQTISODIYOTDAGI O`RNI

Reja

1. Investitsiya xarajatlari va ularning tiplari
2. Investitsiyalarning mohiyati, ko'rinishlari va ularmiqdorini aniqlovchi omillar
3. Investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasidagi bog'liqlik

Tayanch so'z va iboralar: *лойиҳа, investitsiya, investitsion xarajatlar, foiz stavkasi, asosiy fondlar, kapital zahiralari, foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari, хорижий инвестициялар, реал иқтисодиёт, диверсификация*

1.Investitsiya xarajatlari va ularning tiplari

Investitsiyalar YaIMning juda muhim va eng o'zgaruvchan tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Pasayish vaqtida tovar va xizmatlarga xarajatlar qisqarishi yuz beradi, bu qisqarishning katta qismi investitsion xarajatlar hajmining pasayishi tufayli yuzaga kelgan.

Iqtisodchilar tovar va xizmatlar ishlab chiqarish miqdorining o'zgarish tabiatini yaxshiroq tushunish uchun investitsiyalarni o'rganadilar. YaIM modellarida investitsiyalar darajasini real foiz stavkasi bilan bog'lovchi oddiy funktsiya I=I(r) qo'llaniladi. Bunday funktsiya real foiz stavkasining ko'payishi investitsiyalarni qisqarishini yuzaga keltirishini anglatadi. Investitsiya funktsiyasining asosida yotuvchi nazariyani batafsilroq ko'rib chiqish juda muhimdir.

Investitsiya xarajatlarining uchta tipi ajratiladi. Korxonalarning asosiy fondlariga investitsiyalar bu korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish faoliyatlarida foydalanish uchun sotib olinadigan binolar, inshoatlar va asbob-uskunalardir. Uy-joy qurilishi uchun investitsiyalar o'z ichiga ularda o'zlari yashashlari uchun uylarni sotib olishga xarajatlarni, shuningdek keyinchalik ijaraga berish uchun uy egalari tomonidan sotib olinayotgan uylarga xarajatlarni o'z ichiga oladi. Zahiralarga investitsiyalar saqlash uchun firmalar tomonidan qoldirilgan tovarlarnio'z ichiga oladi. Bu tovarlar tarkibiga hom ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor buyumlar ham kiradi.

Korxonaning asosiy fondlariga investitsiyalarning andozaviy modeli investitsiyalarning neoklassik modeli nomini olgan. Neoklassik modelda investitsion tovarlarga ega bo'lgan firmalarning foyda va xarajatlari ko'rib chiqiladi. Modelda investitsiyalar darajasi kapital zahiralari bilan birgalikda kapitalning chekli mahsuli, foiz stavkasi hamda firmalarga nisbatan qo'llaniladigan soliqqa tortish qoidalariga qanday bog'liqligi ko'rsatiladi.

Modelni shakllantirish uchun iqtisodiyotda firmalarning ikki turi mavjud deb faraz qilamiz. Ishlab chiqaruvchi firmalar ijaraga olingan kapitaldan foydalanib

tovar va xizmatlar ishlab chiqaradilar. Kapitalni ijaraga beruvchi firmalar iqtisodiyotga barcha investitsiyalarni amalga oshiradilar; ular ishlab chiqarish fondlarini sotib oladilar va ularni ishlab chiqaruvchi firmalarga ijaraga beradilar. Hayotdagi iqtisodiyotda ko'plab firmalar ikkala funktsiyani ham bajaradilar, ya'ni ular tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradilar hamda kelgusi ishlab chiqarishga kapitalni investitsiya qiladilar. Bizning tahlilimiz nuqtai nazaridan faoliyatning bu ikki turini ular bilan turli xil firmalar shug'ullanadi deb faraz qilgan holda ajratish foydalidir.

Dastavval ishlab chiqaruvchi firmalarni ko'rib chiqamiz. Odatda firma foydalanadigan kapital miqdori to'g'risidagi qarorini quyidagi tartibda qabul qiladi: kapitalning xar bir qo'shimcha birligidan olinadigan foyda va xarajatlarni solishtiradi. Firma kapitalni Rstavka bo'yicha ijaraga oladi va o'z mahsulotini R narx bo'yicha sotadi, ishlab chiqaruvchi firma uchun kapital birligiga haqiqatdagi xarajatlar R/R ni tashkil etadi. Kapital birligidan foydalanishning haqiqiy natijasi kapitalning chekli mahsulotidir (MPK), ya'ni kapitalning qo'shimcha birligidan foydalanish hisobiga olinadigan qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotdir. Firma tomonidan foydalaniladigan kapital hajmi ortishi bilan uning chekli mahsuloti pasayadi: firma qanchalik ko'proq kapitalga ega bo'lsa, kapitalni qo'shib borish bilan ishlab chiqarish hajmining shunchalik kam o'sishiga erishiladi. Bundan xulosa shuki, firma foydasini maksimallashtirish uchun kapitalning chekli mahsuloti kapitalni ijaraga olishning haqiqiy narxi darajasigacha pasaymagunga qadar, ijaraga olinadigan kapitalni oshiradi. Shunday qilib kapitalning chekli mahsuloti grafigi bizga kapitalga bo'lgan talab grafigini beradi. Quyidagi chizmada ijaraga olingan kapital bozoridagi muvozanat ko'rsatilgan. Kapitalning chekli mahsuloti kapitalga bo'lgan talab egri chizig'ini aniqlaydi. Kapitalag bo'lgan talab egri chizig'i o'ngga pastga egilgan, chunki kapital hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, uning chekli mahsuloti shunchalik kam. Xar bir vaqtda iqtisodiyotdagi kapital miqdori qayd etilgan, shuning uchun taklif egri chizig'i vertikal chiziq hisoblanadi.kapitalni ijarasi uchun olinadigan narx talab va taklifni muvozanatlashtirish uchun o'zgartirib turiladi.



Kapital ijarasi uchun olinadigan narxning muvozanatli darajasiga qanday o'zgaruvchilar ta'sir etishini aniqlash uchun ko'plab iqtisodchilar qanday qilib mehnat va kapital hayotdagi iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarga aylanishini etarli darajada asoslangan holda aks ettiruvchi sifatida qaraydigan Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funktsiyasini asos qilib olamiz. quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = A K^{\alpha} L^{1-\alpha}$$

Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funktsiyasida kapitalning chekli mahsuloti quyidagicha yoziladi:

$$MPK=\alpha A (L/K)^{1-\alpha}$$

bunda K-kapital, L-mehnat, A-texnologiya darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkich va α – tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda kapitalning ulushini o'lchovchi noldan katta va birdan kichik bo'lgan ko'rsatkich. Muvozanat sharoitida kapital ijarasi uchun olinadigan haqiqiy narx kapitalning chekli mahsulotiga teng bo'lganligi sababli, biz quyidagi ifodani yozishimiz mumkin:

$$R/ R =\alpha A (L/K)^{1-\alpha}$$

Bu kapital ijarasi uchun olinadigan haqiqiy narxni aniqlovchi o'zgaruvchilar miqdorining ifodasidir. U quyidagilarni ko'rsatadi:

- Kapital zahirasi qanchalik kam bo'lsa,uning ijarasini haqiqiy narxi shunchalik yuqori.
- Qo'llaniladigan mehnat miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, kapital ijarasi haqiqiy narxi shunchalik yuqori.
- Texnologiya qanchalik yaxshi bo'lsa, kapital ijarasi haqiqiy narxi shunchalik yuqori.

Kapital zahiralarini kamaytiruvchi (er qimirlashi), bandlikni oshiruvchi (slpi tplab kengayishi) yoki texnologiyani yaxshilovchi (ilmiy topilmalar) kapital ijarasi uchun olinadigan haqiqiy narxning muvozanatli miqdorini oshiradi.

Kapitalga egalik qilishning foydaliligi uni ishlab chiqaruvchi firmalarga ijaraga berishdan olinadigan daromaddandir. O'z kapitalini ijaraga bergan firma uning xar birligiga R/ R haqiqiy narxni oladi.

Kapitalga egalik qilish xarajatlari murakkabroq tuzilishga ega. Firma kapital birligini ijaraga berayotgan vaqtning xar bir davri mobaynida u uch xil xarajatlarni qiladi:

1.Firma kapital birligini sotib olib, keyin uni ijaraga berayotganda u kapitalni sotib olish uchun sarflangan mablag'larni bank hisobiga qo'yib olishi mumkin bo'lgan miqdordan foizlarni yo'qotadi. Yoki, shunga o'xshash, firma kapitalni sotib olish uchun qarz mablag'laridan foydalandi, unda u olingan qarz bo'yicha foizlar to'lashiga to'g'ri keladi. Agar R_k- kapital birligini sotib olish narxi, i-nominal foiz stavkasi bo'lsa, unda iR_k– foizlar bo'yicha xarajatlardir.

2. Firma kapitalni ijaraga berguncha, uning narxi o'zgarishi mumkin. Agar kapital narxi pasaygan bo'lsa, unda firma uning aktivlari qiymati pasayganligi tufayli zarar ko'rishi mumkin. Agar kapital narxi oshayotgan bo'lsa, unda firma aktivlari qiymati ko'tarilishi sababli yutadi. Bu yutuq yoki zararning miqdori ΔR_kga teng.

3. Kapital ijaraga berilganda, u eskiradi va qiymatini yo'qotadi. Bu amortizatsiya deb ataladi. Agar δ-amortizatsiya me'yori, ya'ni eskirish natijasida muayyan davr davomida qiymatning yo'qotilgan qismi bo'lsa, unda amortizatsiya miqdorining puldagi ifodasi δR_kbo'ladi.

Shunday qilib, bir davr mobaynida kapital birligini ijaraga berish bo'yicha umumiy xarajatlarquyidagini tashkil etadi:

Kapital birligiga xarajatlar = $iR_k-\Delta R_k+\delta R_k= R_k(i-\Delta R_k/R_k+\delta)$

Kapital birligiga xarajatlarkapital birligi narxiga, foiz stavkasiga, kapital narxni nisbiy o'zgarishiga va amortizatsiya me'yoriga bog'liq.

Kapital birligi xarajatlari uchun ifodani soddalashtirish va u bilan ishlash qulay bo'lishi uchun investitsion tovarlar narxi boshqa tovarlar narxi bilan birga ko'tariladi deb hisoblaymiz. Bunday vaziyatda $\Delta R_k/R_k$inflyatsiyaning umumiy darajasi π ga teng. i – π ifoda real foiz stavkasi r ga teng bo'lganligi uchun, biz kapital birligiga xarajatlarni quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin.

Kapital birligiga xarajatlar = $R_k(r +\delta)$

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, kapital birligiga xarajatlar kapital narxi, real foiz stavkasi va amortizatsiya me'yoriga bog'liq.

Va nihyat biz kapital birligiga xarajatlarni iqtisodiyotdagi boshqa tovarlar narxlari bilan bog'liqligini ko'rmoqchimiz. Kapital birligiga haqiqiy xarajatlar- bu iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklarida o'lchangan kapital birligini sotib olish va ijaraga berish bo'yicha xarajatlardir va u quyidagini tashkil etadi:

Kapital birligiga haqiqiy xarajatlar= $(R_k/R)(r +\delta)$

Bu tenglamadan ko'rish mumkinki, kapital birligiga haqiqiy xarajatlar investitsion tovarlar nisbiy narxlari R_k/R, real foiz stavkasi r va amortizatsiya me'yori δ ga bog'liq.

2.Investitsiyalarning mohiyati, ko'rinishlari va ularmiqdorini aniqlovchi omillar

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi.

Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs – investor deyiladi.

Investitsiyalarning manbalaridan biri bo'lib aholi keng qatlamlarining jamg'armalari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, amalda jamg'arma egasi va investor bir shaxsda namoyon bo'lishi va bo'lmasligi ham mumkin. Odatda, jamg'arma jamiyatdagi ko'pchilik sub'ektlar tomonidan amalga oshirilib, ulardan investitsiya sifatida foydalanish esa butunlay boshqa sub'ektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar jamg'armasi ham investitsiya manbai bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda «jamg'aruvchi» va «investor» bir sub'ektda mujassamlashadi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalarivah.k.);
- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);
- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aktsiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);
- davlat byudjeti mablag'lari;
- chet elliklar mablag'lari.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi;

2) foiz stavkasi.

Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruvchi motive foyda hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini ular foyda keltiradigan bo'lsagina sotib oladilar.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil foizning real stavkasi hisoblanadi. Foiz stavkasi – real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan, bankdan olingan ssuda kapitaliga korxona to'lashi lozim bo'lgan pul miqdori.

Kapital birligiga real foyda quyidagini tashkil etadi:

Foyda me'yori = daromad (R/ R) – xarajatlar $(R_k/R)(r+\delta)$

Muvozanat sharoitida kapital ijarasidan olinadigan haqiqiy narx kapitalning chekli mahsulotiga teng bo'lganligi sababli biz foyda me'yori uchun ifodani quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

Foyda me'yori $=MPK-(R_k/R)(r+\delta)$

Kapitalni ijaraga beruvchi firmalar agar kapitalning chekli mahsuloti bir birlik kapitalga xarajatlardan katta bo'lsa foyda oladilar, aksincha bo'lsa, zarar ko'radilar. Aynan shu ko'rsatkich sof investitsiyalar miqdorini belgilab beradi.

$$\Delta K=I_n(MPK-(R_k/R)(r+\delta))$$

bunda $I_n(MPK-(R_k/R)(r+\delta))$ funktsiya sof investitsiyalar miqdori

investitsiyalarga rag’batlar mavjudligiga qanchalik ta’sirchanligini ko’rsatadi.

Endi biz investitsiya funktsiyasini keltirib chiqarishimiz mumkin. Korxonalar asosiy fondiga investitsiyalar uchun xarajatlarning umumiy miqdori sof investitsiyalar va chiqib ketgan kapitalni tiklashga investitsiyalar miqdorlari yig’indisiga teng. Investitsiya funktsiyasi quyidagicha yoziladi:

$$I=I_n(MPK –(R_k/R)(r +\delta)) +\delta K.$$

Korxonalar asosiy fondlariga investitsiyalar kapitalning chekli mahsuloti, kapital birligiga xarajatlar va kapitalning chiqib ketgan miqdoriga bog’liq bo’ladi.

Model shuningdek investitsiyalar nima uchun foiz stavkasiga bog’liqligini ham ko’rsatadi. Foiz stavkasini o’sishi kapital birligiga xarajatlarni ko’paytiradi. Bu kapital egalari tomonidan olinadigan foyda qisqarishiga olib keladi va kapitalning katta qismini jamg’arishga rag’batni qisqartiradi. Xuddi shunga o’xshash, foiz stavkasini pasayishi kapital birligiga xarajatlarni qisqartiradi va investitsiyalarni rag’batlantiradi. Shu sababdan ham investitsiyalarning foiz stavkasiga bog’lifligini ifodalovchi egri chiziq pastga egilgan.

Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa quyidagi omillar ham ta’sir ko’rsatadi:

1) mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko’rsatish xarajatlari;

2) tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori;

3) texnologik o’zgarishlar.

Yalpi sarflar tarkibining investitsiya sarflariga oid qismi yalpi xususiy ichki investitsiyalar deb yuritiladi. Shunga ko’ra yalpi va sof investitsiyalarni ham bir-biridan farqlash zarur.

Yalpi investitsiyalar joriy yil davomida iste’mol qilingan asosiy kapitalni qoplashga mo’ljallangan (amortizatsiya) hamda iqtisodiyotdagi kapital hajmiga har qanday sof qo’shimchalardan iborat barcha investitsion tovarlarni ishlab chiqarishni o’z ichiga oladi. Sof investitsiyalar esa joriy yil davomida qo’shimcha ravishda jalb qilingan investitsion tovarlardan iborat.

Yalpi investitsiya hamda amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri

a) o'sib boruvchi iqtisodiyot



b) turg'un iqtisodiyot



v) qisqarayotgan iqtisodiyot



Boshqacha aytganda, sof investitsiya yalpi investitsiya bilan amortizatsiya ajratmalarining ayirmasiga teng. Sof investitsiya asosiy va aylanma kapitalning

o’sishini ta’minlaydi.

Yalpi investitsiyalar bilan amortizatsiya hajmi o’rtasidagi nisbat iqtisodiyot rivojlanish holatining ko’rsatkichi hisoblanadi.

Yuqoridagi chizmada yalpi va sof investitsiyalar hamda amortizatsiya nisbati o’zgarishining o’suvchi, turg’un va qisqaruvchi iqtisodiyotlarga ta’sirini ko’rishimiz mumkin.

Chizmadan ko’rinadiki, yalpi investitsiyalar tarkibida sof investitsiyalar hajmining ahamiyatli darajada bo’lishi yil oxirida kapital hajmining o’sishiga hamda, pirovardida iqtisodiyotning o’sishiga olib keladi. Turg’un iqtisodiyot sharoitida esa yalpi investitsiyalar faqat amortizatsiya ajratmalari, ya’ni iste’mol qilingan kapitalni qoplash fondi hajmiga teng bo’lib, yil oxirida kapital miqdori o’zgarmay qoladi.

Yalpi investitsiyalarning iste’mol qilingan kapitalni qoplash fondi hajmidan ham oz bo’lishi yil oxirida kapital miqdorining qisqarishiga va buning oqibatida, iqtisodiyot ko’rsatkichlarining pasayib ketishiga olib keladi.

Investitsiyalarhajmining YaIM yokidaromadlardarajasigabog’liqligini akselerator modeli aksettiradi:

I = f(Y), ya’niinvestitsiyalar (I) YaIM (Y)ningfunktsiyasiekan.

Akselerator modeliningto’liqroqko’rinishiquyidagichabo’ladi:

$$I = I_{reja} + \gamma Y$$

bu erda:

$$\gamma = \frac{\Delta I}{\Delta Y} = \frac{It - It\text{-}1}{Yt - Yt\text{-}1}$$

I_{reja} – rejalashtirilgan investitsiyalar;Y – YaIM (daromad) hajmi.

Akseletator modelini hisobga olib, investitsiya funktsiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = e - dR + \gamma Y$$

YaIM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko’payishiga olib keladi. Korxona foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi

3. Investitsiyalar va jamg’armalar o’rtasidagi bog’liqlik

Jamg’arma va investitsiya o’rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatga erishish barqaror iqtisodiy o’sishning sharti hisoblanadi. Biroq, bu muvozanatga erishish doimo oson kechavermaydi. Bunga sabab investitsiya darajasi hamda jamg’arma darajasining boshqa-boshqa jarayon va holatlarga bog’liqligi hisoblanadi.

Investitsiya va jamg’arma o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash borasida bir qator nazariy qarashlar farqlanadi. Bu borada eng avvalo klassik iqtisodchilarning qarashlarini ko’rib chiqamiz.

Klassik iqtisodchilar nuqtai nazaridagi eng markaziy holat – bu ular tomonidan foiz stavkasining ham investitsiyaning, ham jamg’armaning funktsiyasi sifatida qaralishi hisoblanadi.



Jamg’arma va investitsiya o’rtasidagi muvozanatning klassik modeli

Chizmadan ko’rinadiki, klassik modelni tuzishda tik o’q bo’yicha real foiz stavkasi, yotiq o’q bo’yicha esa jamg’arma va investitsiya hajmi ko’rsatkichlari joylashtirilgan. Investitsiya va foiz stavkasi o’rtasida teskari funktsional bog’liqlik mavjud: foiz stavkasi qanchalik yuqori bo’lsa, investitsiya hajmi shu qadar past bo’ladi va aksincha. Jamg’arma esa to’g’ri, o’suvchi funktsional bog’liqlikka ega, ya’ni foiz stavkasining yuqori bo’lishi jamg’arma darajasining ham yuqori bo’lishiga olib keladi.

Iqtisodiyotdagi investitsiya va jamg’arma hajmlari o’rtasida muvozanat (E nuqta)ga erishish uchun foiz stavkasining r_0 darajasi ta’minlanishi lozim. Foiz stavkasi darajasining muvozanat darajasidan chetlanishi (r_1 – past var$_2$ – yuqori bo’lgan holatlar) investitsiya va jamg’arma hajmi o’rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Foiz stavkasining r_1 darajasida investorlar uchun qulay narxlarning vujudga kelishi investitsion resurslarga bo’lgan talabni oshiradi, biroq bunday darajada jamg’arma uchun rag’bat pasayib ketadi. Natijada investitsion resurslar taqchilligi paydo bo’ladi. r_2 darajada esa barcha sub’ektlar uchun jamg’armaning nafliligi oshadi, biroq bunday foiz darajasida barcha investorlar ham o’z faoliyatining foydaliligini ta’minlay olmaydilar. Natijada jamg’armaning ahamiyatli qismi investitsiyalarga aylana olmaydi.

Keynschilarning investitsiya va jamg’arma o’rtasidagi muvozanat modeli o’z tuzilishiga ko’ra klassik modeldan farq qiladi. Bunda eng markaziy nuqta – J.M.Keyns tomonidan jamg’arma foiz stavkasining emas, balki daromadning

funktsiyasi deb qaralishi hisoblanadi: $S = S(Y)$. Investitsiya esa, klassik modeldagisingari, foiz stavkasining funktsiyasi deb olinadi: $I = I(r)$.Ya'ni, keynscha kontseptsiyaning asosida jamg'arish va investitsiya darajalarining boshqa-boshqa omillar ta'sirida o'zgarishi yotadi. Keynscha modelning mohiyatini quyidagi chizma orqali izohlash mumkin.



Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli

Chizmadan ko'rinadiki, grafik ko'rsatkichlarining joylashuvi ham klassik modeldan farq qiladi. Tik o'qda jamg'arma (S) va investitsiya (I) darajasi, yotiq o'qda esa milliy daromad darajasi (NI) joylashgan. Iqtisodiyotdagi jamg'arma darajasi milliy daromad hajmiga bog'liq holda o'zgaradi. Milliy daromad hajmi amalda investitsiya darajasiga ham ta'sir ko'rsatsada, mazkur modelda uni milliy daromadga bog'liq bo'lmagan, ya'ni avtonom holda beriladi. Grafikda investitsiya va jamg'arma egri chiziqlari E nuqtada kesishadi. Agar iqtisodiyotdagi to'la bandlik holatiga milliy daromadning F darajasida erishiladi, deb tasavvur qilsak, u holda bu darajada investitsiya va jamg'arma muvozanatini ($E_F$nuqta) ta'minlash uchun investitsiya I_F darajada bo'lishiga erishish lozim bo'ladi. Biroq, Keyns talqiniga ko'ra, investitsiya va jamg'arma darajasining muvozanati to'la bandlik bo'lmagan sharoitda ham ta'minlanishi mumkin: grafikdagi milliy daromadning N hajmida aynan shu holatga (E nuqta) erishiladi.

Investitsiya va jamg'arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellari o'rtasidagi farq quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: **birinchidan,** klassik modelda bu muvozanat ro'y berishi uchun iqtisodiyotning doimiy ravishda to'la bandlik holatida bo'lishi taqozo etiladi. Keynscha modelda esa, yuqorida ko'rib chiqilganidek, bu muvozanatga to'la bandlik bo'lmagan holatda ham erishish mumkin; **ikkinchidan,** klassik modelda narx mexanizmi juda harakatchan bo'ladi. Keynscha modelda narxning bunday moslashuvchanligi inkor etiladi; **uchinchidan,** yuqorida ta'kidlanganidek, klassik modelda jamg'arma foiz stavkasining funktsiyasi sifatida, keynscha modelda esa daromad funktsiyasi sifatida qaraladi. Demak, yuqoridagilardan ko'rinadiki, jamg'arma va investitsiya

o’rtasidagi muvozanatning keynscha modeli klassik modelga nisbatan asoslangan, real hayot, ya’ni iqtisodiyotning to’la bandligi mavjud bo’lmagan holatga nisbatan ham tatbiq etilib, takomillashtirilgan model hisoblanadi. Shunga ko’ra, biz ham makrodarajadagi boshqa muammolarni ko’rib chiqish va tahlil qilishda, asosan, ushbu modeldan foydalanamiz.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbai sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarur. Mustaqillikning dastlabki yillarida hukumat tomonidan iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirish tamoyillari ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillarida investitsiya dasturlaridagi loyihalarni amalga oshirish uchun jahonning Xitoy, Germaniya, Janubiy Korea, Yaponiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Malayziya, Rossiya kabi 30 dan ziyod mamlakatlaridan xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilindi.

Milliy iqtisodiyotning jahon xo’jaligidagi mavqeini mustahkamlash, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini yanada ko’tarish, sanoatning texnik tarkibini zamonaviylashtirish muammolari ham davlat siyosatining boshqa omillari qatorida investitsion siyosat orqali amalga oshiriladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, etakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirmay turib iqtisodiyotimizda tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarimizni zamonaviy texnika bilan qayta jixozlash hamda raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish mumkin emas.

Mahsus industrial zonalardagi korxonalar tomonidan qiymati 100 milliard so’mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi va bu boradagi o’sish sur’ati 2015 yilga nisbatan 27,8 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jixozlashni ta’minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi, to’qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog’i hamda boshqa yo’nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e’tibor berilmoqda.

2015−2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o’zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash chora-tadbirlari dasturini tayyorlash doirasida jami qiymati 38 milliard dollarga teng bo’lgan 870 ta yirik investitsiya loyihasi ro’yxati shakllantirildi. Ushbu loyihalarga binoan 415 ta yangi korxona barpo etish hamda 455 ta ishlab turgan korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash nazarda tutilgan.

O’zbekistonnning 2015 yil iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlari

yakunlari va 2016 yil uchun taraqqiyot yo'limizning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga oid ma'ruzada mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqligi ta'kidlandi. 2015 yilda ana shu maqsadlarda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyod yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalaridar. Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi. O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 milliard xajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 milliard dollardan ortiq xorijiy sarmoyalarni jalb etish hisobidan biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, neft gaz mashinasozligi, maishiy elektronika, farmatsevtika, yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati kabi soha va tarmoqlarga asos solindi. Mahalliylashtirilgan mahsulotlarning 585 ta yangi turini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Joriy yilning 1 yarmida strategik investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirish va joriy yilda ishga tushiriladigan muhim ob'ektlarni hamda sanoat quvvatlarini, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini o'z vaqtida foydalanishga topshirishni so'zsiz ta'minlash yuzasidan, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlarini 11,8 foizga, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni 17,2 foizga ko'paytirish ta'minlandi. Jami qiymati 1,9 milliard AQSh dollari bo'lgan 43 ta ishlab chiqarish ob'ektlari foydalanishga topshirildi. Umumiy qiymati 3,4 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lgan 72 ta yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish boshlandi. Mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari 1,5 baravarga oshishi ta'minlandi.

Mamlakat milliy xo'jaligini modernizatsiyalashda xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini oshirish orqali ularni real sektorga yo'naltirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun moliya bozorining chayqovchilikka asoslangan modelidan iqtisodiyotning barqaror o'sishi va modernizatsiyani moliyaviy ta'minlash hamda rag'batlantirishga yo'naltirilgan modeliga o'tish lozim. Bundan tashqari iqtisodiyotning tez o'sayotgan sohalarini, yuqori texnologiyali tarmoqlarni, innovatsion sohani moliyalashtirishning barcha bo'g'inlari bo'yicha moliyalashtirishda ehtiyojlarni qoplash ko'zda tutilmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni norezidentlarning portfelli qo'yilmalari ko'payishidan

ustunroq o’sishini ta’minlash kerak. Real iqtisodiyotning moliyaviy aktivlariga uzoq muddatli qo’yilmalar uchun byudjet resurslarini ko’paytirish zarur.

Bugun mamlakatimizda shunday amaliy tajriba to’plandiki, unga ko’ra, O’zbekiston sharoitida yurtimiz sarmoyadorlari bilan bir qatorda chet ellik investorlar aktsiyalarga ega bo’lgan mulkchilik shakli eng maqbul bo’lib, har jihatdan o’zini oqlamoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning xorijiy investorlari ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxona muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ushbu kompaniyalar O’zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma’lum.

O’zbekiston hududida to’liq chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Xususan, 2016 yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dollar qiymatidagi investitsiyalar yo’naltirish, ularning o’sish sur’atini 109,3 foizga etkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard dollardan ortig’ini xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015 yilga nisbatan 20,8 foiz ko’pdir.

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalardan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yanada qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo’yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag’batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g’ovlar va to’siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo’l qo’ymaslik borasida qo’shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

9-Mavzu: PUL TAKLIFI, PULGA TALAB VA BANK TIZIMI.

Reja:

1. Pul tushunchasi va uning funktsiyalari. Pul agregatlari.
2. Pul taklifi. Bank multiplikatori.
3. Pul taklifining kengaytirilgan modeli pul multiplikatori.
4. Pulga talabning klassik va keynscha nazariyalari.
5. Pul bozorida muvozanat.
6. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi.

Tayanch so’z va iboralar: *pul, likvidlilik, pul massasi, pulga talab, pul*

taklifi, pul multiplikatori, daromadlar darajasi, pulning aylanish tezligi, foiz stavkasi

1. Pul tushunchasi va uning funktsiyalari. Pul agregatlari.

Pul – iqtisodiyot sub'ektlari mulkining bir turi bo'lib, mulkning boshqa turlaridan ikki xususiyatiga ko'ra farq qilad:

birinchidan, pul yuqori likvidliliklar, ya'ni qisqa muddatda, sezilarsiz sarf - xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatiga ega;

ikkinchidan, baholar o'zgarmas bo'lgan sharoitda pul yoki hech qanday daromad keltirmaydi, yoki uning daromadliligi darajasi boshqa mulk turlarinikidan ancha kam. Shunga qaramasdan kishilar nima uchun mulk sifatida pulga egalik qilishga harakat qiladilar? Bu savolga javobni pulning funktsiyalaridan topamiz.

Odatda pulning uch asosiy funksiyasi mavjud deb qaraladi.

1. To'lov vositasi (almashinuv vositasi);

2. Qiymat o'lchovi vositasi.

3.Jamg'arish (boylik to'plash) vositasi.

Umumiy ekvivalentlilik, yuqori likvidlilik xususiyatlari pulni ideal to'lov vositasiga aylantiradi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida to'lovlar uch yo'l bilan amalgam oshiriladi: 1) naqd pul to'lovi; 2) bankdagi hisobvaraqlarda yozuv orqali, ya'ni naqd bo'lmagan pul ko'chirish orqali; 3) bir shaxsning ikkinchi shaxsga qarzdorliligini tasdiqlovchi hujjatlar(veksellar, qarz majburiyatlari) yordamida.

Qiymat o'lchovi sifatida pullar tovarlar bahosini ifodalaydi va turli tovarlar qiymatini taqqoslash imkonini beradi.

O'z tovari uchun olgan pulini sotuvchi doim ham birdaniga ishlatvermaydi. Shu sababga ko'ra pullar ularga o'tkazilgan qiymatni saqlab turishlari juda muhim. Agar pul aytilgan xususiyatga ega bo'lsa, unda u boylik to'plash maqsadida jamg'ariladi. Pulning bu funktsiyasini muqobil tarzda mulkning boshqa turlari - obligatsiyalar, aktsiyalar, ko'chmas mulk ham bajarishi mumkin.

Rivojlangan iqtisodiyot sharoitida pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi jamg'arish vositasi vazifasiga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Pulning yuqori likvidliligi va qiymatni saqlab turishi xususiyatlar barcha turdagi to'lov vositalarida bir xil emas. Naqd pullar va muddatsiz depozitlarning likvidliligi djarajasi muddatli depozitlarga yoki veksellarga qaraganda yuqoriroq. Shu sababli pul massasi likvidlilik darajasining pasayib borishi tamoyiliga asoslangan agregatlarga bo'linadi. Rivojlangan mamlakatlarda pul massasini aniqlashda - M1; M2; M3; M4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi.

Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o'zaro farq qilish mumkin. Quyida umumlashtirib olingan pul agregatlari tarkibini keltiramiz:

M0- bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklarining Markaziy bankdagi rezervlari;

M1 = M0 + muddatsiz depozitlar, yo'l cheklari va boshqalar;

M2 =M1 + (miqdori va muddati cheklangan) muddatli depozitlar va boshqalar ;

M3 = M2+(miqdori va muddati cheklanmagan) muddatli depozitlar va boshqalar"[*]

Makroiqtisodiy tahlilda M_1 va M_2 pul agregatlari eng ko'p foydalaniladi. Pul agregatlarining dinamikasi turli sabablarga bog'liq. Masalan, daromadlarning oshishi natijasida M_1ga talab tezroq o'ssa, foiz stavkasining o'sishi natijasida M_2 va M_3ga talab M_1ga nisbatan tezroq o'sadi.

9.2. Pul taklifi. Bank multiplikatori.

Pul taklifi (M_s) o'z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar (S) va zarur bo'lganda (D) iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan depozitlarni oladi:

$$M_s = S + D.$$

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishda monopol huquqqa ega.. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida. "Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarish mutlaq huquqiga ega"[*]. Ammo pul taklifini ko'paytirish imkoniga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to'lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 so'mga o'sgan bo'lsa, zahira normasi 20 % ga teng bo'lganda (zahira normasi – tijorat banklar depozitlarining ma'lum qismini Markaziy bankda saqlab turish normasi), u 400 so'mni Markaziy bankda zahiralab, qolgan 1600 so'mni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600 so'mga ko'paytiradi va u endi 2000+1600=3600 so'mni tashkil etadi. Ya'ni, omonatchilarning depozitlardagi 2000 so'mdan tashqari yana 1600 so'm qarz oluvchilar qo'lida qoladi. Agar, 1600 so'm yana banka tushsa, (masalan, B bankka) unda 20 % ga teng bo'lgan zahira normasida u 320 so'mni zahirada qoldirib, 1280 so'mni kreditga beradi hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'nggi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi.

---

[*] Саидова Г., Шадыбаев Т. Макроэкономика Т., ИПАК «Шарк» 2003, 34 -с..

[*] Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки тўғрисида"ги Қонуни, 1995йил. 21 декабрь / Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами.Т.: Ўзбекистон, 2003., 18-.б.

Yakuniy hisob kitob bank depozitlari jami 10000 so'mga ko'payganligini ko'rsatadi. Bu jarayonni formula ko'rinishida quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$M = (1/rr) \times D$$

Bunda: M- pul taklifi hajmi; rr – majburiy zahiralash normasi ;

D - dastlabki depozit.

Keltirilgan formuladan ko'rinib rr koeffitsentiga bog'liq bo'lib, uni bank/turibdiki, pul taklifi 1/ multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zahiralar normasida ortiqcha zahiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

9.3. Pul taklifining kengaytirilgan modeli, pul multiplikatori.

Pul taklifining umumlashma modeli Markaziy bankning pul taklifidagi roli hamda pulning bir qismini depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishni hisobga olgan holda yoziladi. Bu model bir qator yangi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi.Bular:

- pul bazasi (rezerv pullar, yuqori quvvatli pullar) – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklari Markaziy bankda saqlaydigan depozitlar summasi;

- deponentlash koeffitsienti - $Cr = S/D$

Pul bazasini MV va bank rezervlarini R deb belgilasak,

$$MV=C+R.$$

Pul taklifining kengaytirilgan modelini iuyidagicha yozish mumkin:

$$Ms = \frac{Cr+1}{Cr+rr} \cdot MB \quad \text{yoki} \quad Ms = m \cdot MB$$

(Cr +1)/ (Cr + rr) nisbat pul multiplikatori deb yuritilib bir so'mlik pul bazasi hisobiga necha so'mlik pul taklifi yuzaga kelishini ko'rsatadi. **Pul multiplikatorini** – pul taklifining pul bazasiga nisbati ko'rinishida yozish mumkin:

$$m = \frac{Ms}{MB} = \frac{S+D}{C+R} = \frac{S/D + D/D}{S/D + R/D} = \frac{Cr+1}{Cr+rr}$$

Cr miqdori – aholining o'z mablag'larini naqd pullar va depozitlar o'rtasida qanday proportsiyada saqlashni tanlashga bog'liq.

$rr = R / D$ miqdori esa – aholining nafaqat Markaziy Bank belgilab bergan majburiy rezerv normasiga, balki tijorat banklari saqlab turishni mo'ljallanayotgan ortiqcha rezerv miqdoriga ham bog'liq.

Demak, pul taklifi pul bazasi va pul multiplikatori miqdoriga bog'liq ekan. Pul multiplikatori pul bazasining bir miqdorga oshishi natijasida pul taklifi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Markaziy bank pul taklifini avvalambor, pul bazasiga ta'sir etish yo'li bilan tartibga soladi.

Mamlakatda pul miqdori ko'payadi, agar:

-pul bazasi o'ssa;

- majburiy zahiralash normasi pasaytirilsa;

- tijorat banklarining ortiqcha rezervlari kamaysa;

-naqd pullarningn depozitlar umumiy summasiga nisbati pasaysa.

9.4. Pulga talabning klassik va keynscha nazariyalari.

Pulning miqdoriy nazariyasi pulga bo'lgan talabni almashinuv tenglamasi yordamida aniqlaydi:

$$M \cdot V = P \cdot Y$$

Bu erda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

P – baholar darajasi (baho indeksi); Y – real YaIM.

Pulning aylanish tezligi, iqtisodiyotda bitimlar tarkibi nisbatan barqaror bo'lganligi uchun ham doimiy kattalik deb qabul qilinadi. Ammo bank tizimiga hisob-kitoblarni tezlashtiruvchi texnik vositalar joriy qilinishi natijasida u o'zgarishi mumkin. V doimiy bo'lgan sharoitda almashtirish tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$M \cdot V^* = P \cdot Y$ (Fisher tenglamasi), bundan:

$$M = \frac{P \cdot Y}{V^*}$$

P · Y – nominal YaIM miqdorini bildirishini va doimiy miqdorligini hisobga olsak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar miqdori va ularning bahosi o'zgarishlariga, boshqacha aytganda, nominal YaIM o'zgarishiga bog'liq. Muomaladagi pul massasining o'zgarishi, klassik nazariyaga ko'ra, Y sekin o'zgarishi tufayli asosan baholar darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat "pulning neytralligi" nomini olgan.

Monetaristlar qoidasiga ko'ra hukumat pul massasining o'sish sur'atini, real YaMMning o'rtacha o'sish sur'ati darajasida ta'minlab tursalar iqtisodiyotda baholar darajasi barqaror bo'ladi.

Fisher tenglamasidan tashqari bu tenglamaning boshqa bir shakli Kembrij tenglamasidan ham keng foydalaniladi:

$$M=k*PY$$

Bu erda: k= 1/V – pulning aylanish tezligiga teskari miqdor.

k - koeffitsientni nominal pul miqdori (M)ning daromadlar (P·Y)dagi ulushini ko'rsatadi.

Kembrij tenglamasi turli darajada daromadli bo'lgan turlicha moliyaviy aktivlar mavjudligini va daromadni ularning qaysi biri ko'rinishida saqlashni tanlash imkoniyati mavjudligini ko'zda tutadi.

Pulga real talab quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$(M/P)\ D = k\ Y$$

Bu erda: M/R – "real pul qoldig'i", "pul mablag'larining real zahirasi" deb nomlanadi.

Pulga talabning keynscha nazariyasi.

Pulga talabning Keyns nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko'rinishda saqlashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko'rsatadi:

1. transaktsion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);
2. ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash);
3. spekulyativ sabab (foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab).

Spekulyativ sabab foiz stavkasi bilan obligatsiyalar kursi o'rtasidagi teskari bog'liqlikka asoslanadi. Agar foiz stavkasi ko'tarilsa, obligatsiyalar bahosi pasayadi, ularga talab esa oshadi. Bu esa o'z navbatida, naqd pul zahiralarining qisqarishiga hamda naqd pullarga talabning pasayishiga olib keladi.

Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi. Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya'ni, siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd pullarni qo'lda ushlab turish miqdori ham pul zahiralariga talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Real pul zahiralariga talab funktsiyasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$M/R = f(R)$$

Bu tenglama ko'rsatayaptiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasi funktsiyasi ekan. Grafikda foiz stavkasi va real pul zahiralari miqdoriga talab teskari bog'liklikka ega ekanligi ko'rinadi. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko'rsatadi

Klassik va keynschilarga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) daromadlar darajasi;

2) pulning aylanish tezligi;

3) foiz stavkasi.

Agar klassik nazariya pulga talabni asosan, real daromad hajmi bilan bog'lasa, keynschilarda esa pulga talab asosan, foiz stavkasiga bog'liq deb hisoblanadi.



9.**1-chizma. Pulga talab grafigi**

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig'iga talab formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$(M/P)\ D = f(R, Y);$$

Bu erda: R – foiz stavkasi; Y – real daromad.

Chiziqli bog'liqlikni e'tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo'ladi:

$$(M/P)D = kY - hR$$

Bu erda: k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta'sirchanligini ifodalovchi koeffitsientlar; k – foiz stavkasi (real foiz stavkasi).

Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur'atini ayirib topiladi.

Daromad darajasining o'zgarishi foiz stavkasi o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham pulga talabning ko'payishiga olib keladi. Bu grafikda pulga talab egri chizig'ining siljishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

9.5. Pul bozorida muvozanat

Pul bozori modeli pulga talab va taklifni birlashtiradi. Dastlab, soddalik uchun pul taklifi Markaziy Bank tomonidan nazorat qilinadi va $(M/P)^s$ darajasida qayd qilingan deb olamiz.

Agarda M -pul taklifini, P-narxlar darajasini bildirsa, M*/P* pul vositalarining real zahirasi miqdorini ko'rsatadi.

$$(M/P)\,s = M^*/P^*$$

Bu erda: M - pul taklifi darajasini bildiradi;

P – baholar darajasi (ushbu modelda ekzogen o'zgaruvchi)ni ko'rsatadi.

9.4-chizma real pul taklifi miqdoridagi foiz stavkasiga bog'liq bo'lmagan vaziyatni ko'rsatadi. Shuning uchun real pul vositalari taklifi grafikda ko'rsatayotganimizdek vertikal chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu holat foiz stavkasi qanchalik o'zgarishiga qaramasdan real pul taklifi miqdori o'zgarmasdan qolgan vaziyatni aks ettiradi.

Baholar darajasini ham barqaror deb qabul qilamiz. Bu holatda real pul taklifi M*/P* ga teng va grafikda Ms to'g'ri chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi.

Pul talabi berilgan daromad darajasida foiz stavkasiga teskari proportsional egri chiziq ko'rinishiga ega. Muvozanat nuqtasida pul talabi va taklifi o'zaro teng, (9.5-chizma).

O'zgarib turuvchi foiz stavkasi pul bozorini muvozanatda ushlab turadi. Foiz stavkasining o'zgarishi natijasida iqtisodiy agentlar o'z aktivlari tarkibini o'zgartirgani tufayli pul bozorida muvozanatga erishish uchun vaziyatga ta'sir etib uni o'zgartirish zarur va mumkindir. Agar R juda yuqori bo'lsa, pul taklifi unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Iqtisodiy agentlar o'zlarida to'planib qolgan ortiqcha naqd pullarni aktsiya va obligatsiyalarga aylantirib, ulardan qutilishga intilishadi.





9.2-chizma. Real pul vositalari zahirasi taklifi grafigi

9.3-chizma. Pul bozorida muvozanat modeli

Yuqori foiz stavkasi, ta'kidlanganidek, obligatsiyalar kursining pastroq darajasiga mos keladi. Shu sababli, arzon obligatsiyalarni (kelajakda foiz stavkasi pasayishi oqibatida ular kursi o'sishini ko'zda tutib) sotib olish foydali bo'ladi.

Banklar, M_s> Md bo'lgani uchun foiz stavkasini pasaytira boshlaydi. Asta-sekin iqtisodiy agentlar o'z avtivlari tarkibini o'zgartirishi va banklar tomonidan foiz stavkasining o'zgartirilishi oqibatida pul bozorida muvozanat tiklanadi. Foiz stavkasi pasayib ketgan holatda teskari jarayon ro'y beradi.





9. 4-chizma. Daromadlar darajasining oshishi natijasida pulga talabning o'zgarishi.

9. 5- Pul taklifining kamayishi natijasida pul bozorida muvozanatning o'zgarishi.

Foiz stavkasi va pul massasi muvozanatli darajasining o'zgarib turishi pul bozorining ekzogen o'zgaruvchilari – daromadlar darajasi va pul taklifining o'zgarishi natijasida ham ro'y beradi.

Grafik ko'rinishda, bu, pul talabi va pul taklifi egri chiziqlarining siljishi sifatida namoyon bo'ladi (9.4, 9.5 chizmalar).

Daromadlar darajasining Y_1dan Y_2ga qadar o'sishi (20-chizma) pulga talabni M1d dan M2d gacha oshishiga va foiz stavkasini R_1dan R_2ga qadar ko'tarilishiga olib keladi.Pul taklifining kamayishi ham foiz stavkasining ko'tarilishiga va muvozanat nuqtasining o'zgarishiga olib keladi.

Pul bozorida muvozanatni o'rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvafaqqiyatli amal qiladi. Pul bozoridagi muvozanat tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

6. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi.

Moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday mussasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug’urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar va h.k.lar kiradi.

«Bank» tushunchasi qadimiy fransuzcha bang va banca so’zlaridan kelib chiqqan bo’lib, «sarrof kursisi, do’koni» degan ma’noni anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko’rsatgan bankirlar haqidagi ma’lumotlarida ham mavjud.

Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo’lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog’liq xizmatlarni ko’rsatuvchi tashkilotlar ko’p, ammo ularning markazida banklar turadi. O’zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to’g’risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo’lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O’zbekistondagi bank tizimi O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aktsiyadorlik-tijorat banklari va xususiy banklardan iboratdir. 2016 yil 1-yanvar holatiga ko’ra O’zbekiston Respublikasi bank tizimi 29 tijorat bankini o’z ichiga oldi.

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo’ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to’lovlari (transfertlar) banklar orqali o’tadi. Banklar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- pul va qimmatli buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo’ladigan hisob-kitob opretsiyalarini, xususan, pul to’lash ishlarini bajaradi;
- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;
- o’z qo’lidagi pulni qaytarish, foizlilik va muddatlilik sharti bilan unga (muhtojlarga) qarz (ssuda)ga beradi, ya’ni, kredit bilan shug’ullanadi;
- o’z puliga aktsiya sotib olib, uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hokazo.

Bank ishi pul olamida bo’ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi.

Markaziy bankning monopollik mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog’liq.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilar:

“Markaziy banning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

Monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

Qzbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta’minlash;

Banklar,kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish,banklar, krediuyushmalari, garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog’ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

O’zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo’yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

Davlat byudjeti kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir”

Tijorat banklari Markaziy bankda o’z qisqa muddatli va o’rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zahira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o’zining mintaqaviy bo’linmalari orqali kredit muasasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma’lumotlarini taqdim etish asosida qatnashadi.

Kredit muassasalarining bo’ysinishiga qarab bank qonunchiligi hamda kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy tuzilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin.

Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit - hisob xizmati ko’rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi.

Ikki bosqichli tizimda banklar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar bo’yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo’nalishlarida tuzilishiga asoslanadi. Vertikal – rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo’g’inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o’rtasidagi bo’ysunish munosabatlari, gorizontal-turli quyi bo’g’inlar o’rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi.

O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi qudratli tuzilmaga aylanish uchun rivojlanishning uzoq evolyutsion, ya'ni tadrijiy yo'lini bosib o'tishiga, anchagina mashaqqatlarni bartaraf etishiga to'g'ri keldi[8].

1991 yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish

[8] O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari www.cbu.uz

uslublarini o'zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo'la bordi. 1991-1992 yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish yillari bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to'lov tizimini shakllantirish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1993–1994 yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994 yilning 1 iyulidan e'tiboran milliy valyuta — so'mning muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Markaziy bank o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil etilishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to'lov tizimini yaratish bo'yicha faoliyati to'laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

1995 yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo'lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat — “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. Shu bilan bir qatorda mazkur yilda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo'ldi. Agar 1994 yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 foizi Jamg'arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'sha yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko'payib, bu boradagi ko'rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

1996 yil. Ushbu yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini konkretlashtirdi.

Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat — “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi

O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur qonunlar, shuningdek, “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aktsiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta'sir etgan ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruv va bank nazoratining to'la huquqli organi bo'ldi. Ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish printsiplari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo'jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog'liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o'z operatsiyalari va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko'ra kengaytira boradi.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi

---

1997 yil. Ushbu yilda islohotlarning strategik yo'nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.

Mazkur jarayon 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilinganidan so'ng jadallashdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo'lmagan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko'zda tutilgan edi. 1997 yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki, o'sha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo'yi olib borilar edi. 1997 yilning mart oyidan yangi dasturiy ta'minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to'lovlarni respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

Aynan o'sha vaqtda hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to'lovlarning zamonaviy tizimi joriy etildi. Banklarga o'sha vaqtdagi noyob imkoniyat — kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarini xarid qilish va

departamentlarni ular bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag'larni o'z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo'naltirishi hisobga olinib, qator soliq to'lovlaridan ozod qilindi.

Shu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborotning sifat jihatidan yangi iste'molchilari – mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo'ldi.

1998 yil. Ushbu yilda respublika banklari Bazel tavsiyalariga muvofiq holda faoliyat ko'rsatish uchun zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Bank nazorati va xalqaro amaliyoti bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalaridan kelib chiqib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida tartibga soluvchi kompleks me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ular balansida mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda bank likvidligi pasayishi va kapital tugashi yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruv choralarini ko'rish tamoyillaridan foydalanildi.

1999–2000 yillar. Ushbu yillarda valyuta siyosati yanada liberallashtirilgan holda, birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi amalga kiritildi.

Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o'z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo'yicha valyutalarni sotib olishini ko'zda tutadi.

2000-2010 yillar. Mazkur davr O'zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirildi.

Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi strategik vazifalar qo'yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi — O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta'minlashdir.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz moliya-bank tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratdi. Shu munosabat bilan qator etakchi banklar (“O'zsanoatqurilishbank”, “Asaka” banki va boshqalar)ning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrokreditbank” ustav fondini ko'paytirish to'g'risida”gi Farmoni mazkur bankni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha asosiy kredit markazlaridan biriga aylantirgan holda uning faoliyatini sifat jihatidan yanada yaxshiladi.

Ushbu davrdagi har bir yil mamlakat bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etiladi.

2001 yil. Ushbu yilning 1 iyulidan e'tiboran kichik biznes korxonalari o'zlari ishlab chiqargan eksport tovarlar (ish va xizmatlar)ni bank muassasalari kassalari orqali belgilangan tartibda valyuta ulushini o'z hisobiga o'tkazish yo'li bilan naqd xorijiy valyutada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Respublikamiz hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishni hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadam qo'ydi. Aynan shu yili erkin ayirboshlovchi valyutadagi Birlashgan barqarorlashgan jamg'arma tashkil etildi. Bu o'z navbatida, O'zbekistonda birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qildi.

Bu vaqtda bank tizimi bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur hamkorlik rivojiga turtki bergan muhim omillar sifatida banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifatining tobora yaxshilanishi, banklarda raqobatchilik muhitining yuzaga kelishi, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Aynan shu davrda banklar kreditlash siyosati kuchayganini, mijozlar so'rovlarini sinchkovlik bilan o'rgana boshlaganini va bank xodimlarida mijozlarning talab-ehtiyojlariga javoban tez harakat qilish qobiliyati shakllanganini yaqqol kuzatish mumkin.

2002 yil aholining banklardagi omonatlarini himoyalashning ishonchli va samarali mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy printsiplarga aylana bordi.

Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zamirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

2003–2004 yillar. Mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davri.

Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo'yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aktsiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o'zgartirish jarayonlari jadallashdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o'z rivojlanish kontseptsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshirish o'z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aktsiyadorlarning mablag'larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi.

Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2003 yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati inflyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag'batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx kon'yunkturasi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi eksport va oltin-valyuta zaxiralari hajmining oshishiga imkon berdi.

Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aktsiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

2005–2006 yillar. Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy-tuzilmaviy o'zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O'sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig'idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi.

Shu tariqa, asosiy e'tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu esa fuqarolarda katta rag'bat uyg'otib, ularning banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisobraqamlar ochishga kirishishi bilan bog'liq ijobiy holatlar ko'paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. E'tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari joy ola boshladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2006–2007 yillar. Ipotekaviy kreditlashning rivojlanish davri. Bank xizmatlarining mazkur yangi shakli mahalliy aholi tomonidan darhol ijobiy baholandi. Aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy himoyalashni ko'zda tutuvchi ushbu manba O'zbekiston Respublikasi “Iste'mol krediti to'g'risida”gi va “Ipoteka to'g'risida”gi Qonunlari orqali mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining“Iste'mol krediti to'g'risida”gi Qonuni iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida

aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

2006 yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi “Ipoteka to'g'risida”gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi “Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zahiralarini shakllantirishga va o'z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi.

“2005–2007 yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturi”da belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi banklar kapitallashuv darajasi va ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo'ldi. Bu borada pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish, banklarda aholi omonatlarini ko'paytirishni rag'batlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tibor qaratildi. Rivojlanish sari doimiy ravishda intilayotgan tijorat banklariga mamlakatimiz hukumati tomonidan o'z vaqtida taqdim etilgan imtiyozlar kredit muassasalari o'z yangi instrumentlarini ishlab chiqadigan va taklif qiladigan bank-moliya bozorining shakllanishini oldindan belgilab berdi.

2008–2009 yillar. Ushbu yillarda aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Mazkur yo'nalishda banklar o'z faoliyatini dunyoviy amaliyotning “oltin” printsipidan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya'ni, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan “Iste'mol krediti to'g'risida”gi va “Ipoteka to'g'risida”gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

O'zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o'zlari taklif etayotgan xizmatlari to'plamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga kirishdi.

2010 yil. O'zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko'zga ko'rina boshladi. Bu, bir tomondan xo'jaliklarning vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag'lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so'nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil — ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

10-mavzu. Davlat budjeti. Budjet taqchilligi va davlat qarzi

1. Davlat byudjetining mohiyati, funktsiyalari va ahamiyati
2.Byudjet taqchilligi va uni moliyalashtirish vositalari
3. Davlat qarzlari

Tayanch so’z va iboralar: davlat byudjeti, davlat qarzi, davlat byudjetining taqsimlash funktsiyasi, byudjet tizimi , davlat byudjetining xarajatlari , byudjetdan moliyalashtirish

1.Davlat byudjetining mohiyati, funktsiyalari va ahamiyati

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlarining bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning nisbatan kattagina qismini to’plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalarini (iqtisodiyot, maorif, sog’liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) rivojlanishiga yo’naltirish imkonini beradigan muhim taqsimlash vositasidir.

Mohiyatiga ko’ra davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi bo’lib, shunga mos ravishda moliya tizimiga doir barcha xususiyatlarga ega va unga tegishli bo’lgan barcha funktsiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o’zida, davlat byudjeti faqat o’ziga xos bo’lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o’z navbatida, davlat byudjetini moliya tizimining boshqa bo’linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o’rinni egallashga imkon beradi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlatga tegishli ekanligidir. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda davlat barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo’lsa-da, uning bu xislati, ya’ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslari asosiy taqsimlovchi sifatidagi roli faqat byudjetda katta kuch bilan namoyon bo’ladi. Yagonalik va yuqori darajada markazlashuv davlat byudjetining muhim xususiyatlaridandir. Davlat byudjetiga xos xususiyatlar mablag’lar bilan byudjet siyosatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo’shilishini tushunmoq kerak: 1)

davlat miqyosida yalpi ichki mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar; 2) davlatning asosiy moliyaviy rejasi. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlashning moliyaviy vositasi sifatida davlat byudjeti boshqa xususiyatlarga ham ega. Yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali taqsimlanishi ma'lum darajada, almashuvdan ajralgan holda sodir bo'ladi. Qiymatning davlat byudjeti orqali harakatlanishi moddiy mahsulotning harakatidan to'liq uziladi va sof qiymat xarakterini kasb etadi. Faqat davlat byudjetidan tashqarida, byudjet resurslari sarflanayotganda taqsimlash va almashuv operatsiyalarining qayta qo'shilib ketishi sodir bo'ladi. Davlat byudjetining mohiyatini ochib berishda u orqali amalga oshiriladigan taqsimlash jarayonlarining mazmunini ko'rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yalpi ichki mahsulotni davlat byudjeti orqali taqsimlash bir vaqtning o'zida, o'zaro bog'langan va ma'lum darajada mustaqil bo'lgan uch bosqichga egadir: 1) umumdavlat pul fondini shakllantirish (byudjet daromadlari); 2) hududiy va ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli byudjet fondlarini yaratish; 3) byudjet fondidan foydalanish (byudjet xarajatlari).

Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulotni taqsimlashning bu bosqichlari bir vaqtning o'zida va uzluksiz sodir bo'lsada, bu ularning nisbatan alohidaligini ham inkor etmaydi. Bu bosqichlarni bo'lish va ularni alohida-alohida ko'rib chiqish orqali byudjetli taqsimlashning xarakteri, shakli va metodlari to'g'risida osonroq va aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Birinchi bosqichda yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli pul mablag'larining bir qismi davlatning qo'lida to'planishi sodir bo'ladi. Ana shu asosda mablag'larni oluvchi sifatida davlat bilan mablag'larni to'lovchilar o'rtasida byudjet munosabatlari vujudga keladi. Bu munosabatlar, asosan, majburiylik (imperativlik) xarakteriga egadir. Bu bosqichdagi taqsimlash jarayonlarining xarakterli xususiyati shundaki, byudjetga tushuvchi mablag'lar ajratib olingan bo'lib, ular qat'iy chegaralanmagan. Ularning barchasi hozircha yagona maqsadga — umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Davlat pul fondining alohidaligiga aniq maqsadlarga mo'ljallangan fondlarni kristallizatsiya qilish boshlanganda barham beriladi.

Byudjet fondini shakllantirishda ikki xil tushunchadan foydalaniladi:

1) byudjetga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar);

2) davlat byudjetining daromadlari.

Davlat byudjetiga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar), eng avvalo, to'lovchilarning xarajatlaridan iborat bo'lib, ularning daromadlaridan chegirilsada, bir vaqtning o'zida ular davlat byudjetida davlatning daromadlari sifatida gavdalanadi. Ana shundan taqsimlash munosabatlariga kirishgan ishtirokchilar (tomonlar) o'rtasidagi manfaatlarda ba'zi bir farqli jihatlar vujudga keladi. Davlat byudjetning daromadlarini oshirishdan manfaatdor bo'lsa, bu narsa

u yoki bu darajada to’lovchilarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) manfaatdorligini pasaytiradi. Davlat byudjetining daromadlari o’zining yaxlitligi bilan farqlanadi va ular yagona maqsadga — ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Byudjet daromadlari davlatning sub’ektlar (xo’jaliklar va aholi) bilan o’zaro munosabatlarining aniq chegaralangan, aniqlangan qismini ifoda etadi. Bu munosabatlar xilma-xil bo’lishiga qaramasdan, ular umumiy belgilarga ega va umumlashtirilgan, abstrakt holda ishlab chiqarish (byudjet) munosabatlarining alohida elementi sifatida maydonga chiqadi. Byudjet daromadlari o’zlarining iqtisodiy tabiatiga ko’ra ob’ektiv bo’lib, ular davlatning sub’ektlar (xo’jaliklar va aholi) bilan barqaror aloqalarini ifodalaydi. Ularning ob’ektiv zarurligi davlatning o’ziga xos funktsiyalarga ega bo’lgan mavjudligi bilan belgilanadi.

Davlat byudjeti daromadlarining farqlanuvchi belgisi shundan iboratki, ular taqsimlash natijasi (byudjetga to’lovlar) va yanada taqsimlash ob’ekti (byudjet ichidagi fondlarni shakllantirish va moliyalashtirish) sifatida maydonga chiqadi. Demak, davlat byudjetining daromadlari aniq ifodalangan byudjet kategoriyasi bo’lib, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish taqsimlashning byudjet mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining xarajatlari xuddi uning daromadlari singari, ikkiyoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, bu davlatning xarajatlari, boshqa tomondan esa — sub’ektlarning ixtiyoriga tushadigan qaytarilmaydigan mablag’lar bo’lib, ularning daromadlariga aylanadi va ular tomonidan turli maqsadlarga mo’ljallangan tegishli fondlarni shakllantirishda foydalaniladi. Ana shu ikkiyoqlama xarakter davlat byudjeti xarajatlarining yakuniy emas, balki taqsimlash jarayonlarining oraliq bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Bu erda byudjet fondlarining egasi — davlat va pul mablag’larini oluvchilar — sub’ektlar o’rtasida yangi taqsimlash munosabatlari paydo bo’ladi. Daromadlar singari, davlat byudjetining xarajatlari ham ob’ektiv iqtisodiy kategoriyadir. U kategoriya sifatida byudjetli taqsimlash munosabatlarining ma’lum bir yakuniy qismini abstrakt holda umumlashtiradi. Ularning moddiylashuvi byudjetdan sub’ektlarga pul mablag’larining teskari oqimi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni deganda umumdavlat pul fondini shakllantirish, mablag’larni byudjetlar ichida taqsimlash va sub’ektlarni byudjetdan moliyalashtirish natijasida vujudga keladigan, o’zaro bog’langan taqsimlash munosabatlarining butun kompleksi tushuniladi. . Davlat byudjeti ko’p sonli va bo’lingan taqsimlash aktlarining majmui orqali yalpi ichki mahsulot harakatining asosiy yo’nalishlarida namoyon bo’ladi. Aynan byudjet iste’mol va jamg’arish fondlarining shakllanishida, iste’mol fondining qismlarga ajralishiga, sof daromadning

davlat va sub’ektlar o’rtasida bo’linishiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi. Mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi ko’rinishida qonuniy rasmiylashtirilgan, davlat pul fondlarini yaratish va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuiga davlat byudjeti deyiladi.

Davlat byudjeti ikki xil funktsiyani bajaradi:

1) taqsimlash;

2) nazorat.

Davlat byudjetining taqsimlash funktsiyasi orqali uning mohiyati namoyon bo’ladi. Bu davlat byudjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlarining mazmunida yaqqol ko’rinadi.

Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan taqsimlash bu jarayonning ikkinchi (oraliq) bosqichidir; Shuning uchun ham davlat byudjetining taqsimlash funktsiyasi o’ziga xos bo’lgan xususiyatga ega bo’lib, undan taqsimlangan yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashda foydalaniladi. Agar taqsimlashning birinchi bosqichida byudjet mablag’lari milliy daromadda davlatning ulushi sifatida maydonga chiqsa, uning ikkinchi bosqichida esa ana shu ulush qismlarga bo’linadi va ko’p sonli kanallar orqali turli tadbirlarni moliyalashtirishga va fondlarni shakllantirishga yo’naltiriladi. Davlat byudjeti bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha bo’linmalari bevosita yoki bilvosita bog’langandir.

Davlat byudjetining nazorat funktsiyasi ham o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchi xususiyat umumiylik, universallik. Bu milliy iqtisodiyotni tezkor boshqarishda davlat byudjetining nazorat funktsiyasidan keng foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Davlat byudjetining nazorat funktsiyasiga tegishli bo’lgan ikkinchi xarakterli xususiyat moliyaviy munosabatlarning alohida sohasi sifatida davlat byudjetining yuqori darajada markazlashtirilganligidan kelib chiqadi. Markazlashtirilganlik har doim yuqori organlar oldida quyi organlarning hisobot berib turishini, ma’lum ketma-ketlikda bo’ysunishning tizimliligini anglatadi. Bu esa, o’z navbatida, yuqoridan quyigacha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishga shart-sharoit yaratib beradi.

Kuchli majburiylik, imperativlik davlat byudjetining nazoratfunktsiyasiga tegishli bo’lgan uchinchi xususiyatdir. Byudjet davlatnikibo’lganligi uchun uning nazorat funktsiyasi milliy iqtisodiyotniboshqarish vositalaridan biri hisoblanadi. Davlat byudjetining nazorat funktsiyasi1) davlat byudjetining daromadlarini oshirish uchun pulmablag’larini jalb qilish;2) mablag’larni sarflashning qonuniyligini ta’minlash;3) byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarishningsamaradorligini oshirishni ko’zda tutadi.

Sub’ektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashdadavlat byudjetining tartibga soluvchi roli quyidagi ko’rinishda bo’lishimumkin:

— moliyaviy resurslarga bo’lgan yangi talabni kelgusi byudjetyilida byudjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

— moliyaviy resurslarga bo’lgan qo’shimcha ehtiyojni mavjudbyudjet resurslarini manyovr qilish, ya’ni byudjet kreditlarini birob’ektdan ikkinchisiga o’tkazish yo’li bilan qondirish. Bundayimkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim sub’ektlarning o’zlarigataqdim etilgan moliyaviy resurslarni to’liq o’zlashtirishninguddasidan chiqa olmasligi bilan izohlanadi;

— qo’shimcha ehtiyojni hukumatning zahira fondlari hisobidanqoplash va boshqalar.

2.Byudjet taqchilligi va uni moliyalashtirish vositalari

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo’lishini taqozo qiladi. Lekin ko’pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi ro’y beradi. Bu holning sabablari ko’p bo’lib, ularning ichida davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o’sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o’rin tutadi. Byudjet taqchilligining o’sishi yoki kamayishi mutlaq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatida aniq namoyon bo’ladi.

Byudjet taqchilligining o’zgarishi xo’jalik kon’yunkturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjet mablag’lari hisobidan iqtisodiyotning ma’lum sektorlarini moliyaviy ta’minlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo’lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo’ladi. O’rnatilgan xalqaro standartlarga ko’ra byudjet taqchilligi YaIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Byudjet taqchilligi, asosan, davlat qarzi hisobiga qoplanadi.

Davlatjamg’armalariquyidagimiqdorgatengbo’ladi:

$$Sg = (T - TR - N) – G$$

Buerdadavlatjamg’armalari(Sd); transfertto’lovlari (TR), davlatzayomlaribo’yichafoizlar (N);soliqlar (T) vadavlatxaridi(**G**) xarajatlari

Agardavlatjamg’armalarinolgatengbo’lsa, davlatbyudjetimuvozanatlashgan, jamg’arishningmanfiymiqdoribyudjettaqchilligini (BT) bildiradi:

$$BT = - Sg$$

Buerda: BT – byudjettaqchilligimiqdori.

Iqtisodiyotning o’rnatilgan barqarorligi darajasi davriy byudjet taqchilligi va ortiqchaligi miqdorlariga bog’liq. Davriy taqchillik (ortiqchalik) iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat byudjeti taqchilligi (ortiqchaligi)dir.



Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi

Davriy pasayish bosqichida soliqlar avtomatik pasayishi, davlat transfertlarining oshishi natijasida byudjet taqchilligi kelib chiqadi.

Davriy yuksalish bosqichida soliqlar avtomatik ko'payishi va davlat xarajatlarining kamayishi natijasida byudjet ortiqchaligi paydo bo'ladi. Davlat xarajatlari o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham byudjet taqchilligi va ortiqchaligi mavjud bo'lishi mumkin. Davriy taqchillik va ortiqchalik miqdorlari soliq va byudjet funktsiyalari grafiklarining «tikligiga» bog'liq. Soliq funktsiyasi T ning egilish burchagi miqdori chegaraviy soliq stavkasiga t ga bog'liq.. t qancha yuqori bo'lsa, T chizig'i shuncha tikroq, γ qancha pastda bo'lsa, G chizig'i ham shuncha tik bo'ladi. Bu esa iqtisodiyotning o'rnatilgan barqarorligi darajasini oshiradi. Ammo iqtisodiy o'sishning ta'minlash vazifasi T va G chiziqlarini yotiqroq bo'lishini taqozo etadi.

O'rnatilgan barqarorlashtirgichlar muvozanatli YaIM hajmini, uning potentsial hajmi darajasi atrofida tebranishi sababini to'liq tugatmaydi va ishlab chiqarishning har qandan darajasida mavjud bo'lishi mumkin.

To'liq bandlikni ta'minlagan diskret fiskal siyosat yuritilishi natijasida davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi (ortiqchaligi), ya'ni to'liq bandlik sharoitida byudjet xarajatlari (daromadlari) va daromadlari (xarajatlari) o'rtasidagi farq yuzaga keladi. Davriy taqchillik ko'pincha davlat byudjetining haqiqiy taqchilligi va tarkibiy taqchillik farqi sifatida baholanadi.

Nazariy jihatdan olib qaralganda byudjetning sog'lom (normal) faoliyat ko'rsatishi unga tegishli bo'lgan daromadlar va xarajatlarning tengligini taqozo etadi. Haqiqatdan ham u yoki bu miqdordagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet shu miqdordagi daromadlarga ega bo'lishi kerak. Aks holda bu xarajatlarni amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligi byudjetning balanslashtirilganligidan dalolat beradi. Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi.

Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlaridan ko’p bo’lishi mumkin. Bunday byudjet profitsitli byudjet deyiladi. Aksincha, ba’zi hollarda esa byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan ko’proq bo’ladi. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ko’p bo’lishiga byudjet taqchilligi deyiladi. Boshqa hollar teng bo’lgan sharoitda, byudjet taqchilligi vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

• iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital quyilmalarini amalga oshirishning zarurligi;

• favqulotda hodisalarning mavjudligi;

• iqtisodiyotdagi inqiroz holatlari, uning emirilishi;

• moliya-kredit aloqalarining etarli darajada samarali emasligi;

• hukumatning mamlakatdagi moliyaviy holatni etarli darajadanazorat qilolmasligi;

• ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi nisbatan pastligi;

• tashqi iqtisodiy aloqalarning natijasi nisbatan kamligi;

• byudjet xarajatlari tarkibiy tuzilishi (strukturasi)ning oqilona emasligi;

• mamlakat miqyosida mavjud bo’lmagan mablag’lar hisobidanyashashga intilish;

• yirik davlat investitsiyalarini amalga oshirish amaliyotiningmavjudligi;

• harbiy xarajatlar darajasining nisbatan kattaligi;

• real ichki imkoniyatni etarli darajada hisobga olmagan holda boshqa mamlakatlarga yordam berilishi;

• davlatga iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga rag’batlantiruvchi sifatida foydalanish imkonini bermaydigan va etarli darajada samarali bo’lmagan byudjet mexanizmining mavjudligi;

• boshqa sabablar.

Byudjet taqchilligi vujudga kelganda unga nisbatan strategik yondashuv quyidagilarga alohida e’tibor beriishini taqozo etadi:

• byudjet taqchilligining mavjudligini matematik yo’l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki, bu holda iqtisodiyotning “davolanish”i o’rniga “kasalligi” kuchayadi;

• byudjetning balansliligi, daromadlarning xarajatlardan ko’pligi sog’lom va uzluksiz rivojlanayotgan iqtisodiyotdan dalolat bermaydi.

Byudjet taqchilligi bo’lishi mumkin:

• byudjet taqchilligining miqdori (darajasi), odatda, mamlakatyalpi ichki mahsulotining 2—3%idan oshmasligi lozim. Ana shuchegaradan oshilsa, uni tezroq qisqartirish (yoki shu darajagakeltirish) choralarini ko’rish kerak;

• byudjet taqchilligini qoplash uchun, eng avvalo, davlatkreditining turli shakllaridan foydalanmoq lozim. Shuningdek, davlatqimmatbaho qog’ozlarini

moliyaviy bozorga joylashtirish maqsadgamuvofiqdir. Aksincha, milliy pul birligi belgilarini zarb etuvchiuskunani ishga solmaslik kerak;

• byudjet taqchilligining darajasini kamaytirish yoki unga barhamberish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiyotning o'zini "davolamoq" lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko'zda tutilganhar qanday tadbir, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Byudjet taqchilligining darajasini kamaytirish yoki unga barhamberish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

• byudjet xarajatlarining (mablag'larining) investitsion yo'nalishinio'zgartirish, ularni eng ko'p samara beradigan yo'nalishlargayo'naltirish;

• xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchimoliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish;

• davlatdan moliyalashtirish va davlat iqtisodiyoti sohasiniqisqartirish, xorijiy davlatlarga yordam ko'rsatishni keskin kamaytirish;

• harbiy xarajatlarni qisqartirish;

• eng muhim ijtimoiy dasturlarnigina moliyalashtirishni saqlabqolish, yirik byudjet xarajatlarini talab etuvchi dasturlarni qabulqilishni to'xtatib turish;

• Markaziy bankning qarzlari davlat qimmatbaho qog'ozlarishaklida rasmiylashtirmasdan turib hukumat organlariga kreditberishini taqiqlab qo'yish;

• xorijiy sarmoyalarni jalb etish;

• va boshqalar.

3.Davlat qarzlari

Byudjet taqchilligi vujudga kelgan paytda uni moliyalashtirishmanbalarini aniqlab olmoq zarur. Uni moliyalashtirishning asosiymanbalaridan biri davlatning qarz olishidir.

Davlatning qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiydavlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayomva kreditlarni olishdan iborat bo'lib, hukumat oldida qarz oluvchiyoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarishi bo'yichakafolatchi sifatidagi majburiyatlari vujudga keladi.

Davlatning ichki qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiydavlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayomva kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchiyoki boshqa qarz olganlarning qarzlarni qaytarish bo'yicha hamkafolatchi sifatida hukumatning o'z milliy valyutasida ifodalanganqarziy majburiyatlari paydo bo'ladi.

Davlatning tashqi qarz olishi jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiydavlatlar, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilinadigan zayomva kreditlarni olishdan iborat bo'lib, ular bo'yicha qarz oluvchiyoki boshqa qarz olganlarning qarzlami qaytarish bo'yicha kafolatchisifatida hukumatning xorijiy valyutada ifodalangan

qarziy majburiyatlarivujudga keladi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning barcha manbalari jalbqilingan mablag'larning asosiy turlari bo'yicha navbatdagi moliyaviyyilga mo'ljallangan byudjet to'g'risidagi qonunda qonunchilikhokimiyati organlari tomonidan, albatta tasdiqlanishi kerak.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning manbai sifatida mamlakatMarkaziy bankining kreditlari va Markaziy bank tomonidanhukumatning sotib olingan qarziy majburiyatlari maydonga chiqishimaqsadga muvofiq emas.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning barcha manbalarini ikkiguruhga bo'lish qabul qilingan:

1) ichki manbalar;

2) tashqi manbalar.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatidaquyidagilarni ko'rsatish mumkin:

• mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliyvalyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;

• mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarishorqali amalga oshirilayotgan davlat zayomlari;

• davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingantushumlar;

• davlat zaxiralari va rezervlar bo'yicha daromadlaming xarajatlardano'sgan qismi summasi;

• byudjet mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlaridagi mablag'larqoldig'ining o'zgarishi;

• va boshqalar.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatorigaquyidagilar kiradi:

• mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarnichiqarish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;

• xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumatitomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firmalar, xalqaromoliyaviy tashkilotlaming kreditlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqarotashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari oldidagi (davlatkafolatlari bo'yicha majburiyatlarni qo'shgan holda) mamlakathukumatining qarziy majburiyatlari hukumatning davlat qarzinivujudga keltiradi. Bu qarz davlat xazinasini tashkil etadigan davlatmulki bilan to'liq va hech qanday shartsiz ta'minlanishi kerak.

Bunda davlat hokimiyati organlari mamlakat hukumatining qarziymajburiyatlari va davlat qarziga xizmat qilish uchun mamlakat byudjetining daromadlarini shakllantirish bo'yicha barchavakolatlardan foydalanadilar.

Mamlakatning qarziy majburiyatlari quyidagi shakllarda bo'lishimumkin:

• qarz oluvchi sifatida mamlakat hukumati nomidan kredittashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilantuzilgan kredit bitimlari va shartnomalari;

• mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarnichiqarish orqali amalga oshirilgan davlat zayomlari;

• mamlakat hukumati tomonidan davlat kafolatini berishto'g'risidagi shartnomalar;

• o'tgan yillardagi mamlakatning qarziy majburiyatlarini restrukturizatsiyaqilish va muddatini o'zgartirish to'g'risidagi mamlakathukumati nomidan tuzilgan (shu jumladan, xalqaro) bitimlar vashartnomalar;

• va boshqalar.

Mamlakatning qarziy majburiyatlari o'zining muddatiga qarabqisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan ortiq vabesh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan yuqori) bo'lishimumkin. Ular zayomning konkret shartlariga muvofiq ravishda(zayom shartlarini, jumladan, to'lov muddatlari, foiz to'lovlariningmiqdori, muomala muddatlarini o'zgartirmasdan) qaytarilishi kerak.

Mamlakat hukumatining davlat ichki qarzlari quyidagilardaniborat bo'lishi mumkin:

• hukumatning davlatni qimmatbaho qog'ozlari bo'yichaqarzining asosiy nominal summasi;

• hukumatga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzninghajmi;

• mamlakat hukumati tomonidan berilgan kafolatlar bo'yichamajburiyatlar hajmi;

• va boshqalar.

O'z navbatida, hukumatning davlat tashqi qarzlari:

• xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar vaxalqaro moliyaviy tashkilotlarga mamlakat hukumati tomonidantaqdim etilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlar hajmi;

• xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar vaxalqaro moliyaviy tashkilotlardan hukumat olgan kreditlar bo'yichaasosiy qarz hajmidan iborat bo'ladi.

Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. Davlat ichki qarzi – bu davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobyudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishidagi qarzlari.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha miqdorini chiqaradi. Mazkur holda, davlat byudjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to'g'ridan-to'g'ri inflyatsion ta'sir ko'rsatadi. Pul massasining o'sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko'payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarining to'xtovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida tobora ko'proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida davlat qarzlarini to'lash vaqtini imkon darajada cho'zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olishi mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini engillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlar umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Xo'jalik hayoti baynalminallashuv jarayonlarining tez o'sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun bo'sh pul mablag'larining milliy chegaradan tashqaridagi manbalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi. Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

Tashqi qarzning me'yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakat tovar va xizmatlari eksportidan tushumning ahamiyatli qismi, masalan, 20-25% dan oshib ketsa, bu holat mamlakatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada, chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradilar. Bular qatoriga mamlakat oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish; kreditorlarning qarz to'lov muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobiga to'lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Demak, davlat o’z faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda ssuda kapitallarining ham milliy bozoridan, ham tashqi bozoridan qarz olishi mumkin.

Xalqaro kreditning tez o’sishi, kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi mamlakat va mintaqalar iqtisodiy o’zaro bog’liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga tashqi qarzlarning o’sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o’rinda eng asosiy muammo milliy iqtisodiyotning kreditor va debitor mamlakatlar iqtisodiyotiga bog’liqligining kuchayib borishi hisoblanib, bu jarayonni mamlakatdagi ichki moliyaviy dastaklar bilan nazorat qilish imkoniyati bo’lmay qoladi.

11-mavzu. IS-LM modeli

1. IS-LM modelining umumiy tushunchasi va AD –AS modeli bilan bog’liqligi
2 . IS egri chizig’ining algebrik tahlili
3. LM egri chizig’ining algebrik tahlili
4. Tovar va pul bozorlarining birgalikdagi muvozanati

Tayanch so’z va iboralar: *IS – LM modeli, makroiqtisodiy muvozanat, IS egri chizig’i, LM egri chizig’i, muvozanatli foiz stavkasi, muvozanatli daromad, IS tenglamasi, LM tenglamasi*

1. IS-LM modelining umumiy tushunchasi va AD –AS modeli bilan bog’liqligi

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta’sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS - LM modeli yordamida bajariladi. IS - LM modeli birinchi marta 1937 yilda J.Xiks tomonidan keynsning makroiqtisodiy kontseptsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949 yilda A. Xansenning “Monetar nazariya va fiskal siyosat” nomli kitobi nashr qilinganidan so’ng keng yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi.

I S - LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o’rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste’mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi.

Makroko’lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o’zgarishi bilan birga

narxlar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izoxlab berish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand – aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi talab va taklif, narxlarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va narxlar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun asosiy model bo'lib hisoblanadi va boshqa bir qancha modellar AD-AS modelining xususiy holi hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli yalpi talab- yalpi taklif modelini qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosat maqsadlarida aniqlashtirgan bo'lib, uning xususiy holi hisoblanadi. Yalpi talab va yalpi taklif modelidan farqli o'laroq bu modelda narxlar darajasi va ish haqi o'zgarmas miqdorlar hisoblanadi. Ayni shu sababga ko'ra tovar moddiy zahiralarining o'sishi qisqa muddatda makroiqtisodiy muvozanatga erishishni belgilovchi omil bo'ladi.

Ishlab chiqarishning kamayishi natijasida mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish uchun jami talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko'p hollarda jami talab nazariyasi deb yuritiladi. Jami talab komponentlari, ayniqsa investitsiyalarning o'zgarishi makroiqtisodiy beqarorlik sabablaridan biridir.

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va taklif hajmi bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Avvalo yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizigining oraliq kesmada mos kelishini ko'rib chiqamiz. Narxlarning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatli darajalari mos ravishda Re va Ye lar bilan belgilangan. Nima uchun Re narxlarning muvozanatli darajasi va Ye milliy ishlab chiqarishning muvozanatli darajasini bildirishini ko'rsatishimiz uchun narxlarning muvozanatli darajasi Re emas, balki R1 deb hisoblaymiz. Narxlar darajasi R1 bo'lgan vaziyatda korxonalar milliy ishlab chiqarish hajmini Y1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar narxlar darajasi R1 bo'lganda mahsulotlarni Y2 darajada sotib olishga tayyor turadi. AD>AS bo'lganligi tufayli iste'molchilar o'rtasidagi raqobat narxlar darajasini Re gacha suradi. Narxlar darajasining R1 dan Re gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y1 dan Ye gacha oshirishga va iste'molchilarning talabini Y2 dan Ye gacha kamaytirishga olib kelali. Va bu AD, AS to'g'ri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan Re narx narxlarning muvozanatli darajasi va e muvozanat nuqtasidir.

4-chizmada yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'iniKeyns kesmasida kesib o'tadi. Bunday vaziyatda narxlar darajasi hech qanday ahamiyatga ega emas. Buni tushunish uchun avvalo milliy ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini Ye va muvozanatli narxlar darajasini Re bilan belgilaymiz.

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmi aynan Ye ekanligini isbotlash uchun bu hajmni Y_1 deb hisoblaymiz. U xolda AD<AS, oqibatida sotilmay qolgan tovarlar va xizmatlar hajmining ortishi ishlab chiqarishni Ye darajaga pasaytirilishiga olib keladi. Muvozanatli ishlab chiqarish hajmini Y_2 deb hisoblacak, aksincha, AS<AD oqibatda korxonalarda tovar zaxiralari kamayib ularni ishlab chiqarishni Ye darajaga oshirishga undaydi. Shunday qilib aynan jami taklif va jami talabning kesishish nuqtasigina AD-AS modelda muvozanat nuqtasi va shu nuqtaga mos keluvchi ishlab chiqarish hajmi esa milliy ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi deyiladi.



11.1-chizma. Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmadagi muvozanat

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasida yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishiga olib keladi, narxlar darajasi esa o'zgarmaydi.

Yalpi talab egri chizig'ini AS egri chizig'ining vertikal kesmasida o'zgarsa bu ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat narxlar darajasi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, bu kesmada talabning oshishi talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat narxlar darajasi o'zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab inflyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Yalpi taklifning o'zgarishi muvozanat narxlar darajasiga va milliy ishlab chiqarish xajmining muvozanat darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz.



11.2-chizma. Yalpi taklif egri chizig'nning keyns kesmasidagi muvozanati

Yalpi taklif o'zgarishining narxlarning va ishlab chiqarishning muvozanatli darajasiga ta'sirini 6-chizma misolida ko'rib chiqamiz. Narxdan boshqa omillar ta'sirida yalpi taklifning AS_1 dan AS_2 ga siljishi natijasida ishlab chiqarish xajmi Y_1 dan Y_2 gacha kamayadi, narxlar darajasi esa R1 dan R2 gacha ko'tariladi, ya'ni stagflyatsiya ro'y beradi.



11.3-chizma. Yalpi taklif o'zgarishining ta'siri

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog'liq bo'lmagan omillardan birortasi o'zgarib, yalpi taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni, erning narxi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va bular natijasida mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda jami taklif egri chizig'i AS_1 dan AS_3 holatga siljiydi. Bunda narxlar muvozanat darajasi R1 dan R3ga qadar pasayadi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y1 dan Y3 qadar oshadi, ya'ni, iqtisodiy o'sish holati ro'y beradi.

2. IS egri chizig'ining algebrik tahlili

Iqtisodiyotdagi muvozanat yoki tovar pul muvozanatiga erishishda investitsiya va jamg'armalarning YaIM bilan bog'liqligi tushuntiriladi. Bu bog'liklik shuni ko'rsatadiki, banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan

YaIM hajmi ham ko'payib boradi. Ya'ni, milliy iktisodiyot moliyaviy "kislorodni" ko'proq olish natijasida YaIM ishlab chiqarish ham ko'payib boradi. IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funktsiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg'armalar o'zaro teng bo'ladi.

Haqiqiy investitsiyalar rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini o'z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investitsiyalarga tovar – moddiy zaxiralariga (TMZ) investitsiyalardagi kutilmagan o'zgarishlar kiradi. Ushbu rejalashtirilmagan investitsiyalar tenglashtiruvchi mexanizm sifatida jamg'arma va investitsiyalar miqdorining o'zaro bir-biriga mos kelishiga olib keladi va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

Rejalashtirilgan xarajatlarga uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyoning mahsulot va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallagan xarajatlari kiradi. Firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdagi kutilmagan o'zgarishlar tovar moddiy zaxirasiga rejalashtirilmagan investitsiyalar qilishga olib kelsa, haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funktsiyasi : $E=C+ I +G+Xn$ ko'rinishiga ega. Dekmak uning grafigi iste'mol funktsiyasi ($S= a+b \times (U-T)$) grafigiga nisbatan $I+G+Xn$ miqdorda yuqoriga surilgan bo'ladi. Keltirilgan Xn -sof eksport bo'lib, uning funktsiyasi esa quyidagi ko'rinishga ega:

$$Xn = g – m'Y$$

Bu erda :g – avtonom sof eksport;

m' - importga chegaralangan moyillik;Y – daromad.

Importga chegaralanganmoyillikimport xarajatlaridagi o'zgarish miqdorini bunga sabab bo'lgandaromadlardagi o'zgarish miqdoriga bo'lib topiladi.

$$m' = \Delta M / \Delta Y$$

Bu erda: ΔM - importga xarajatlarning o'zgarishi;

ΔY - daromadlarning o'zgarishi.

Yalpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, bunda iste'molchilar va investorlar ham milliy ham import mahsulotlarga bo'lgan xarajatlari miqdorini oshiradilar. Ayni paytda mamlakatning eksporti hajmi shu mamlakatdagi yalpi daromadlar (Y) miqdoriga bevosita bog'liq bo'lmaydi, balki tovar olib chiqib ketayotgan mamlakatning yalpi daromadlari o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatdagi yalpi daromadlar (Y) o'zgarishi bilan sof eksport (Xn) o'rtasidagi bog'liqlik salbiydir va sof eksport funktsiyasida minus ishorasi bilan belgilanadi.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modelini ko'rib chiqish jarayonini

soddalashtirish uchun sof eksport miqdori yalpi daromadlar (Y) o'zgarishiga bog'liq emas deb olinadi. Shuning uchun sof eksport to'lig'icha avtonom xarajatlar miqdoriga qo'shiladi, ya'ni avtonom xarajatlar (a + I + G +Xn) yig'indiga teng deb olinadi. Rejalashtirilgan xarajatlar chizig'i haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo'lgan (Y=E) chiziqni qaysidir a nuqtada kesib o'tadi. Quyida keltirilgan 14-chizmada tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa muddatli muvozanatga erishish mexanizmi tasvirlangan bo'lib, u "Keyns xochi" nomini olgan. Y=E chiziqda haqiqiy investitsiyalar va jamg'armalar tengligi saqlanadi. a nuqtada esa daromadlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo'ladi. Shuningdek, bu erda rejalashtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalarning o'zaro tengligiga erishiladi. Ya'ni, makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanadi.

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (Y1) uning muvozanat darajasi(Y0)dan ko'p bo'lsa, iste'molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi (AD<AS). Cotilmagan mahsulotlar TMZ ko'rinishiga ega bo'ladi. Zahiralarning o'sishi firmalarda ishlab chiqarish hamda bandlik darajalarini pasaytirishiga olib keladi. Bu esa YaIM hajmini Y1 dan Y0 gacha kamayishigaolib keladi va daromad va rejalashtirilgan xarajatlar tenglashadi. O'z navbatida yalpi talab va taklifning tenglashishiga (AD = AS) erishiladi. Aksincha, haqiqiy ishlab chiqarish (Y2) uning muvozanat darajasidan (Y0) kam bo'lgan vaziyatda esa, firmalar iste'molchilar talabiga nisbatan kam ishlab chiqarayotganligini (AD>AS) ko'ramiz. Talabning oshishi esa firmalar zahirasining kamayishi hisobiga qondiriladi. Natijada, YaIM asta sekin Y2 dan Y0 ga qarab o'sadi va yana AD=AS tengligiga erishiladi. Bu esa ayni paytda E=Y va I=S ayniyatlarga erishilganligini anglatadi.



11.4-chizma. Keyns xochi (Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli)

Milliy ishlab chiqarishning muvozanat holati (Y0), yalpi xarajatlar komponentlarining har birining (iste'mol, investitsiya, davlat xarajatlari yoki sof eksport) o'zgarishi natijasida tebranishi mumkin. Ushbu tarkibdagi birorta omilning miqdorining o'sishi rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig'ini yuqoriga suradi va aksincha kamayishi pastga surilishga olib keladi.

Avtonom xarajatlarning har qanday o'sishi, ya'ni $\Delta A = \Delta (a+I+G+Xn)$ multiplikator samarasi hisobiga yalpi daromadlarning ko'proq miqdorga (ΔY) oshishiga olib keladi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori muvozanatli YaIM o'zgarishning avtonom xarajatlarning har qanday komponenti o'zgarishiga nisbatini ko'rsatadi: $\mu = \Delta Y / \Delta A$:

Bu erda: μ - avtonom xarajatlar mul'tiplikatori;

ΔY – muvozanatli YaIMning o'zgarishi;

ΔA – avtonom xarajatlarning Y o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan o'zgarishi.

Mul'tiplikator - yalpi daromadlar avtonom xarajatlarning dastlabki o'sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o'sganligini (kamayganligi) ko'rsatadi.

Avtonom iste'mol ΔS_A miqdorga o'ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlar (U) ning o'sha miqdorda o'sishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida iste'molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga) MRS x ΔS_A miqdorda o'sishiga olib keladi. Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar MRSxΔS_A miqdorda yana o'sadi. Shunday qilib, «daromad-xarajat» ko'rinishidagi doiraviy aylanish bo'yicha jarayon davom etaveradi.

$\Delta SA\uparrow \Rightarrow AD\uparrow \Rightarrow Y\uparrow \Rightarrow C\uparrow \Rightarrow AD\uparrow \Rightarrow Y\uparrow \Rightarrow C\uparrow \Rightarrow AD\uparrow \Rightarrow Y\uparrow$ va hokazo.

Ushbu oddiy vaziyatdan ko'rinib turibdiki, yalpi daromadlar (Y), avtonom iste'molning dastlabki o'zgarishi $\Delta SA\uparrow$ ga nisbatan bir necha marta ko'p o'zgaradi. Bu shuni bildiradiki, S, I, G yoki Xn miqdorlardagi oddiy o'zgarishlar ham ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajalarida katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, multiplikator iqtisodiy beqarorlik omili hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatning byudjet-soliq siyosatidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib, o'rnatilgan barqarorlashtirgichlar tizimini yaratish hisoblanadi. Bu tizim iste'molga chegaralangan moyillikni kamaytirish orqali multiplikatsiya samarasini pasaytiradi.

Multiplikator samarasi mohiyatini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Aytaylik, dastlab iqtisodiyotga investitsiyalar miqdori 5 mlrd. so'mga ko'paysin. Bu, o'z navbatida ish haqi, renta, foyda ko'rinishda uy xo'jaliklari daromadiga aylanadi. Agar iste'molga chegaralangan moyillikni 0,75 ga yoki 75 %ga teng deb olsak. Uy xo'jaliklari bu daromadning 75 foizini, ya'ni 3,75 mlrd. so'mni iste'mol

xarajatlariga sarflaydi, qolgan 1,25 mlrd. so'mni jamg'aradi. Sarflangan 3,75 mlrd. so'm boshqalar uchun daromad hisoblanadi. O'z navbatida ular ham 3,75 mlrd. so'mning 75 foizini iste'mol uchun sarflaydilar va 25 foizini jamg'aradilar. Bu jarayon oxirgi so'm jamg'arilmaguncha davom etadi.

Bunda: $\mu = \Delta Y / \Delta A = 20 / 5 = 4$ va $\mu = 1/ (1-0,75) = 4$
va bundan :

$$\mu = \frac{\Delta Y}{\Delta A} = \frac{1}{1- MPC}$$

Demak iste'molga chegaralangan moyillik qancha katta bo'lsa, multiplikator samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Multiplikatorning matematik mohiyati cheksiz kamayib boruvchi geometrik progressiyani anglatadi, ya'ni $\mu = 1+b+b^2+b^3+b^4+\ldots+b^n$, bu erda b=MPC. Tenglikning ikki tomonini b ga ko'paytiramiz: $\mu b=b+b^2+b^3+b^4+\ldots+b^{n+1}$

Endi birinchi tenglamadan ikkinchisini ayiramiz:

$\mu - \mu b=1-b^{n+1}$, $\mu (1-b) =1-b^{n+1}$

Hisob kitob natijalarini quyidagicha tasvirlaymiz:

$\mu = (b^{n+1}) / (1-b)$

b kasr son va b^{n+1} nolga juda yaqin bo'lgani uchun

$\mu = 1/ (1-b)$ tenglik to'g'ri bo'ladi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdorining katta yoki kichikligi byudjet soliq siyosati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat o'z xarajatlarini oshirayotganda, yoki investitsiya xarajatlarini oshirish choralarini ko'rayotganda, bu xarajatlar jami talabni qancha miqdorga oshirib yuborishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Agarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (U0) potentsial (U*) hajmidan kam bo'lsa, jami talab samarasiz hisoblanadi. Ya'ni, AD=AS tenglikka erishilgan bo'lsada, yalpi xarajatlar miqdori resurslarining to'liq bandligi darajasini ta'minlamaydi. Yalpi talabning etishmasligi iqtisodiyotga depressiv ta'sir ko'rsatadi.



11.5-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potentsial hajmi o'rtasidagi retsession uzilish.

YaIMni to'liq bandlilikning noinflyatsion darajasiga qadar o'stirish uchun jami talab (jami xarajatlar) ko'paytirilishi zarur bo'lgan miqdor retsession uzilish deyiladi.

Ishlab chiqarishda to'liq bandlikka erishish va retsession uzilishni yo'qotish uchun jami talabni rag'batlantirish va muvozanatli yalpi daromadning o'sishini ta'minlash lozim. Yalpi daromadning o'sishi ΔU quyidagiga teng bo'ladi:

ΔU=Retsession uzilish miqdori x Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori

YaIMni to'liq bandlikning noinflyatsion darajasigacha pasaytirish uchun yalpi talab (yalpi xarajatlar) kamayishi zarur bo'lgan miqdor inflyatsion uzilish deyiladi.



11.6-chizma. Ishlabchiqarishning haqiqiy va potentsial hajmi o'rtasidagi

inflyatsion uzilish.

Iqtisodchi Joseb Shumpeter o`zining 1942-yildagi kitobida kapitalizm, sotsializm va demokratiyaga iqtisodiy o`sishni ijobiy jarayon deb yondashgan edi. Tadqiqotlarga ko`ra Shumpeter yangi g`oya asosida mahsulot ishlab chiqarishni tarфqqiyotning asosiy kuchi deb hisoblaydi va ishlab chiqarishning yangi usuli deb eski mahsulot va boshqa yangiliklarni nazarda tutadi. Qachonki firma tadbirkori bozorga kirsa monopoliya kuchining baəzi darajalari ustidan yangiliklarga ega bo`ladi. Asli tadbirkorni monopoliya foyda olishga undaydi. Yangi korxonaning istemolchilar uchun kengaytirilgan qarorlar yaxshi ammo u kuchliroq bilan raqobatlasha olmasligi mumkin bu esa ishlab chiqaruvchi uchun

[24]Tadqiqotlar samarasiga bag'ishlangan empiric adabiyotlar uchun, qarang Zvi Griliches, "The Search for R&D Spillovers," *Scandinavian Journal of Economics* 94 (1991): 29–47.

yomondir. Yangi mahsulot eskisiga ko`ra yetarlicha yaxshi bo`lsa biznes yaxshi darajada davom etadi. Vaqt o`tishi bilan jarayonni yangilash davom etmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulotni yuqori sifatidan huzurlanish bu innovatsiyadan keyingi avlod uchun ham bahramand bo`lishini ta'minlaydi.

Shumpeterning tarix haqidagi tezislari texnologik taraqqiyotda yutuvchilar ham yutqazuvchilar ham borligini ta'kidlaydi. Misol uchun XIX asrda Angliyada juda muhim yangilik to`qimachilik mahsulotlaridan foydalanishda malakasiz ishchilarga qaraganda mashina ixtiro qilib ishlab chiqilganligini aytishimiz mumkin. Bu texnologik taqqiyot o`zlariga arzonroq kiyim tikadigan istemolchilar uchun yaxshi edi. Shu bilan birga Angliyada trikotaj to`quvchilari yangi texnologiyalar bilan taxdid qilinib ishchi o`rinlari yo`qotildi. Bunga javoban Luddites zo`ravonlik qo`zg`oloni ko`tarib to`quv dastgoxi jun va paxta tegirmonda ishlatiladigan uy dastgoxlari yaratildi. "bugungi kunda Luddetsi atamasi" texnologiyaga qarshi kishini nazarda tutadi.

So`nggi ijodiy qirg`inga misol chakana savdoda Wal-martni o`z ichiga oladi. Garchi chakana savdo aslida statik faoliyat tuyulishi mumkin. So`nggi o`n yillar mobaynida chakana savdoga nisbatan kam harajat istemolchilarga investitsiya marketingini boshqarish orqali bunday tovarlarni Wal-mart uslubida topdi. Bu o`zgarishlar pastki narxlarda tovarlarni sotib olish mumkin va istemolchilar shuningdek aksyadorlar uning rentabelligiga jalb qilingan. Lekin kichik do`konlar raqobat uchun halokatlar qurbonlari bo`lishgan Luttites o`z ish o`rinlarini saqlab qolishi uchun Britaniya hukumati tomonidan tarqalgan yangi to`qimachilik texnologiylar tarqalishini cheklab qo`ygan. Bu o`rinda parlament Luttitesni tartibsizligini bostirish uchun qo`shinlar yubordi. Xuddi shu tarzda so`nggi yillarda mahalliy chakana bilan kirib kelgan Wal-mart bozorlardan foydalanish uchun yer muammolarini to`xtatish zarur bo`lgan. Texnologik taraqqiyot ularning ham ishiga barham bergan. Yevropada, ko`proq AQSHda

Wal-mart natijasida chakana savdodan mahnat unumdorligini o`sishi ancha past edi.[25]

Shumpeter nigohi bilan qaraganda kapitalistik iqtisodiyot ishlari bir masala sifatida iqtisodiy tarixda qoldi. Bundan tashqari iqtisodiy o`sish nazariyasini ruhlantirdi. Birinchi marta endogen o`sish nazariyasini Shumpeter g`oyalariga asoslangan holda Flip Agion va Peter Hoiwt texnologik taraqqiyot modellashtirish tomonidan ijodiy halokatni bir jarayon sifatida talqin qildi.[26]

Uzoq muddatli iqtisodiy o`sish bir mamlakat fuqorolarining iqtisodiy faravonligining yagona va eng muhim mezonidir. Makroiqtisodchilar o`rgangan har bir narsa ishsizlik, inflatsiya, savdo kamomadi taqqoslangan. Yaxshiyamki iqtisodchilar iqtisodiy boshqarish kuchlarini o`sishidan xabardor. Solou o`sish modeli va oliy endogen o`sish modellari qanday tejash, aholini o`sishini va texnologik taraqqiyot ko`rsatish darajasi va millatning hayot standarti o`sishini beligilashda hamkorlik qilib kelmoqda. Bu nazariyalar iqtisodiyot muvaffaqiyatlariga erishib tez suratlarda o`sishni taminlamasligi mumkin, ammo ular juda ko`p ma'lumaot berish va intellekt salohiyatga erishish, mustahkam poydevor taminlash, uzoq muddatli iqtisodiy o`sishni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati haqida ko`p munozaralar beradi.

14-Mavzu. Ochiq iqtisodiyot. Mandell Fleming modeli.

Reja:

1.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari.
2. Mandell Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli.
3. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat.
4. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat.
5. Foz stavka differentsiali.

14.1.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari.

[25]Robert J. Gordon, "Why Was Europe Left at the Station When America's Productivity Locomotive Departed?" *NBER Working Paper* No. 10661, 2004.
[26]Philippe Aghion and Peter Howitt, "A Model of Growth Through Creative Destruction," *Econometrica* 60 (1992): 323–351.

Bundan oldingi mavzularda ko'rdikki, dunyoning hech bir mamlakati tashqi iqtisodiy aloqalar va munosabatlardan uzilgan holatda emas. Shu sababli to'liq makroiqtisodiy model o'zida ham ichki, ham tashqi bozorlarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni majassam etishi lozim.

To'liq makroiqtisodiy model-ochiq iqtisodiyot modelidir.

Ochiq iqtisodiyot- shunday iqtisodiyotki, u:

a) mamlakat ishlab chiqarayotgan tovarlari va xizmatlarining ma'lum bir qismini eksport va import qilishini;

b) mamlakat jahon moliya bozorlarida kredit olishi va kredit berishini anglatadi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida barcha ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ushbu mamlakat ichkarisida sotilsa va barcha xarajatlar uch qismga: iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlariga bo'linsa, ochiq iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulotning sezilarli qismi chet elga eksport qilinadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga xarajatlarga to'rtinchi unsur sifatida mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning eksporti (chet elliklarning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari) ham kiritiladi.

Kichik ochiq iqtisodiyot va katta ochiq iqtisodiyot o'zaro farqlanadi.

Kichik ochiq iqtisodiyot-katta bo'lmagan mamlakat iqtisodiyotidir. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli kapital harakati schyoti va joriy operatsiyalar schyotini o'z ichiga oladi. Bunday iqtisodiyot jahon bozorida katta ulushga ega emas va jahon foiz stavkasiga amalda ta'sir ko'rsata olmaydi. Kichik ochiq iqtisodiyot jamg'armalari va investitsiyalari-jahon jamg'armalari va investitsiyalarining juda kichik miqdorini tashkil etganligi sababli jahon moliyaviy bozorlaridagi shart-sharoitlarga ko'ra belgilangan jahon foiz stavkasi bu iqtisodiyotda belgilab berilgan (ekzogen) ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi.

Katta ochiq iqtisodiyot- *ko'lami yirikligi sababli foiz stavkasi mamlakatning ichida ro'y berayotgan jarayonlarning jiddiy ta'sirida shakllanadigan iqtisodiyotdir.*

Katta ochiq iqtisodiyot- jahon jamg'armalari va investitsiyalarining katta qismiga egalik qilayotan yirik mamlakat (AQSh, XXR, Germaniya, Yaponiya, Rossiya va boshq.) iqtisodiyotidir. Bunday mamlakatlar jahon moliya stavkasiga ta'sir ko'rsata oladi.

Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir:

a) YaIMdagi tashqi savdo kvotasi;

b) ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi;

g) iste'mol tarkibidagi importning ulushi;

d) investitsiyalar hajmidani xorijiy investitsiyalarning ulushi.

Iqtisodiyotning ochiqligi darajasi odatda mamlakatning tashqi savdosi hajmiga yoki hukumatning siyosiy liniyasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Buyuk

Britaniya iqtisodiyoti nisbatan ochiq hisoblanadi, chunki u tashqi savdoga juda bog'langan. AQSh iqtisodiyoti esa nisbatan yopiqdir, chunki tashqi savdo uning rivojlanishi uchun hal etuvchi rol o'ynamaydi.

Ochiq iqtisodiyot xalqaro hisob-kitoblarda xorijiy valyutadan foydalanishni ko'zda tutadi. U to'lov balansida, xususan joriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansida o'z aksini topadi.

14.2. Mandell Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli

Ichki muvozanat - inflyatsiya jarayonlari mavjud bo'lmagan (yoki uning barqaror past darajasidagi) to'liq bandlik sharoitida talab va taklifning balanslashganligidir.

Qisqa muddatli davrda ichki muvozanat muammosi, birinchi navbatda, byudjet-soliq va pul-kredit siyosati vositasida yalpi talabni tartibga solish orqali ta'minlanadi.

Tashqi muvozanat qayd qilingan, yoki suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida to'lov balansining nolga teng qoldig'ini ta'minlab turilishni anglatadi.

Alohida holatlarda bu muammo ikki o'zaro mustaqil qismga bo'linadi:

a) joriy operatsiyalar balansining belgilangan holatini ta'minlab turish;

b) valyuta zahiralarining aniq belgilangan miqdorini saqlab turish.

Tashqi va ichki muvozanatni ta'minlab turish usullari bir xil: byudjet-soliq va pul-kredit siyosati. Ayrim hollarda mustaqil usul sifatida almashinuv kursi siyosati ham ajratib ko'rsatiladi.

Tashqi muvozanatni ta'minlash kapital harakatining mobilligi (mamlakatlararo kapital quyilishi jarayonining ichki foiz stavkasining jahon foiz stavkasiga nisbatan o'zgarishiga javoban keskinlashuvi) sababli murakkablashadi.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash muammosi tovar, pul va valyuta bozorlarining amal qilishiga ta'luqlidir.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash makroiqtisodiy tartibga solishning muhim muammosi sifatida yuzaga chiqadi, chunki u ichki va tashqi o'zgaruvchilarning bir-biriga o'zaro ta'sirini va qayta ta'sirini ko'zda tutishni talab etadi.

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy siyosat tahlili Mandell-Fleming modeliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu model qisqa muddatda iqtisodiyotni muvozanatlashtirishni ifodalaydi va kichik ochiq iqtisodiyot uchun IS-LM modelining modifikatsiya qilingan shakli hisoblanadi. Ikkala model ham baholarning o'zgarmasligini nazarda tutadi va yalpi talab hajmining o'zgarishi sabablarini tushuntiradi. Ular o'rtasidagi asosiy farq shundaki, IS-LM modeli-yopiq iqtisodiyot modeli, Mandell-Fleming modeli esa ochiq iqtisodiyot modeli ekanligidadir.

Ichki va tashqi muvozanat muammosi, ko'pincha, IS-LM modelining

modifikatsiya qilingan shakli vositasida, unga uchinchi- VV egri chizig'i qo'shilib tahlil qilinadi. VV egri chizig'i to'lov balansining muvozanatli darajasini tasvirlaydi. Model ham qayd qilingan, ham erkin suzib yuruvchi valyuta kursi rejimlari uchun va kapital mobilligining turli darajalariga moslab tuziladi.

Bu bobda biz Mandell-Fleming modelini quramiz va keyingi paragraflarda turli xil siyosatlarning ta'sirlarini o'rganish uchun bu modeldan foydalanamiz.

Ko'rib turganingizdek, Mandell-Fleming modeli biz oldingi boblarda foydalangan komponentlardan qurilgan.

Asosiy taxmin: mukammal capital oqimga ega bo'lgan kichik ochiq iqtisodiyot

Mukammal kapital oqimga ega bo'lgan kichik ochiq iqtisodiyot haqidagi farazlardan boshlaymiz. bu faraz shundan iboratki mamlaktdagi foiz stavkasi r, jahon foiz stavkasi r^* bilan belgilanadi. Matematik jihatdan, buni quyidagicha yozishimiz mumkin [27]

$$r = r^*.$$

Bu jahon foiz stavkasi egzogen o'zgaruvchidir, chunki biz ko'rayotgan mamlakat dunyo iqtisodiyoti bilan shunchalik kichikki, u dunyo moliyaviy bozoridan qarz olishi yoki qarz berishi jahon foiz stavkasiga hech qanday ta'sir qilmaydi.

Mukammal kapital oqimi to'g'risidagi fikrlar oddiy tenglama bilan ifodalansada, bu tenglama ko'rsatadigan takomillashgan jarayonning ko'rinishini yo'qotmaslik muhim hisoblanadi. Faraz qiling, birorta vaziyat sodir bo'ldi buning natijasida jahon foiz stavkasi ko'tariladi. Kichik ochiq iqtisodiyotda, mamlakatdagi foiz stavkalari qisqa muddatga biroz ko'tarilishi mumkin ammo bu vaziyat sodir bo'lishi bilan xorijliklar bu mamlakatga qarz berishni boshlashadi (misol uchun shu mamlaktning obligatsiyalarini sotib olish bilan). Capitalni kirib kelishi mamlakat ichidagi foiz stavkasini r ga tomon pasaytiradi. Xuddi shuningdek, agar har qanday hodisa mamlakat foiz stavkasini pasaytirishni boshlasa, capital yuqoriroq foiz topish maqsadida chetga oqib chiqib ketardi va bu capital oqimi ichki foiz stavkasini yana r* gacha qaytaradi. Bundan keyin r = r* tenglama kapitalning xalqaro oqimi ichki foiz stavkasini jahon foiz stavkasi bilan teng saqlab turishga yetadi degan tahminni yuzaga chiqaradi.*

Tovarlar bozori va IS egri chizig'i

Mandell-Fleming modeli tovar va xizmatlar bozorini IS-LM modeliga qaraganda ko'proq tasvirlab beradi va sof export uchun yangi termin qo'shadi. Ayniqsa, tovarlar bozori quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$Y=C(Y-T) + I(r) + G + NX(e).$$

[27] N. Gregory Mankiw. Macroeconomics (7th edition). USA, 2009, p 340

Bu tenglama shuni bildiradiki, jami daromad Y iste'mol C, investitsiya I, davlat xarajatlari G va sof exportning NX yig'indisiga teng. Iste'mol sof daromadga (Y-T) to'g'ri proporsianal, Investitsiya foiz stavkasiga teskari proporsianal. Sof export valyuta kursiga (e) tengkari bog'liq. Oldingiga o'xshab, biz valyuta kursini (e) har bir milliy valyutaga to'g'ri keladigan xorijiy valyutalar miqdori sifatida bilamiz – misol uchun (e) 100 yena bir dollar bo'lishi mumkin. Siz yana eslashingiz mumkin ya'ni biz 5 bobda sof exportni nominal valyuta kursiga qaraganda (milliy va xoriji valyutalar narxlari) real valyuta kursiga bog'lagandik (ya`ni mamlakatdagi va xorijdagi tovarlarning o'zaro narxlari).

Agar e nominal valyuta kursi bo'lsa, real valyuta kursi eP/P ga teng, bu yerda P mahalliy narx darajasi va P* xorijiy narx darajasi. Mandell-Fleming modeli mamlakatdagi va jahon narxlari darajasi o'zgarmas degan farazga asoslanadi, shuning uchun real valyuta kursi va nominal valyuta kursi bir biriga to'g'ri proporsional. Bu degani, mahalliy valyutaning qadri oshsa, xorijiy tovarlar mahalliy tovarlarga qaraganda arzonroq bo'ladi va bu eksportni pasayiradi va importni oshiradi. Yuqoridagi tovarlar bozori muvozanatining tovar va xizmatlarga va xarajatlarga ta'sir qiladigan ikkita moliyaviy o'zgaruvchisi (foiz stavkasi va valyuta kursi) mavjud, ammo vaziyatni mukammal capital oqimi to'g'risidagi tahmindan foydalanib soddalashtirish mumkin. Demak, r = r*. quyidagi tenglama kelib chiqadi*

$$Y = C(Y - T) + I(r^*) + G + NX(e).$$

Keling IS tenglamasiga qaraylik. Biz bu tenglamani grafikda tasvirlashimiz mumkin, bunda gorizontal o'qda daromad, vertical o'qda valyuta kursi berilgan. Bu chiziq 12-1 rasmning (c) panelida ko'rsatilgan.*

IS egri chizig'i pastga qaragan chunki yuqoriroq valyuta kursi sof eksportni kamaytiradi, bu esa o'z navbatida jami daromadlarni pasaytiradi. Buning qanday ishlashini ko'rish maqsadida, 14-1 rasmning boshqa panellari sof eksport va keyns xochi bilan birga olib boriladi IS egri chizig'ini keltirib chiqarish uchun. (a) panel, valyuta kursidagi e_1 dan e_2 ga ko'tarilish sof eksportni $NX(e_1)$ dan $NX(e_2)$ ga pasaytiradi. (b) panel, sof eksportdagi kamayish rejalashtirilgan xarajatlar grafigini pastga ko'chiradi va bu daromadni Y_1 dan Y_2 ga kamaytiradi. IS* egri chizig'i valyuta kursi (e) va daromad (Y) o'rtasidagi bog'liqlikni umumiylashtiradi.*

Pul bozori va LM*egri chizig'i

Mandell-Fleming modeli IS-LM modelidan tanish bo'lgan pul bozori tenglamasini ko'rsatib beradi.

$$M/P = L(r, Y).$$

RASM 14-1

IS egri chizig'i. IS egri chizig'i sof eksport va Keyns xochidan kelib chiqqan. (a) panel sof-exportni ko'rsatadi. Valyuta kursining e_1 dan e_2 gacha ko'tarilishi sof eksportni $NX(e_1)$ dan $NX(e_2)$ ga pasaytiradi. (b) panel keyns xochini korsatadi. sof eksport $NX(e_1)$ dan $NX(e_2)$ ga pasayishi rejalashtirilgan xarajatlarni pastga ko'chiradi va daromadni Y_1 dan Y_2 ga pasaytiradi. (c) panel IS egri chizig'ining valyuta kursi va daromadni umumlashtirishini ko'rsatadi. Valyuta kursi qancha katta bo'lsa, daromad darajasi shuncha kam bo'ladi.



Bu tenglik real pul taklifi M/P talabga L(r, Y) tengligini ko'rsatadi. Real pulga talab foiz stavkasiga teskari bog'liq va daromadga to'g'ri bog'liq. Pul taklifi M egzogen o'zgaruvchi hisoblanadi va Markaziy bank tomonidan boshqariladi. Mandell-Fleming modeli qisqa muddatli tebranishlarni tahlil qilish uchun yaratilganligi, P narx darajasi tashqi belgilangan deb faraz qilinadi. Yana bir bor, mahalliy foiz stavkasi bilan jahon foiz stavkasiga teng degan farazlarni keltiramiz. Shuning uchun r = r ga teng.*

$$M/P = L(r^*, Y).$$

LM tenglamasini ko'raylik. Biz buni grafikda ifodalashimiz mumkin, 14-2 rasm (b) paneli. LM egri chizig'i vertical chunki valyuta kursi LM tenglamasiga kirmaydi. Jahon foiz stavkasi berilgan, LM tenglamasi yalpi daromadni belgilaydi. 14-2 rasm LM egri chizig'i qanday qilib jahon foiz stavkasidan kelib chiqqani va LM egri chizig'i qanday qilib foiz stavksi va daromadni bir biriga bog'lashini ko'rsatadi.

Qismlarni birlashtirish.*Mandell-Fleming modeliga ko'ra, mukammal capital oqimiga ega kichik ochiq iqtisodiyot ikkita tenglama bilan tasvirlanishi mumkin:*

$$Y = C(Y - T) + I(r^*) + G + NX(e) \qquad IS^*,$$

$$M/P = L(r^*, Y) \qquad LM^*.$$

Birinchi tenglama tovarlar bozoridagi muvozanatni ko'rsatadi, ikkinchisi pul bozoridagi muvozanatni ko'rsatadi.

RASM 14-2



LM egri chizig'i. (a) paneli standart LM egri chizig'i (M/P = L(r, Y) tenglamasi orqali ifodalangan) dunyo foiz stavkasi ko'rsatayotgan gorizantal chiziq bilan birga ko'rsatadi. Bu ikki chiziqning kesishmasi daromad darajasini belgilab beradi. Shuning uchun, (b) panel ko'rsatganidek LM egri chizig'i vertikaldir.

Egzogen *o'zgaruvchilar bular fiscal siyosat G va T, monetar siyisat M, narx darajasi P, jahon foiz stavkasi r*.* ***Endogen*** *o'zgaruvchilar daromad Y va valyuta kursi e.*

14-3 rasm shu ikkita bog'liqlikni ko'rsatadi. Iqtisodiyot uchun muvozanat nuqtasi IS chizig'I va LM egri chizig'i kesishgan joydir. Bu kesishgan joy ham tovarlar bozori ham pul bozoridagi muvozanat ta'minlangandagi daromad darajasi va valyuta kursini ko'rsatadi. Mandell-Fleming modelidan biz yalpi daromad Y va valyuta kursining e siyosiy o'zgarishlarga qanday javob berishini ko'rsatish uchun foydalanamiz.

RASM 14-3



MUNDELL-FLEMING modeli.

Mundell-Fleming modelining bu grafigi tovarlar bozori muvozanat holati IS va pul bozori muvozanat holati LM ni chizib beradi. Ikkala chiziq ham foiz stavkani dunyo foiz stavkasi darajasida o'zgarmas qilib chizilgan. Bu ikkata chiziqning kesishmasi tovarlar va pul bozoridagi muvozanatni ta'minlaydigan daromad darajasi

14.3. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat.

Oldingi savolda ta'kidlaganimizdek qayd qilingan valyuta kursi sharaoitida monetar siyosat ko'proq ichki balans muammosi bilan aloqador bo'ladi. Keltirilgan fikrlarni izohlab berish uchun quyidagi gepotetik misolni ko'rib chiqamiz.

Mamlakatning barcha tijorat banklari va Markaziy bankni barcha xorijiy aktivlar va passivlar to'plangan yagona bank deb tasavvur qilamiz. Pul taklifi esa naqd pul va depozitlardan iborat deb qaraymiz. Bunday gepotetik bankning passivida pul taklifining barcha komponentlari (odatda M_2 agregati), aktivida esa bank tizimining sof xorijiy aktivlari (aktivlar-passivlar, ya'ni xorijliklarning ularga bo'lgan barcha talablari so'ndirilgandan so'ng mamlakat ega bo'ladigan aktivlar) va sof ichki aktivlar (yoki hukumatga, firmalarga va uy xo'jaliklariga sof ichki kreditlar) jamlangan bo'ladi.

Sof xorijiy aktivlar mamlakatning valyuta zahiralariga mos keladi. Bunday holatda aktivlar va pasivlarning tengligi shartini $M=R_{es}+DS$ ko'rinishida yozishimiz mumkin. Bu tenglik pul taklifi (bank tizimining majburiyati) valyuta

rezervlari (sof xorijiy aktivlar) va bank tizimining ichki kreditlari yig'indisiga tengligini anglatadi. Demak, pul taklifi ham ichki, ham tashqi omillarga bog'liq .

Pul taklifining o'zgarishini $\Delta M=\Delta R_{es} +\Delta DS$ ko'rinishida tasvirlash mumkin. Bu erda ΔR_{es} to'lov balansining taqchilligi yoki ortiqchaligiga mos keladi. Tashqi balansni tiklash, o'z navbatida valyuta kursini saqlab turish zaruriyati xorijiy aktivlarni sotish va sotib olishni talab qiladi. Bu esa valyutarezervlarining ko'payishi yoki kama yishini keltirib chiqaradi. Lekin, rezervlarni sotish barobarida Markaziy Bank muomaladagi pulning bir qismini chiqarib oladi. Rezervlarni sotib olish bilan esa pul taklifi hajmini ko'paytiradi. Shunday qilib, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida M endogen o'zgaruvchi bo'lib, to'lov balansining yuzaga keladigan taqchilligi yoki ortiqchaligiga (ya'ni almashinuv keursini pasaytirish yoki ko'tarish borasidagi harakatlarga) bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitda iqtisodiyotni rivojlantirish prognozlari tuzilayotganda pulga talab iqtisodiy o'sish va inflyatsiyaning maqsadli (rejadagi) ko'rsatkichlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Pul taklifi esa sof xorijiy aktivlar va ichki kreditlar hajmiga bog'langan holda aniqlanadi. Sof xorijiy aktivlvr to'lov balansini tuzish prognozlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ichki kreditlar hajmi esa qoldiq printsipipida aniqlanadi hamda hukumat va xususiy sektor o'rtasida taqsimlanadi. Xususiy sektorga ichki kreditlar miqdorini o'zgartirish uchun pul-kredit siyosatining uchala usuli ham qo'llaniladi.

Markaziy Bank to'lov balansining iqtisodiyotdagi pul taklifiga ta'sirini valyuta rezervlari o'zgarishini sterillash orqali neytrallashtirishi mumkin. Masalan, (to'lov balansi taqchilligini yoki almashinuv kursi pasayishini bartaraf qilish maqsadlarida foydalanilishi natijasida) rezervlar qisqarganida Markaziy Bank ichki aktivlarni pul taklifi hajmi o'zgarmasligini ta'minlaydigan darajada ko'paytirishi mumkin.

Ya'ni : $M=\downarrow R_{es} +\uparrow DS$

Bunda u ochiq bozordagi operatsiyalar yoki pul-kredit siyosatining boshqa vositalaridan foydalanadi.

Ammo sterillash imkoniyatlari cheklangan. Agar to'lov balansining taqchilligi uzoq vaqt saqlanib qolsa, uni bartaraf qilishga intilish valyuta rezervlarini tugab qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda, mamlakat, almashinuv kursining pasayish tendentsiyasini bartaraf qilish hamda pulning xorijga oqib ketishini tugatish uchun yoki qayd etilgan kursdan voz kechishi, yoki pul massasining qisqarishiga yo'l qo'yib berishga majbur bo'ladi. To'lov balansining barqaror ijobiy qoldig'i sharoitida rezervlar hajmi shunchalik ko'p bo'lishi mumkinki, ichki kredit nolga teng bo'lib qoladi. Bu esa amalda mumkin bo'lmagan holatdir (banklar ichki kreditlarni kamaytirmasligi, balki nobank sektoridan pul qarz olishi zarur bo'ladi).

Demak, hattoki sterillash ham pul masssasini to'lov balansi ta'siridan himoya qila olmaydi. Bu esa pul-kredit siyosatining ichki balansga ta'sirini keskin cheklab qo'yadi.

Qayd qilingan valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosatining samaradorligi kapitalning mobilligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.. Davlat xarajatlarining ko'payishi foiz stavkasining o'sishini keltirib chiqaradi (fond bozorida qarzga mablag' olib, davlat xususiy sektor foydalanadigan pul massasini kamaytiradi) . Bu esa o'z navbatida xorijdan kapital oqib kelishini rag'batlantirapdi. Kapitalning yuqori mobilligi sharoitida davlat xarajatlarining ko'payishi bilan bog'liq savdo balansi taqchilligi kapital harakati schyotining musbat (ijobiy) qoldig'i bilan amalda qoplanadi. Markaziy Bank esa yuzaga kelgan almashinuv kursining o'sish tendentsiyasini bartaraf qilish uchun xorijiy valyutani sotib olish va muomalaga milliy valyutani ko'p miqdorda chiqarishga, bu bilan esa pul taklifini oshirishga majbur bo'ladi. Bu tadbir (davlat xarajatlarining o'sishi bilan birgaldikda) daromadlarning kengayishi uchun qo'shimcha rag'bat yaratadi.

Shunday qilib, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosati pul-kredit siyosatidan farli ravishda daromad darajasiga, o'z navbatida ichki muvozanatga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsata oldadi. Tasir darajasi kapitalning mobilligi o'sishi bilan ortib boradi.

14.4. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat

Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitidagi byudjet-soliq va pul-kredit siyosati qayd qilingan valyuta kursi sharoitidagiga nisbatan mutlaqo boshqacha natijalar beradi. Endi rollarni taqsimlash muammosini to'g'ri hal qilish teskari ko'rinish oladi. Byudjet-soliq siyosati savdo, demak, to'lov balansi uchun pul-kredit siyosatiga nisbatan katta ahamiyat kasb etadi. Aynan byudjet-soliq siyosatidan tashqi balansga erish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ichki balansni ta'minlashda esa pul-kredit siyosatidan foydalanish birinchi planga chiqadi.

Agar qayd qilingan valyuta kursi sharoitida ichki pul siyosati almashinuv kursinini quvvatlab turishni ham ko'zda tutgan bo'lsa, suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida u bunday vazifadan ozod qilinadi va ichki muammolarni hal qilish uchun samaraliroq ishlatilishi mumkin.

Pul taklifini kengaytirish foiz stavkalarini pasaytiradi va xarajatlarning oshishiga olib keladi. Ma'lumki xarajatlarning ortishi importning o'sishini rag'batlantiradi va savdo balansini yomonlashtiradi. To'lov balansining taqchilligi yuzaga kelishiga foiz stavkasining pasayishi sababli kapitalning mamlakatdan chiqib ketishi ham ta'sir ko'rsatadi. Lekin egiluvchan valyuta kursi sharoitida taqchillik saqlanib qolmaydi. Importning o'sishi va kapitalning oqib ketishi xorijiy

valyutaga talab oshishiga olib keladi va milliy valyuta qadrsizlanadi. Bu qadrsizlanish mamlakat eksportchilarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Oqibatda savdo balansi yaxshilanadi. Eksportning ortishi mamlakatimiz mahsulotiga bo'lgan talabning o'sishini anglatadi va pul massasining dastlabki o'sishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yuksalishni yanada kuchaytiradi.

Demak, pul siyosati ichki daromadlarga bevosita (pul taklifining o'sishi orqali) va bilvosita (almashinuv kursining pasayishi hamda eksportning o'sishi orqali) ta'sir ko'rsatadi.

Kapitalning oqib ketishiga va o'z navbatida milliy valyutaning qadrsizlanishi darajasiga ta'sir ko'rsatgani uchun ham kapitalning mobilligi muhim ahamiyatga egadir.

Ammo, pul-kredit siyosati murakkab etkazib berish mexanizmiga egaligi sababli uning ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'siri ishlab chiqarishni kengaytirishning ichki rag'batlari (foiz stavkasining pasayishi) orqali emas, balki ko'proq tashqi dunyo orqali ro'y beradi deb tasavvur qilish mumkin. Boshqacha aytganda, kapitalning chiqib ketishi va valyutaning qadrsizlanishi sharoitida mamlakat mahsulotlariga talabning o'sishi uning eksportiga talabning oshishi hisobiga ro'y beradi. Shu sababli pul siyosatining ichki balansga ijobiy ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega. Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosatining samaradorligini baholash yanada murakkabroqdir.Ma'lumki, davlat xarajatlarining ortishi ichki va tashqi muvozanatga ikki yo'nalishda: daromad orqali va foiz stavkasi orqali ta'sir ko'rsatadi. Daromadlarning ortishi(multiplikator samarasi orqali) importni ko'paytiradi, savdo balansini yomonlashtiradi va milliy valyutaning kursini pasaytiradi. Davlat xarajatlarining ortishi, shuningdek, hukumat olayotgan qarzlarini ko'paytirayotganligini anglatadi, bu esa foiz stavkalarining ortishiga olib keladi. Yuqoriroq foiz stavkalari esa xorijdan kapital oqib kelishini rag'batlantiradi. Bu esa milliy valyuta kursini oshiradi va kapital harakati schyotini yaxshilaydi. Yakuniy natija esa kapitalning mobilligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Kapitalning past mobiligi sharoitida byudjet ekspantsiyasi daromad orqali ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Kapitalning uncha ko'p bo'lmagan miqdorda oqib kelishi savdo balansining taqchilligini qoplay olmaydi va oqibatda valyuta kursi pasayadi.

Milliy valyutaning arzonlashishi eksportning o'sishi uchun qulay sharoit yaratadi va to'lov balansining taqchilligini bartaraf qilish imkonini beradi. Eksportning ortishi, shuningdek, byudjet ekspantsiyasining ichki ishlab chiqarishga ijobiy ta'sirini to'ldiradi.

Shu bilan birga kapitalning mobilligi ortib borishi bilan kapital schyotining to'lov balansi va valyuta kursiga ta'siri kuchaya boradi. Kapitalning

yuqori mobilligi sharoitida uning oqib kelishi sababli ro'y bergan valyuta kursining ko'tarilishi tendentsiyasi ustunlik qiladi. Bu eksportning qisqarishiga va savdo balansi taqchilligining ortishiga olib keladi. Kapitalning katta miqdorda oqib kelishi bu taqchillikni qoplash va to'lov balansini muvozanatlashtirish imkonini beradi. Ammo byudjet ekspantsiyasining ishlab chiqarish hajmiga yakuniy ta'siri deyarli nolga teng bo'ladi. Bunga kuchli siqib chiqarish samarasi mavjudligi, ya'ni xususiy investitsiyalarni foiz stavkasining oshishi orqali va eksportni almashinuv kursining oshishi orqali siqib chiqarilishi sabab bo'ladi.

Shunday qilib, pul siyosatining ichki daromadga aniq ijobiy ta'siridan farqli ravishda byudjet-soliq siyosati kapitalning past mobilligi sharoitidagina samarali bo'ladi.

Xulosa yasab, pul va byudjet –soliq siyosatining, tashqi balansni saqlab turgan holda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan, nisbiy samaradorligini baholashimiz mumkin.

Ma'lumki, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida ichki monetar siyosat amalda "falajlangan" bo'ladi va faqat byudjet-soliq siyosatigina samara beradi. Va bu samara kapitalning mobilligi ortishi bilan ko'payib boradi.

Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida ichki ishlab chiqarish hajmiga, shubhasiz, kapitalning mobilligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar pul-kredit siyosati ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

14.5. Foiz stavka differensiali

Hanuzgacha, tahlillarimiz foiz stavkasi kichik ochiq iqtisodiyotda dunyo foiz stavkasiga teng bo'lishi to'g'risidagi fikrni ilgari surmoqda: r = r. Ma'lum darajada, foiz stavkasi butun dunyoda bir biridan farqlanadi. Biz hozir tahlillarimizni xalqaro foiz stavkalari differentsiyasining sabablari va oqibatlarini hisobga olgan holda kengaytiramiz*[28].

Mamlakat riski va valyuta kursi narxlari bo'yicha tahminlar

Yuqorida tahmin qilganimizdek, kichik ochiq iqtisodda dunyo foiz stavkasi orqali aniqlanadi va bunday holatda biz narxning pasayishiga ko'proq e'tibor qaratgan edik.

Agar mahalliy stavka foizi dunyo savka foizidan yuqori bo'lsa, xorijdagi insonlar ushbu davlatga qarz berib, mahalliy foiz stavkasini pastga qarab yo'naltirishi to'g'risida gapirib o'tgan edik.

[28] N. Gregory Mankiw. Macroeconomics (7th edition). USA, 2009, p 356

Agar mahalliy stavka foizi dunyo stavka foizidan pastda bo'lsa, mahalliy aholi mahalliy foiz stavakasini balandga chiqargan holda xorijdagilarga pul beradi va katta daromad ko'radi. Oqibatda mahaliiy foiz stavkasi dunyo foiz stavkasi bilan tenglashadi.

Nima uchun ushbu mantiq doim qo'llanmaydi. Bu erda ikkita sabab mavjud. Ushbu sabalarning eng muhimi mamlakat riski hisoblanadi.

Investorlar AQShdan davlat obligatsiyalarini sotib olganda yoki AQSh koporatsiyalariga kredit olganda, ular stavkalarni to'lashga to'la amin bo'ladilar.

Aksincha, bir qancha rivojlanmagan mamlakatlarda, revalyutsiya yoki boshqa siyosiy siquvlar kreditni pulini qaytarishga to'sqinlik qiladi qo'rquv ma'lum miqdorda haqiqatga yaqin hisoblanadi. Bunday mamlakatlardagi qarzdorlar qarz beruvchini bu kabi riskdan ozod qilish uchun yuqori foiz stavkasini to'lashiga to'g'ri keladi. Boshqa bir foiz stavkasining mamlakatlararo har xilligining yani bir sababi valyuta kursining o'zgarib turish tahminidir. Masalan, deylik odamlar Meksika p'esosi AQSh dollari qiymatiga nisbatan pasayib ketishini tahmin qilmoqda. So'ngra kredit pesoda to'lanadigan bo'lsa, demak kredit dollarda amalga oshirilishidan ko'ra qadrsizroq valyutada to'lanadi. Ushbu tahmin qilinayotgan zararni qoplash uchun Meksika valyutasining foiz stavkasi AQShning foiz stavkasidan yuqoriroq turadi.

Shunday qilib, har ikki davlat riski va kelajakda valyuta kurslarining o'zgarish tahminlari, shuningdek kichkina ochiq iqtisodning foiz stavkalari dunyodagi boshqa iqtisodiy jarayonlardagi foiz stavkasidan farqlanishi mumkin.

Mandell-Fleming modelidagi differentsial

Mandell-Fleming modeliga foiz stavkasi differentsialini kiritish uchun, biz birinchi navbatda kichkina ochiq iqtisodiyotdagi foiz stavkasi dunyo foiz stavkasi qo'shilgan risk ortishi orqali aniqlashini tahmin qilgan edik:

$$r = r^* + \theta$$

Risk ortgan mamlakatda kreditni tashkillashtirish bo'yicha siyosiy riskni anglash va haqiqiy valyuta kursida kutilayotgan o'zgarish orqali aniqlanadi.

Shu maqsadda, risk ortishi egzogen sifatida riskidagi o'zgarishlarning iqtisodga qay darajada ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish uchun olishimiz mumkin. Ushbu model oldingi modelga juda ham yaqin hisoblanadi. Ikkala holat tenglamasi qo'yidagicha

$$Y = C(Y - T) + I(r^* + r = r^* + \theta) + G + NX(e) \qquad IS^*,$$

$$M/P = L(r^* + r = r^* + \theta, Y) \qquad LM^*.$$

Har qanday berilgan fiskal siyosati, pul siyosati, narx darajasi va qo'shimcha haq riski, ushbu ikki formulada kirim darajasi va mahsulot, shuningdek pul bozorini tenglashtiruvchi kirim darajasi va valyuta kursini aniqlashtirmoqda. Barqaror qo'shimcha haqni hisobga olgan holda, pul, fiskal va savdo siyosati

qurollari biz allaqachon ko'rib chiqqanimizdek ishlaydi. Deylik siyosiy tartibsizlik davlatning r = r + θ risk premiumini (risk premium) oshirishga sabab bo'ladi. Chunki r= r* + r = r* + θ, ushbu holat to'g'ridan to'g'ri amalga oshuvchi ta'sir hisoblanib, bunda r mahalliy foiz stavkasi oshishiga sabab bo'ladi. Yuqoriroq stavka foizi, o'z navbatida ikki xil ta'sirga ega. Birinchisi IS* chizig'ining chap tomonga qarab o'zgarishidir, chunki yuqoriroq foiz stavka sarmoyani qisqartiradi.*

Ikkinchisi, LM chizig'i o'ng tarafga qarab o'zgaradi, chunki yuqori stavka foizi pulga bo'lgan ehtiyojni qisqartiradi va bu har qanday berilgan pul hajmi uchun ancha yuqori darajada bo'lgan daromadni amalga oshirishga imkon beradi. [Eslatib o'tamiz Y M/P = L(r* + r = r* + θ, V) formulasini qoniqtirishi kerak..] 14-4 rasmda ko'rsatilganidek ushbu ikki o'zgarishlar daromadni oshirishga va valyutani qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.*

Yana bir hayron qolarli va balki unchalik me'yorga to'g'ri kelmaydigan tahmin tahlillaridan biri r = r + θ o'lchov orqali mamlakat riskining o'sishi hisoblanadi.. Ushbu holat 14-4 rasmda LM* chizig'idagi o'ng yo'nalishdagi o'zgarish orqali o'z aksini topgan. Bunda valyuta sof eksportni qatta miqdordagi pul hajmiga bo'lsada ushlab turibdi, natijada esa umumiy daromad ko'tariladi.*

RASM 14-4



Risk mukofotidagi oshish. Mamlakatda yuz beradigan Risk mukofotining oshishi o'zining foiz stavkasini ko'taradi. Yuqori foiz stavkasi investitsiyalarni kamaytirganligi sababli, IS chizig'i chapga suriladi. Bu pul talabini ham kamaytirganligi sababli, LM chizig'i o'nga suriladi. Daromadlar oshadi va valyuta qadrsizlanadi

Bu yerda nima uchun amaliyotda bu kabi yorqin daromad olib kelinmaydi - degan savol to'g'iladi. Birinchi navbatda markaziy bank mahalliy valyutaning katta tannazullidan qochishni hohlaydi va shuning uchun ham M pul hajmini kamayishi bo'yicha ta'sir bilinishi mumkin. Ikkinchidan mahalliy valyutaning tanazuli muhim mahsulotlar importini amalga oshirish, narxini kutilmaganda

ko'tarishi va P narx darajasini oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Uchinchidan ba'zi tadbirlar davlat riskini oshirishga sabab bo'ladi va buning natijasida mamlakat rezidentlarining pulga bo'lgan ehtiyoji oshadi, chunki pul doim mavjud bo'lgan ishonchli aktiv hisoblanadi. Ushbu o'zgarishlarning har uchchalasi ham valyuta kursining pastga tushib ketishini oldini oladi va LM egri chizig'ining chap tarafiga qarab o'zgarishiga olib keladi. Aynan shuning uchun ham, mamlakat riskining oshishi yaxshilikka olib kelmaydi. Qisqa muddatli boshqaruvda ular odatda tanazzulga yuz tutgan valyutani boshqaradi va uchta asosiy yo'llar orqali umumiy daromadning pasayotganligi tasvirlanadi. Shuningdek yuqori foiz stavkasining sarmoyani qisqartirishi, uzoq muddatli ishtiroki asosiy jamg'armani qisqartiradi va iqtisodiy o'zishga xalaqit beradi.*

Qisqa muddatli istiqboldan uzoq muddatli istiqbolgacha: O'zgaruvchan narxlarni o'z tarkibiga olgan Mandell-Fleming modeli Yuqorida narx darajasi qayd etilganda qisqa muddatli istiqboldan (the short run) kichik ochiq iqtisodni o'rganishda Mandell-Fleming modelidan foydalangan edik. Endi narx darajasi o'zgarsa nima bo'lishini ko'rib chiqamiz. Tahlillar davomida Mandell-Fleming modeli kichik ochiq iqtisoddagi umumiy ehtiyoj egri chizig'ining nazariyasi to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Shuningdek, ochiq iqtisodning qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan modeli uzoq muddatda boshqariluchi modelga qanday bog'liq ekanligi ko'rstilgan. Ushbu holat 5 chi bo'limda to'liq tahlil qilingan. Chunki biz ketma ketlikda amalga oshirilayotgan boshqa harakatlanmayotgan iqtisoddagi narx qiymati darajasidagi o'zgarishlarni, shartli va haqiqiy valyuta kurslarini ko'rib chiqmoqchimiz. Shunday qilib, biz ikki xil o'zgaruvchanlikni farqlashimiz kerak. Shartli valyuta kursi hisoblansa, haqiqiy valyuta kursi eP/P, teng bo'lgan e, hisoblanadi, bu erda siz 5 Bobni eslashingiz kerak. Biz Mandell-Fleming modelini qo'yidagicha ifodalaymiz*

$$Y = C(Y - T) + I(r^*) + G + NX(e) \qquad IS^*,$$

$$M/P = L(r^*, Y) \qquad LM^*.$$

Ushbu formula endi juda tanish bo'lishi kerak. Birinchi formula IS egri chizig'ini tasvirlayotgan bo'lsa, ikkinchisi LM* egri chizig'ida o'z aksini topgan. E'tibor qaratgan bo'lsangiz, sof eksport haqiqiy valyuta kursiga bog'liq bo'ladi.*

RASM 14-5



Mundell-Fleming Jami talab nazariyasi sifatida Panel (a) narx darajasi tushganda, LM egri * o'ng siljitadi, deb ko'rsatadi. daromadning muvozanatli darajasi ko'tariladi. Panel (b) P va F o'rtasidagi salbiy munosabatlar jami talab egri tomonidan hulosa ekanligini ko'rsatadi.

14-5 tasvirda narxlar darajasi tushib ketganda nimalar sodir bo'lishi aniq ko'rsatilgan. Past darajadagi narxlar haqiqiy pul balansi darajasini ko'tarib, paneldagi kabi LM egri chizig'ini o'ng tomonga qarab o'zgartiradi. Umumiy ehtiyoj chizig'i narx darajasi va daromad darajasi o'rtasidagi salbiy aloqani umumlashtiradi (ushbu holat b panelda ko'rsatilgan).*

Haqiqiy valyuta kursi pastga tushib, kirimning o'zgaruvchanlik darajasi oshadi. Shuning uchun IS-LM modeli umuiy ehtiyoj egri chizig'ini yopiq iqtisodda ifodalab, Mandell – Flameng modelini kichik ochiq iqtisodiyot uchun umumiy ehtiyoj egri chizig'ida tasvirlab beradi.

Biz bu diagrammani ushbu bobda uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbol (the long-run model) modeli bilan bog'liq. 14-6 tasvirlarda uzoq muddatli va qisqa muddatli o'zgaruvchanlik holati ko'rsatilgan. Har ikki panelda ham K nuqta qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan muvozanat tasvirlangan, chunki u aniq qayd etilgan narx darajasini tasvirlagan. Bu kabi muvozanatda mahsulot va xizmat

ko'rsatish uchun ehtiyoj juda past hisoblanib, narx darajasining pasayib ketishiga olib keladi.

RASM 14-6

(A) Mundell-Fleming Model



Mundell-Fleming Jami talab nazariyasi sifatida Panel (a) narx darajasi tushganda, LM egri * o'ng siljitadi, deb ko'rsatadi. daromadning muvozanatli darajasi ko'tariladi. Panel (b) P va F o'rtasidagi salbiy munosabatlar jami talab egri tomonidan hulosa ekanligini ko'rsatadi.

(B) hammasi bo'lib Arz va Jami talab modeli



Narx darajasining pasayishi haqiqiy pul balansini ko'tarib, LM chig'ig'ini o'ng tomonga qarab o'zgartiradi.*

Haqiqiy valyuta kursi qadrsizlanadi, shuning uchun sof eksport ko'tariladi. Asta sekin iqtisod uzoq istiqbolga mo'ljallangan muvozanatning C nuqtasiga etadi. Qisqa va uzoq istiqbolga mo'ljallangan muvozanat o'rtasidagi tranzitsiya tezligi iqtisodni haqiqiy chiqim (output) darajasida qayta tiklash uchun narx darajasi qanday tezlikda tenglashishiga bog'liq bo'ladi.

K va S nuqtalaridagi kirimlarning har ikkalasi ham manfaatdor hisoblanadi. Ushbu bobdagi bizning asosiy e'tiborimiz siyosatning K nuqtaga,

ya'ni qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan boshqaruv muvozanatiga qay tarzda ta'sir o'tkazishiga qaratiladi. 5 bobda S nuqtasining ifodalari, uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan muvozanatni ko'rib chiqadi. Siyosat arboblarining siyosatni qachon o'zgaratirishga harakat qilmasinlar, ular har ikkalar jarayonni ham, ya'ni qarorlariga yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan muvozanat ta'sirni hisobga olishlari zarur.

15- Mavzu. Xalqaro savdo nazariyasi

Reja

1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko'rinishlari
2. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi.
3. Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi.
4. Xeksher – Olinning neoklassik kontseptsiyasi
5. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari

Tayanch so'z va iboralar: *import, importga chegaralangan moyillik, devalvatsiya, demping*

1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko'rinishlari

Hozirgi zamon iqtisodiyotining ochiqlik darajasi ya'ni mamlakatlarning ixtisoslashuvi va ular o'rtasida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda. Mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish,iqtisodiy muammolarni hal qilish borasida tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda bu holatlarni etiborga olishi shart.

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya-valyuta, kredit munosabatlari rivojlandi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim ob'ektiv sabab bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi. Eng katta hududga ega bo'lgan yoki rivojlangan davlatlar ham barcha resurslar bilan o'zini to'liq ta'minlay olmaydi. Ular o'zlarida ortiqcha bo'lgan resurslarni eksport qilishga va mamlakatda taqchil bo'lgan resurslarni import qilishga majburlar.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim sabab shundaki hamma mamlakatlar ham barcha turdagi mahsulotni bir xil samaradorlik bilan ishlab chiqara olmaydi. Ya'ni bir tovar Yaponiyada arzon ishlab chiqarilsa, ikkinchi tovar O'zbekistonda arzon ishlab chiqarilishi mumkin. Shu sababli resurslardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatlar ixtisoslashadilar va o'zaro savdo-sotiqni yo'lga qo'yadilar.

Bu ikki ob'ektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 90-yillarning boshlarida xalqaro savdo hajmi AQShda yalpi milliy mahsulotning 16-18 foizini,

Germaniyada 30-39 foizini tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 foiz atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg'i-xom ashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;
- xizmatlarni ayirboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari;
- transport xizmatlari, sayyohlik va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtda xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 30 foizdan oshib ketdi;
- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va «nou-xou»lar. Ular hissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foiziga yaqini to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo mahsulotlari, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayirboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

Eksport operatsiyasi - mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi - mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi - avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi - avval eksport qilingan va u erda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

2. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi.

Shu paytga qadar yuzaga kelgan barcha xalqaro savdo nazariyalari xalqaro savdoni erkinlashtirish barcha mamlakatlar uchun foyda keltiradi degan fikrni ilgari suradi. Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning **mutlaq ustunlik** nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa tovarlarni sotib oladi. Chunki bu tovarlar ularni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan davlatlarda ancha arzon ishlab chiqarilgan bo'ladi. Natijada har ikki davlat ham kam resurs sarflab ko'proq mahsulotga ega bo'ladi.

Masalan, O’zbekiston asosan paxta mahsulotlarini etishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko’proq shunga e’tiborni qaratish lozim. Chunki, O’zbekiston qishloq xo’jaligi, ob-havosi va qolaversa, butun respublika sharoiti paxta etishtirishga moslashgan va unga kam miqdorda mehnat va moliyaviy resurslarni sarf qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega. Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o’zi ixtisoslashgan sohaga ko’proq e’tiborni qaratishsagina dunyo bo’yicha ko’proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham katta muvaffaqqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo’l bilan dunyo aholisining talablarini maksimum qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Ammo qaysidir mamlakat hech qaysi mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha dunyoda mutlaq ustunlikka ega bo’lmasligi mumkin. Bu esa shu mamlakat hamma tovarlarni chetdan keltiradi-mi degan savolni tug’diradi. Agar shunday bo’lsa importni bu mamlakat qaysi mablag’lar hisobiga moliyalashtiradi. Bu savolga javob berish borasida mutlaq ustunlik nazariyasi boshi berk ko’chaga kirib qoladi.

3. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi.

D. Rikardo A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasini yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi. D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» nomli asarida klassik nazariyani boshi berk ko’chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mamlakatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda yoki ko’proq ustunlikka ega bo’lgan yoxud kamroq zaiflikka ega bo’lgan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o’rtasidagi savdo ko’proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o’zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari “Nisbiy ustunlik nazariyasi”da o’z echimiga ega bo’ldi.

Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo’lsin. Shuni hisobga olgan holda D. Rikardoning “Nisbiy ustunlik” nazariyasini qo’llaymiz:

1-jadval.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan mehnat sarfi.

	Movut(bir dona)	Vino(barrel)
Portugaliya	90	80
Angliya	100	120

Yuqoridagi misoldan ko’rinib turibdiki Portugaliya barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega. Ya’ni bir dona movut ishlab chiqarish uchun 90 mehnat birligi, bir barrel vino ishlab chiqarish uchun esa 80 mehnat birligini sarflaydi. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab

chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo'lga qo'yish ko'proq foyda olib kelishini ta'kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzonga tushmoqda. Bunda nisbiy ustunlikdagi farq har bir millat uchun xalqaro savdoda yutuqqa olib keladi. Ya'ni, Portugaliya bir barrel vinoni (80 birlikda) 120 birlikda Angliyaga sotsa va o'z navbatida, Angliyadan (100 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtirganimizda esa **8/9** donaga ega bo'lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyaning vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga oladigan foydasi quyidagicha bo'ladi.

120 / 100 – 8 / 9 =1,2 - 0,(8) = 0,31 dona movut.

Angliya esa movut ishlab chiqarishda kamroq zaiflikka ega. Ya'ni movut ishlab chiqarishga qilinadigan mehnat sarflari o'rtasidagi farq vino ishlab chiqarishdagiga nisbatan kamroq. Demak movut ishlab chiqarishga ixtisoslashish hisobiga xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya'ni, movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga **11/8** barrel vino (o'zidagiga nisbatan **5/6** barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug'i:
9 / 8 - 5 / 6 =7 / 24 = 0,29 barrel vino.

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga **9/8** dona movut sotib olgandagina xalqaro sovda foydali hisoblansa, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga **5/6** dona movut almashganda savdo foydali hisoblanadi.

Shunday qilib, erkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag'batlantirib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: har bir mamlakat biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishguncha o'tgan davrgiga nisbatan kamroq moddiy va mehnat xarajatlari sarflaydigan bo'ladi. Ammo, bu borada barcha nazariyalar ham savdoda mamlakatlarning pul birliklari ishtorokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki, mamlakatlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun valyutalarini almashtirishadi. D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olgan. U izohlaganidek yuqorida keltirilgan imkoniyat valyutalarni almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to'lovlari o'zaro balansga ega emas. Bunday vaziyat valyuta kurslaridagi o'zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o'zgartirish hisobiga bartaraf etiladi. Yuqoridagi misol mavhum xususiyatga ega. U aniq vaziyatlarga asoslanishi uchun:

- mehnat savdo qilayotgan mamlakatlar o'rtasida emas, balki mamlakat ichida harakatchan bo'lishini;
- transport, bojxona xarajatlari, savdo ustamalari va boshqa cheklashlar hisobga olinmasligini;

- mahsulotlarning yangi namunalarni ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash hamda ularni ko'p miqdorda seriyali ishlab chiqarishda xarajatlardagi o'zgarishlar e'tiborga olinmasligini ta'minlash imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo'llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (80) va sotib olingan bahodan (120) yuqori narxda sotmaslik kerak. Shuningdek, angliyaliklar movutidan Portugaliyada (90 dan 100 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar bahosi o'rtasidagi o'zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharoiti» (terms of trade) tushunchasi savdo sharoitini aniqlab olish uchun esa "savdo sharoiti indeks" tushunchasi kiritilgan. Bu indeks quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$\text{Savdo sharoiti indeksi} = \frac{\text{Eksport narxlar indeksi}}{\text{Import narxlar indeksi}} 100 = \frac{Ei}{Ii} 100$$

Indeksning o'sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o'zgarishi hisobiga, unga bo'lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog'liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki etkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste'molidagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to'g'risida ma'lumotlar bersada, ko'pgina kamchiliklardan xoli emas. Ularning eng asosiylaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to'lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq.

Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida er, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini hisobga olgan. Agarda, mehnatning bozor

bahosi ish haqi sifatida gavdalansa, kapitalning bahosi foiz stavkalari ko'rinishida, erning bahosi renta miqdorida aniqlangan.

4. Xeksher – Olinning neoklassik kontseptsiyasi

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchi-olimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlarni (30-yillar) ko'rsatish mumkin.

E. Xeksher va B. Olinlar «Ishlab chiqarish omillariga bog'liq holda narxlarni tenglashishi» qoidasini oldinga surgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, er, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste'moldagi o'zgarishlar kabi omillarga bog'liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan:

1. Mamlakatlar o'zlarida ortiqcha bo'lgan ishlab chiqarish omilini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o'zlarida taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar.

2. Xalqaro savdo yo'lidagi cheklashlar bekor qilinsa tovarlarning turli mamlakatlardagi «omil narxi» (tannarxi) ning tenglashishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi.

3. Mahsulotlar eksporti o'rnini asta sekin ishlab chiqarish omillari eksporti egallaydi.

Agar mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o'rtasidagi nisbat boshqa mamlakatdagiga nisbatan yuqori bo'lsa shu omil bu mamlakatda nisbatan ortiqcha deb hisoblanadi.

Xeksher-Olin kontseptsiyasiga asosan tashqi savdo quyidagi ko'rinishlarga ega: Faraz qilaylik, bir vaqtda ikki mamlakat, ya'ni, «sanoatlashgan» va «agrar» mamlakat faoliyat ko'rsatmoqda.

Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma'lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha er mavjud, ammo kapital etishmaydi.

Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapital talabchan ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakatlar aynan ushbu yo'nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don etishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda ko'proq er resurslari kerak bo'ladi va ular shu yo'nalishga ixtisoslashgan bo'ladilar.

Xeksher–Olin kontseptsiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar 50 yillarda «Leontev taajjubi» yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. V.Leontev AQSh kapital ortiqcha bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan 1947 yilda kapital talabchan emas, balki mehnat talabchan mahsulot eksport qilganligini ko'rsatib berdi. Ya'ni Xeksher-Olin kontseptsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. Keyingi

tadqiqotlar esa AQSh da kapitaldan ko’ra er va ilmiy texnik mutaxassislar nisbiy ortiqcha ekanligi tasdiqlandi. AQSh ishlab chiqarilishida aynan shu omillar ko’proq foydalaniladigan tovarlarning sof eksportyori bo’lib chiqdi.

5.Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari

1948 yil amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V.Stolperlar Xeksher-Olin kontseptsiyasini takomillashtirishdi. Ularning nazariyasi bo’yicha xalqaro savdo – ishlab chiqarish omillari bilan ta’minlanganlik darajasidan notekislik, texnologiyalarining bir-biriga mosligi, raqobatning rivojlanishi va mahsulotlarning harakatchanligi kabi sharoitlarda mamlakatlar o’rtasidagi ishlab chiqarish omillari narxlari tenglashadi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xeksher, B. Olin, P.Samuelson hamda V.Stolperlar tomonidan to’ldirilgan savdo kontseptsiyasiga nafaqat mamlakatlar o’rtasidagi o’zaro foydali savdoni yo’lga qo’yish, balki mamlakatlar rivojlanishi o’rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi

Shuningdek M.Pozner, GXufbauer va R.Vernon tadqiqotlari ham nisbiy ustunlik nazariyasini yana bir bor tasdiqladi. Ular ishchi kuchi nisbatan kimmat turadigan mamlakatlarda ilg’or texnologiyaga asoslangan mehnattalab mahsulot ishlab chiqarish baribir daromadli bo’ladi, degan xulosaga kelishdi. Masalan, mehnattalab sintetik gazlamalarni dastlab fakat ilmiy-gexnikaviy salohiyati yuqori bo’lgan mamlakatlardagina ishlab chiqarish mumkin edi. So’ngra, bu texnologiyani o’zlashtirilishi va keng yoyilishi tufayli sintetik gazlamalarni ishlab chiqarish ishchi kuchi arzon bo’lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga xam ko’cha boshladi. Buning natijasida G’arb ilmiy-texnikaviy omil tufayli o’zi ega bo’lgan nisbiy ustunlikni qullay boshladi.

M. Porterga o’z tadqiqotlari natijasida mamlakat tarmoqlari va firmalarining raqobat ustunligini belgilovchi omillarni ikki guruhga bo’ladi:

1.Asosiy omillar:

-zarur sifatga ega va etarlicha miqdordagi ishlab chiqarish omillarinig mavjud bo’lishi;

-mamlakat ichida mazkur tarmoq mahsulotiga bo’lgan talabning xususiyatlari, uning sifat va miqdor xarakteristikalari;

-mamlakatda ushbu tarmoqqa yo’ldosh va uni ta’minlab turuvchi, jahon bozorida raqobatbardosh bo’lgan tarmoqlarning mavjudligi;

-firmaning strategiyasi, shuningdek ichki bozordagi raqobat xarakteri

2.Qo’shimcha omillar:

-tasodifiy hodisalar;

-tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha hukumat faoliyati.

Mahsulot eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ichida qulay biznes muhitini yaratish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona bojlarining pasaytirilishi, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berish, boshqa xalqaro shartnomalar tuzish orqali milliy korxonalarning chet mamlakatlardagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish kabi tadbirlar ularning raqobat ustunliklarini oshirishga xizmat qiladi.

Xeksher-Olinning neoklassik kontsepsiyasi «Nisbiy ustunlik» nazariyasini omillar bilan ta'minlanganlik nuqtai nazaridan izohlab berdi.

Erkin savdo yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish resurslarni samarali taqsimlanishga yo'l ochib, provardida barcha mamlakatlar uchun iqtisodiy yutuq olib kelishi savdo nazariyalarida isbotlab berilgan.

16-mavzu. TASHQI SAVDO SIYOSATI

Reja

1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari.
2. Importga ta'riflar. Importga tariflar kiritilishining iqtisodiy oqibatlari.
3. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalari va importni kvotalar orqali tartibga solish.
4. Eksport subsidiyalari. Eksport bojlari va eksportni ixtiyoriy cheklash.

1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari.

Biror mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eksport va import hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki bandlilikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, to'lov balansini yaxshilash hamda valyuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan bunday tadbirlar savdo siyosati deb yuritiladi. **Savdo siyosati – byudjet-soliq siyosatining tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishidir.**

Tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davrda esa, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni samarali joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ko'pgina mutaxassis-iqtisodchilar mamlakat iqtisodiyoti va aholisi turmush darajani yaxshilash uchun erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq, chunki, tashqi savdoni cheklashga nisbatan uni erkinlashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ko'proq imkoniyat yaratadi, deb hisoblashadi.

Garchand, erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan foydali bo'lishi mumkin bo'lsada, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti manfaati nuqtai nazaridan erkin savdo hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi.

Tashqi savdoni cheklash usullarining 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g'aznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ba'zilari umuman importni cheklashga va yana boshqasi esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda tashqi savdoni tartibga solishning ta'rif va nota'rif usullaridan foydalaniladi.

Ta'rif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish kirsa, nota'rif usullariga eksporterlar va ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish, kvotalash, litsenziyalash kabilar kiradi.

Bojxona bojlari avvalo import bojlari va eksport bojlariga ajraladi.

Import bojlari davlat byudjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi, ya'ni, ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari deb ataladi.

Bojxona tariflarini ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o'simlik dunyosi), qayta ishlash darajasiga (xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar) ko'ra, taqsimlangan mahsulotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan mahsulot sarxillovchilar (klassifikatorlari) asosida qurilgan.

2. Importga ta'riflar va ularning ishlab chiqaruvchilarga hamda iste'molchilarga ta'siri

Xalqaro savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib tarif, ya'ni importga solinadigan bojxona boji hisoblanadi.

Importga tariflarning maxsus va advalar turlari o'zaro farqlanadi. Maxsus bojlar import qilinayotgan tovarlar birligiga nisbatan o'rnatiladi. Masalan, 1 barel neftga nisbatan 2 evro.

Advalar bojlar import qilinayotgan tovar qiymatiga nisbatan ma'lum foiz tariqasida belgilanadi. Masalan avtomobil xarid narxining 40%.

Har ikkala turdagi import tariflarning oqibatlari deyarli bir xil bo'lib, buni biz quyidagi grafik vositasida ko'rib chiqamiz.

Aytaylik, import tariflari joriy qilingunga qadar ichki ishlab chiqarish hajmi S1, ichki talab hajmi esa D1 teng bo'lgan. Talab va taklif o'rtasidagi farq (D1-S1) import hisobiga qoplangan. Mamlakat iqtisodiyoti yopiq bo'lganida baholar darajasi Re ga teng, talab va taklif muvozanati esa E nuqtada o'rnatilgan bo'lar edi. Mamlakat iqtisodiyoti ochiq bo'lgani va importga cheklovlar yo'qligi tufayli milliy bozordagi narxlar jahon bozori narxlari Rw bilan bir xil. Importga

tarif joriy qilinishi natijasida ichki baholar Rw dan Rd ga qadar ko'tariladi. Natijada:

Import qilinadigan tovarning ichki bahosi = Jahon bozoridagi bahosi +(Jahon bozoridagi bahosi x Tarif stavkasi).



1-rasm. Import tariflari kiritilishi natijalari

Oqibatda ite'molchilar ma'lum bir yo'qotishlarga duch keladilar. Bu yo'qotishlar grafikda a,b,c,d sohalar bilan ko'rsatilgan.

Baholarning ko'tarilishi ilgari raqobatbardosh bo'lmagan ayrim ichki ishlab chiqaruvchilar uchun ham foyda ko'rib ishlashga imkon beradi. Umuman shu sohada band milliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini S1 dan S2 ga qadar oshiradi va S2-S1 hajmdagi mahsulot Pd bahoda sotiladi. Shu hajmdagi mahsulotni iste'molchilar oshirilgan narxda sotib oladilar va **a** sohaga teng yo'qotishga duch keladilar. Ammo, bu yo'qotish ichki ishlab chiqaruvchilarning o'sgan foydasiga aylanadi.

Baholarning o'sishi oqibatida iste'molchilar ko'rilayotgan tovar iste'moli hajmini D1 dan D2 qadar qisqartiradi. Bu yo'qotish grafikda d soha bilan ko'rsatiladi va u hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

S2- D2 oraliq tarif joriy qilingandan so'ngi import hajmi bo'lib, shu hajmda tovarni iste'molchilar ilgarigidan yuqori bahoda sotib oladilar. Buning natijasida ular turmush darajasidagi yo'qotish ro'y beradi. Bu yo'qotish grafikda **s** soha bilan belgilangan bo'lib, u davlat byudjetiga borib tushadi. Ya'ni, bu sohadagi iste'molchilarning yo'qotishi davlatning foyda ko'rishi bilan qoplanadi.

Tarif kiritilishi oqibatida iste'molchilar talabi arzon import tovaridan qimmat ichki tovarga yo'naltiriladi. Iste'molchilarning o'sgan to'lovlari yuqori chegaraviy xarajatga ega, raqobatbardosh bo'lmagan samarasiz ichki ishlab chiqarishni kengayishiga olib keladi. Iste'molchilarning bu yo'qotish **v** sohasi bilan belgilangan bo'lib tarifning «**ishlab chiqarish samarasi**» deyiladi va hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

Iste'molchilarning yo'qotishlari	Ishlab chiqaruvchilar foydasi	Davlat daromadi	Jamiyatning sof yo'qotishi
a + b+ c + d --	a --	s =	b + a

Demak, iste'molchilarning **a** sohadagi yo'qotishlari ishlab chiqaruvchilar foydasining o'sishi hisobiga qoplanadi. Ayni damda iste'molchilar shu tarmoq korxonalari aktsiyadorlari bo'lishsa, ular yo'qotishlarining bir qismi o'sgan dividentlar sifatida qaytadi.

«s» sohada davlat olgan daromadini transfert to'lovlarini oshirish, soliqlarni pasaytirish, byudjet tashkilotlarida ishlovchilar ish haqini oshirishi ko'rinishida iste'molchilarga qaytarishi mumkin.

Ammo «b» Q «d» sohalarda jamiyat sof yo'qotishga duch keladi. Valyuta kursi o'zgarishi bu yo'qotishlarni bir oz qoplashi mumkin. Masalan, 20% li tarif kiritilishi natijasida milliy valyuta 4% ga qimmatlashsa import qilinayotgan tovarlarning milliy valyutada ifodalangan ichki bahosi 20 % ga emas, 16 % ga oshadi. Bu esa tarif kiritilishi oqibatida jamiyatning sof yo'qotish «b» va «d» sohalarning 80 foizini((16 / 20) x 100 q 80) tashkil etishini anglatadi.

Umuman olganda tariflarni kiritilishiga nisbatan bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lib, bu tadbir mamlakat iqtisodiyoti holati, xususiyati va qo'yilgan maqsadlar bilan asoslanadi.

Bojxona tariflarini kirtishni yoqlovchi mutaxassislar fikriga ko'ra import tariflari:

- mamlakat mudofaa sanoatini himoya qilish imkonini beradi;
- mamlakatda bandlilik darajasi o'sishini ta'minlaydi va yalpi talabni rag'batlantiradi, importning nisbatan cheklanishi natijasida sof eksport o'sadi va joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi xolati yaxshilanadi;
- milliy iqtisodiyotdagi yangi tarmoqlarni himoya qilish uchun zarur;
- davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;
- milliy ishlab chiqaruvchilarni demping ko'rinishidagi chet el raqobatidan himoya qiladi;

- iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilg'or siljishlar rag'batlantiriladi va h.k.

Milliy iqtisodiyotning tiklanishi sharoitida ko'pgina davlatlar o'z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida protektsionizm siyosatini qo'llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi» jamiyatda ishsizlik xavfini tug'diradi.

Mamlakatlarda ta'rif mexanizmi orqali tashqi savdo siyosatini yuritish, birinchi navbatda ushbu mamlakatning asosiy tarmoqlari va yangi ishlab chiqarish sohalarining himoyalanganligiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda avtomobilsozlik yangi va istiqbolli soha (tarmoq) hisoblanadi va tabiiyki, tarifli himoyaga muhtoj. Tarmoqni tarifli himoyalanishining haqiqiy darajasini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Masalan, O'zbekistonda yangi mashinalar uchun import boji 40 foizni tashkil qilsin. Ushbu mashinani ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan ehtiyot qismlar asosan chetdan keltirilsin va unga import boji 25 foiz miqdorida o'rnatilsin. Bir dona mashinaning narxi 10000 AQSh dollariga teng bo'lsa, ya'ni bitta avtomobil uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarining narxi 7000 dollar, qo'shilgan qiymat esa 3000 dollarni tashkil etsin.

Avtomobil importiga 40 foiz tarif belgilanganligi uchun har bir avtomobil narxi 4000 dollarga o'sib, tarif bilan birga 14000 dollarni tashkil etadi. Ehtiyot qismlar importiga 25 foizli tarif kiritilishi ularga qilinadigan xarajatlarni 1750 dollarga oshirib 8750 dollarga etkazadi. Oqibatda mahsulot birligiga ehtiyot qismlar xarajati 1750 dollarga oshdi. Qo'shilgan qiymat esa 2250 dollarga (4000 - 1750 q 2250) o'sdi. Shunday qilib, tarif kiritilgandan so'ng mahsulot birligiga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat 5250 dollarni (3000 Q 2250 q 5250) tashkil etdi.

Endi esa soha (tarmoq)ning samarali himoyasi formulasidan foydalanamiz.

Er = (YA – VA) / YA.

Bu erda: Er - sohaning tarif bilan haqiqiy himoyalanganlik darajasi;

YA - bojxona tarifi kiritilgandan keyingi qo'shilgan qiymat;

VA - bojxona tarifi kiritilishidan oldingi qo'shilgan qiymat.

ER = ((3000 + 2250) – 3000) / 3000 =2250 / 3000 = 0,75 yoki 75%

Bu shuni bildiradiki, tayyor avtomobillarga 40% tarif va ehtiyot qismlarga 25% tarifni joriy qilib, davlat milliy avtomobisozlikni haqiqatda 75% tarifli himoyalanganligini ta'minlaydi.

Protektsianizm siyosatining muhim tamoyili ham shundaki, davlat tayyor mahsulotlarga bojni ko'tarish va yarim tayyor mahsulotlarga esa uning miqdorini pasaytirish orqali tarmoqning haqiqiy himoyalanganligini yanada oshiradi.

Agar mamlakatlar bojxona ittifoqiga birlashsalar, unda bojxona tarifi, barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo'lib qoladi. Bojxona tariflari miqdori alohida mamlakatlar iqtisodiyotida va jahon xo'jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Jahonda importga bojxona bojlarining pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda va u ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama muzokaralar asosida mamlakatlar tomonidan rag'batlantiriladi va nazorat qilinadi.

Bojxona bojlarini joriy qilishni qo'llovchi fikrlarga aksincha bo'lgan mulohazalar ham mavjud. Chunki sanab o'tilgan natijalarga boshqa usullar bilan kamroq yo'qotishlar hisobiga ham erishsa bo'ladi degan fikrlar ham qaysidir darajada asoslidir.

Birinchidan, import tariflari iste'molchilar turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, import tariflari kiritilishi oqibatida ular vositasida himoya qilinayotgan tarmoqlarda resurslar samarasiz sarflanadi.

Uchinchidan, tariflarni kiritish va ular stavkasini belgilash masalasida mamlakat imkoniyatlari xalqaro bitimlar bilan cheklangan.

3.Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar va importni kvotalar orqali tartibga solish

Miliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy firmalar raqobatidan himoya qilishning muqobil usuli ularga bevosita subsidiya berish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish subsidiyasining tariflardan afzalligi shundan iboratki, u bir tomondan, milliy ishlab chiqarishni S0 dan S1 gacha o'sishini ta'minlasa (31 - chizma), ikkinchi tomondan, iste'molning mutlaq kamayishiga olib kelmaydi. Chunki, ichki narxlar jahon narxlaridan qimmatlashmaydi.

Subsidiya sharoitida ishlab chiqaruvchilar uchun ichki narxlar darajasi Pd, jahon narxlari Pw darajasiga teng. Shuning uchun, haqiqiy iste'mol hajmi D0 ga teng. Tarif kiritilgan sharoitda esa u D1 gacha kamaygan bo'lur edi. Mamlakat farovonligidagi mutlaq yo'qotish esa «b» sohasidangina iborat bo'ladi. Ayni paytda ishlab chiqarishga berilgan bevosita subsidiyalar ishlab chiqarish xarajatlarining samarali taqsimlanishini kafolatlamaydi, chunki aynan qaysi tarmoqni xalqaro raqobatdan himoya qilishni bilish qiyin bo'ladi. Subsidiyalarni joriy qilgandan so'ng ularni bekor qilish qiyin bo'ladi, raqobat muhiti yo'qoladi hamda bu xarajatlarni moliyalashtirish muammosi kuchayib boraveradi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartibga solish, bandlik darajasini oshirish va yalpi talabni qondirish maqsadida fiskal va pul-kredit siyosatlari qo'llaniladi. Ushbu siyosatlarni qo'llashdan asosiy maqsad mamlakat ishlab chiqarishini xalqaro raqobatdan himoya qilish, ishsizlik darajasini eng past holatga keltirish va xalq farovonligini oshirishdan iborat.



2-rasm. Ishlab chiqaruvchilar subsidiya berilishining iqtisodiy oqibatlari

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usllaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar mazmuniga ko'ra, iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy - huquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash – bu, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishchi va xizmatchilar eksporti hamda moliya operatsiyalarini o'tkazish, xorijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Ularni boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solish, ba'zi hollarda ularni vaqtincha chegaralash va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishining to'xtash hamda savdo balansining tenglashtirish imkonini beradi.

Umuman, import mahsulotlarga beriladigan litsenziyalar quyidagi usullar yordamida joylashtiriladi.

1. Ochiq auktsion – davlat litsenziyalarni yuqori baholarni taklif qilgan ishlab chiqaruvchilarga berishi.

2. Afzal ko'rish tizimi – davlat birinchi navbatda litsenziyalarni ishlab chiqarish hajmi jihatdan yirik bo'lgan firma va kompaniyalarga hech qanday shart va talablarsiz beradi.

3. Xarajat usuli – davlat litsenziyalarni yirik ishlab chiqarish quvvatlariga va resurslarga ega bo'lgan firma va kompaniyalarga beradi.

Mahsulotlar, shuningdek, ishchi va xizmatchilar eksporti va imortiga litsenziyalar berish huquqiga O'zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Mahkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi vazirliklari, shuningdek, Markaziy bank.

Moliya operatsiyalarini o'tkazishga litsenziyalar asosan Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan o'z va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan opreatsiyalarni amalga oshirish, xorijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish huquqini beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlarni, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llaniladi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balanslarini ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvotalash xalq iste'moli mollarini va strategik xom ashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarinigina emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda ham qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatadi.

Hozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga ikkita sabab bor:

1. Tarif stavkalari xalqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim hollardan tashqari vaziyatlarda, mamlakatlar tarif stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan himoya qilish maqsadida kvotalarga e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi.

2. Himoyaga muhtoj tarmoqlar ham importga kvotalar joriy qilishni qo'llaydi. Chunki, tarifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli litsenziyalar olish osonroqdir.

Import kvotalari erkin raqobat sharoitiga ko'proq mos keladi. Tariflarga nisbatan kvotalarni joriy qilishdan ko'riladigan farovonlikdagi yo'qotishlar ikki holatda katta bo'ladi. Birinchidan, kvotalar mahsulotlar import qilayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar yoki xorijiy firmalar monopol hukumronligi darajasini oshirsa. Ikkinchidan, importga litsenziyalar samarasiz joylashtirilsa.

4. Eksport subsidiyalari. Eksport bojlari va eksportni ixtiyoriy cheklash

Ko'pchilik hollarda eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi. Bunda tajriba - konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat byudjetidan imtiyozli kreditlar berish ko'zda tutiladi.

Eksport subsidiyalari turli shakllarda qo'llaniladi. Bularga:

- eksportyor firmalarga yoki xorijiy sheriklarga past foizli kreditlar berish;
- reklama xarajatlarini davlat hisobidan qoplash, bozor konyukturasi haqida tekin axborot etkazib berish;
- firmalarga ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushiga muvofiq soliq imtiyozlarini berish;
- bevosita subsidiyalash kiradi.

Eksport subsidiyalarining berilishi milliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshiradi. Ammo importyor davlatlar tomonidan kiritiladigan kompensatsion import bojlari bu yutuqni yo'qqa chiqarishi mumkin. Oqibatda eksportyor davlat byudjeti yo'qotishga uchraydi, importyor davlat byudjeti esa qo'shimcha daromad ko'radi. Bu tadbir dempingga qarshi kurash ko'rinishlaridan biridir.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib, o'zida qo'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda, jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha, eksport qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi. Masalan, dempingga qarshi bojlar o'z valyuta resurslarini to'ldirish maqsadida jahon bozoriga xom ashyo resurslarini eksport qilishni ko'paytirgan sobiq ittifoqdosh respublikalarga nisbatan faol qo'llanilmoqda.

Eksportga tariflar yoki eksport bojlari kiritilishining oqibati import bojlari kiritilishi oqibatining aynan aksidir. Eksport bojlari kiritishishi sharoitida mahsulotlar ichki bahosi ularning tashqi bahosidan pasayadi. Bunday vaziyatlarda ichki iste'mol o'sadi, ishlab chiqarish va eksport kamayadi. Eksportga bojlarni joriy qilish natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarda yo'qotishga duch bo'ladilar. Tanqi bozordagi baholarga nisbatan ichki bahoning kamayishidan iste'molchilar yutuqqa erishsa, davlat esa daromadga ega bo'ladi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash eksport kvotalarining bir turi bo'lib, xorij mamlakatlarining ayrim mamlakatlarga "ixtiyoriy" eksport miqdorlarini cheklashdan iborat.

Bu erda «ixtiyoriy so'zi» shartli xarakterga ega. Chunki, eksport qilayotgan mamlakat savdo siyosatida o'z hamkorlari tomonidan birorta noxushlikka duch kelmasligi uchun eksport miqdorini cheklaydi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash ikki xil xususiyatga ega:

1. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash milliy iste'molchilar uchun tarif va kvotalarni belgilashga nisbatan ancha sezilarsiz. Shuning uchun iste'molchilar ularni e'tiborsiz qabul qiladilar va hukumatga norozilik bildirmaydilar.

2. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida xorij iste'molchilari ular sotib olayotgan eksport mahsulotiga yuqoriroq narx belgilashlari mumkin.

Shunday qilib, xorijliklar ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida eksportyor ko'rgan yo'qotishlarni narxlarni oshirish hisobiga qoplashadi.

Savdo siyosatini amalga oshirishning ko'rib o'tilgan usullarining har biri ijobiy jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarga ham ega. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi darajasi kuchayib borgani sari tashqi savdo liberallashtirib boriladi. Mamlakatning xalqaro savdo tashkilotlariga a'zo bo'lishi bu jarayonining qonuniy natijalaridan biridir. Tashqi savdoni erkinlashtirilishi iqtisodiyotda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga olib keladi.

17-Mavzu. Valyuta kursi

Reja

1. Valyuta va jahon valyuta tizimi tushunchasi.
2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari.
3. Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar.
4. Xarid qobilyati pariteti.
5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri.

1. Valyuta va jahon valyuta tizimi tushunchasi.

Xalqaro valyuta munosabatlari pulning xalqaro to'lov jarayoniga xizmat qilishi jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo'ldi va rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Tarix davomida jahon puli va xalqaro hisob-kitob shakllari o'zgardi. Bir vaqtda valyuta munosabatlari ahamiyati o'sdi va ularning nisbatan mustaqil darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko'chadigan pul massasalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valyuta tizimi va jahon valyuta tizimlarining shakllanishiga olib keldi. **Valyuta – keng ma'noda mamlakat pul birligini (masalan, so'm, dollar, marka, funt-sterling va hokazo) anglatadi. Qisqa ma'noda valyuta atamasi chet davlatlarning pul belgisi ma'nosida qo'llaniladi. Har bir milliy bozor xususiy milliy valyuta tizimiga ega.**

Milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi natijasida tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lgan jahon valyuta tizimi amal qiladi.

Mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko'paygani sari pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblardagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga ob'ektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi - mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdagi bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek, bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Shunday qilib, **jahon valyuta tizimi - bu, xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanashini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi valyuta munosabatlarining yig'indisidir**. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Xalqaro bitimlarda foydalaniladigan to'lov va kredit vositalarini (oltin, eng rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari, xalqaro pul birliklari);
2. Valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini;
3. Valyuta bozorining ishlash tartibini;
4. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib va qoidalarini;
5. Valyuta yordamida tartibga solish va nazorat qilish tizimini;
6. Valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valyuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimi (Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki).

Hozirgi zamonda xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda asosan uch xil ko'rinishdagi pul vositalari ishlatiladi:

- oltin, hozirda o'zining asosiy to'lov va hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsada, ammo ko'pchilik valyuta zahiralarining sezilarli qismini tashkil etadi va muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qilish va kreditlashni kafolatlash uchun ishlatiladi;
- jahonda asosiy o'rin tutuvchi rivojlangan mamlakatlarning miliiy valyutalari (AQSh dollari, EVRO, Ingliz funt-sterlengi, Yaponiya ienasi va boshqalar);
- xalqaro pul birliklari.

Bunday pul birliklariga shu paytga qadar foydalanilgan EKYu, SDR misol bo'la oladi. Ular barcha mamlakatlar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Xorijda kreditlash va investitsiyalashda, chet ellik ishchi kuchi mehnatiga, shuningdek, mamlakat valyuta zahiralarini yaratishda qo'llaniladi.

Xalqaro valyuta yoki xalqaro to'lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishi kerak bo'lgan talab ularning konvertirlashuvi hisoblanadi. **Valyuta konvertirlashuvi** deganda uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati

tushiniladi. Hozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valyuta – bu, amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valyuta erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyutadir. Bunga misol qilib AQSh, Evropa hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalar valyutalarini kiritish mumkin.

Qisman konvertirlanadigan valyuta – bu, faqat ba'zi xorijiy valyutalarga almashtiriladigan va xalqaro to'lov oborotini qisman qamrab oladigan milliy valyutadir.

Konvertirlanmaydigan valyuta – bu, faqatgina ichki to'lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valyutaga ayirboshlanmaydigan milliy valyutadir.

Konvertirlashni **ichki va tashqi** konvertirlashga ham ajratish mumkin. Ichki konvertirlash rezidentlarining mamlakat ichkarisida xorijiy valyutani sotib olishi, uni saqlab turishi va u bilan ayrim operatsiyalarni olib borishini imkoniyatini aks ettiradi. Tashqi konvertirlashda xorijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valyutalarni konvertirlash ko'pgina mamlakatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlarning muhim maqsadi hisoblanadi.

2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Bozordagi talab va taklif ta'siri natijasida vaqti-vaqti bilan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barqororlashtirish uchun valyuta bozorining amal qilishiga bevosita yoki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud:

1.**Zahiralardan foydalanish**. Valyuta kursini mustahkamlashning ko'proq qo'llaniladigan usuli - rasmiy zahiralar bilan bozorda manipulyatsiya qilish hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, valyuta zahiralari alohida mamlakatlar ixtiyoridagi chet mamlakatlar valyutalarining zahirasidir (Masalan, AQSh dollari, EVRO va h.k.).

2. **Savdo siyosati.** Valyuta bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshqa tadbirlariga savdo va moliyaviy oqimlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilishni kiritish mumkin. Masalan, AQSh dollarining etishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada importni cheklash hisobiga ushlab turish mumkin. Xususan import hajmi boj yoki import kvotalarini kiritish bilan qisqarishi mumkin. Boshqa tomondan mamlakat hukumati eksport uchun milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiya berib, shu orqali xorijiy valyuta taklifini ko'paytirishi mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jahon savdosi hajmini qisqartiradi, uning tarkibini va savdo aloqalarini o'zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikning buzilishiga hissasini qo'shadi. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

3. **Valyuta nazorati**. Boshqa muqobil variant valyuta nazorati hisoblanadi. Valyuta nazorati sharoitida hukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning etishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin, hukumat o'z navbatida chet el valyutasining bu zahirasini turli milliy importyorlar o'rtasida taqsimlaydi. Shu yo'l bilan hukumat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valyutasi miqdoriga cheklaydi.

Valyuta nazorati tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportga subsidiya) kabi valyuta nazorati nisbiy ustunlik tamoiliga asoslangan xalqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, etarli bo'lmagan valyuta resurslari ustidan valyuta nazorati jarayoni, so'zsiz, alohida importyorlarni kamsitilishi bilan bog'liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste'molchining tanlash erkinligiga tajovuz qilish hisoblanadi.

3. Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar

Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayirboshlash orqali olib borilishi tufayli har qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valyuta bahosini yoki valyuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, **valyuta kursi – bu, bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir**. Valyuta kursini o'rnatish **kotirovkalash** deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1 AQSh dollari 975 so'mga, 1 Rossiya rubli 32 so'mga teng va hakozo. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o'rnatiladi. Masalan, 1 o'zbek so'mi 0,001025 AQSh dollariga to'g'ri keladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan. Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valyuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari valyuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlarining ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq holda valyuta kurslarini qabul qilishning bir-biridan farq qiluvchi ikki varianti mavjud.

1. Talab va taklifga asosan aniqlanadigan egiluvchan yoki erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniqlanadigan qat'iy belgilangan valyuta kursi tizimi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida aniqlanadi. Masalan, bir o'zbek so'mining AQSh dollariga almashishini qarab chiqamiz.

Milliy valyuta kursining pasayishi natijasida dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi (32-chizma).



17.1-rasm. Xorijiy valyuta bozori

Dollarga bo'lgan talabning kamayishi D to'g'ri chizig'ida berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar o'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, amerika tovarlari ham ular uchun arzon bo'ladi va bu, o'z navbatida, ularning amerika tovarlariga bo'lgan talabini oshiradi.

Dollarning taklifi (S) kamaysa, so'mda belgilangan dollarning qiymati oshadi (ya'ni, dollarda belgilangan so'mning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amerikaliklar ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, so'mning dollarga nisbatan qiymati pasaysa, u o'z navbatida o'zbek tovarlarining narxi ham pasayganini bildiradi va oqibatda ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo bo'ladi.

O'zbek tovarlarini sotib olish jarayonida ular AQSh dollarini valyuta bozoriga olib chiqadi, chunki, o'zbek tovarlarini sotib olish uchun dollarni so'mga almashtirishadi. Dollarga bo'lgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi dollarning so'mdagi qiymatini bildiradi.

Agarda, dollarning so'mdagi qiymati oshsa, so'm qiymatining pasayganligini yoki qadrsizlanganligini ko'rsatadi. Aksincha, agarda dollarning so'mdagi qiymati pasaysa, so'm qiymatining oshganligini yoki so'mning qimmatlashganligini ko'rsatadi. Bir birlik xorijiy valyutani sotib olish uchun kam miqdorda milliy valyuta sarf qilish milliy valyutaning qimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan so'm qadrsizlansa, dollar so'mga nisbatan qimmatlashadi.

Qayd etilgan valyuta kursi – bu, xorijiy valyutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi bevosita ta'sir qilmaydi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari ta'kidlaydilarki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bog'liq bo'lgan tahlika va noaniqlikni kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo, qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatliligi o'zaro aloqalar jarayondagi ikki sharoitga bog'liq:

- zahiralarning mavjudligi;
- o'z hajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zahiralarini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, valyuta kurslarining talab va taklif ta'siri ostida shakllanish darajasi, o'z-o'zicha kurslar o'rtasidagi nisbatlarga ta'sir etuvchi real jarayonlarni aniqlab bera olmaydi. Chet el valyutalariga talab va taklifga, demak, valyuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va ham tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kurslarining o'zgarishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz:

1.Iste'molchilar didining boshqa mamlakat buyumlariga nisbatan o'zgarishi.

2. Turli mamlakatlarda daromadlardagi nisbiy o'zgarishlar..

3. Bahodagi nisbiy o'zgarishlar.

4. Nisbiy real foiz stavkalari. Faraz qilamiz, AQSh inflyatsiyani quvib o'tish maqsadida « qimmat pul» siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyatsiya sur'atini hisobga olib o'zgartirilgan (korrektirovka qilingan) foiz stavkalari) AQShda boshqa mamlakatlar, masalan, Buyuk Britaniyaga qaraganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSh moliyaviy vositalarni qo'yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifining kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Spekulyatsiya.

Dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'tarilishi to'g'risidagi prognozlar natijasida dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

O'tish davri iqtisodiyotida xorijiy valyutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Banklarni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Chunki rasmiy valyuta zahiralari bir vaqtning o'zida ham to'lov balansi taqchilligini ham ichki spekulyativ talabni qondirish uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'lidir.

Nominal va real valyuta kurslari o'zaro farqlanadi. Nominal valyuta kursi valyutalarning almashinuv kursi deyiladi. Yuqorida biz aynan nominal valyuta kursi haqida fikr yuritdik.

Real valyuta kursi ikki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy bahosidir.

Real valyuta kursi bir mamlakat tovarlari boshqa mamlakat tovarlariga almashishi mumkin bo'lgan nisbatni ko'rsatadi, shu tufayli u **savdo sharoiti** ham deb yuritiladi.

Nominal va real valyuta kurslari o'rtasidagi nisbat quyidagi ko'rinishga ega**.**

$$Er = En \frac{Pd}{Pt}$$

Bu erda : Er – real valyuta kursi; En - nominal valyuta kursi ;

Rd – milliy valyutada ko'rsatilgan ichki baholar darajasi (indeksi);

Rt – xorijiy valyutada ko'rsatilgan chet eldagi baholar darajasi (indeksi).

Har ikkala mamlakatdagi baholar darajasi (indeksi) bir xil bazis yilga nisbatan berilgan. Real valyuta kursining ko'tarilishi (pasayishi) bu mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining pasayganligi (oshganligi) to'g'risida guvohlik beradi.

Pul nafaqat muomala yoki to'lov vositasi, balki jamg'arish vositasi ham hisoblanadi. Iflyatsiya sharoitida jamg'arish vositasi sifatida milliy valyutadan emas, balki xorijiy valyutadan foydalaniladi.

Valyuta bozori, depozitlar (qo'yilmalar) va qimmatbaho qog'ozlar bozori bilan bevosita aloqaga ega. Bunda asosan foiz me'yorlari asosiy ahamiyatga ega. Agarda, foiz me'yorlari baholar o'sishini qoplasa, mijozlar esa moliya institutlariga ishonch hosil qilishsa, jamg'arma bozori valyuta bozoriga asosiy raqobatchi bo'lishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlarning statistik kuzatishlaridan shu ma'lum bo'lganki, depozitlar va qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar o'sishi bilan, valyuta bozorlariga iste'molchilar tomonidan bo'ladigan ta'sir o'z-o'zidan kamayadi.

Sarmoyachilar qanday qilib bo'lsa ham o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan resurslaridan unumli foydalanish va shuningdek, nafaqat o'z resurslaridan, balki xorij aktivlaridan ham foydalanish yo'llarini izlashadi. Chunki, jahon moliya bozorining asosiy qismini kapital aktivlar tashkil etadi.

Agarda, depozit stavkalari oshsa, pul oqimi valyuta kursining oshishiga olib keladi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun, ya'ni, ushbu mamlakat depozitiga o'z sarmoyalarini qo'yishni xohlovchilar uchun ularning valyutalari foiz stavkalaridan keladigan foydadan ko'ra qimmatliroq bo'ladi.

4. Xarid qobilyati pariteti

Bu savolda nominal kurslarga xarid qobiliyati pariteti qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Xarid qobilyati pariteti kontseptsiyasi narxlarning tenglashuvi nazariyasiga asoslanadi. Ya'ni, bir xil tovar turli joylarda har xil narxlarda sotilishi uzoq davom etmaydi Agarda, AQSh dollariga mamlakat ichida chet mamlakatlarga nisbatan ko'proq mahsulot sotib olish mumkin bo'lsa, u holda mamlakat ichkarisida sotib olingan mahsulotni chetga sotish orqali foyda olish mumkin. Oqibatda foyda olish maqsadida xorijga tovar olib chiqish ko'payadi va baholar tenlashishiga sabab bo'ladi.

Xarid qobiliyati pariteti kontseptsiyasiga ko'ra valyuta kursi doimo turli mamlakatlarda baholar darajasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo'lgan darajada o'zgaradi. Ya'ni:

$$r = \frac{Pd}{Pt}$$

Bu erda: r — xorijiy valyutaning milliy valyutadagi bahosi;

Pd — ichki baholar darajasi; Pt — chet eldagi baholar darajasi.

Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va tahlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valyuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muhim ob'ekti hisoblanadi. Davlat bevosita tartibga solish vositasi sifatida valyuta interventsiyasi va diskont siyosatidan foydalanish mumkin.

Diskont siyosatida bank hisob stavkasini oshirib yoki tushirib chet el kapitallari kirishi yoki chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tartibga solishning ko'proq universal usuli valyuta interventsiyasi hisoblanadi. Bunda Markaziy banklar taklifi etarli bo'lmagan, kursi esa yuqori bo'lgan chet el valyutalarini sotadi, ularni taklif ortiqcha va kursi past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib, milliy valyuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi.

Valyuta interventsiyasini qo'llash zahira valyuta fondining miqdori bilan cheklanadi, shu sababli valyutalarni sotish, albatta, ularni sotib olish bilan almashtirib turilishi lozim.

5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri

Real valyuta kurslari jamg'arma va sarmoyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi vertikal to'g'ri chiziq va sof eksport miqdorini ko'rsatuvchi, o'ngdan pastga egilgan egri chiziq kesishgan nuqtada tenglikka erishadi (33-chizma).

Ushbu nuqtada xorijga kredit berish sifatida ko'rsatilgan milliy valyuta taklifi, xorijliklarning ushbu mamlakatdan sof eksportni sotib olishi uchun zarur bo'ladigan milliy valyuta talabi bilan kesishadi. Bu shuni bildiradiki, real valyuta kursi kapital bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha milliy valyuta taklifini joriy operatsiyalar uchun unga bo'lgan talabni tenglashtiradi.

Davlat xarajatlarining oshishi (yoki soliqlarning kamayishi) milliy jamg'armalarni kamaytiradi va (S-I) egri chiziq chapga suriladi (34-chizma). Bu siljishlar xorijiy investitsiyalar uchun milliy valyuta taklifining kamayishini ko'rsatadi.



17.2-rasm. Real almashinuv kursidagi muvozanat

Valyuta taklifining qisqarishi uning real almashtirish kursini oshiradi. Natijada, milliy mahsulotlar xorijliklarnikiga nisbatan qimmatlashadi. Bu esa, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga va importning oshishiga olib keladi. Oqibatda joriy operatsiyalar hisobida taqchillik paydo bo'ladi.Agarda, soliqlarning kamayishi investitsiyalarning oshishiga olib kelsa, milliy jamg'armalar hajmi o'zgarmasa ham (S-I) egri chizig'i yana chapga siljiydi.



17.3-rasm. Valyuta taklifidagi o'zgarishlarning real almashtirish kursiga ta'siri

Investitsion soliq kreditlari ushbu mamlakatga investitsiyalar kiritishni xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishiga olib keladi. Bu esa muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va to'lov balansida taqchillikni keltirib chiqaradi.

Chet mamlakatlardagi rag'batlantiruvchi byudjet-soliq siyosati bu mamlakatlardagi jamg'armalar darajasini kamayishiga olib keladi. Bu esa xalqaro foiz stavkasini oshiradi va kichik ochiq iqtisodiyotdagi investitsiyalar darajasini kamaytiradi.



17.4-rasm. Byudjet - soliq siyosati-ning real almashtirish kurslariga ta'siri



17.5-rasm. Importdagi o'zgarishlar ning eksportga ta'siri

Bunday vaziyatlarda xorijga sarmoya qo'yish uchun taklif qilinayotgan milliy valyuta ko'payadi va (S-I) egri chizig'i o'ngga suriladi (17.4-rasm). Natijada muvozanatli real almashtirish kursi pasayadi, milliy mahsulotlar arzonlashadi va sof eksport ko'payadi.

Importga tarif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi va bu hol grafikda Xn (E)1 egri chizig'ini Xn (E)2 holatiga siljishi sifatida namoyon bo'ladi (17.5-rasm).

Natijada muvozanatli real valyuta kursi oshadi, milliy mahsulotlar qimmatlashadi va sof eksport kamayadi.

Shunday qilib, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib boriladigan protektsionistik savdo siyosati joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobiga ta'sir qilmaydi. Ammo, u muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi. Sof eksport o'zgarmagan bo'lsa ham B nuqtadagi eksport va import hajmi A nuqtadagi eksport va import hajmidan kam bo'ladi. Importga cheklashlarni joriy qilish ichki narxlar darajasi (Pd)ning oshishiga olib keladi.

Shuning uchun ham uzoq davrda nominal valyuta kursi (En) narxlar oshishiga teng tarzda kamayadi. Natijada, o'sgan muvozanatli real valyuta kursi E2 nuqtada barqarorlashadi, ya'ni sof eksport kamayishi ortidan E1 nuqtaga qadar pasaymaydi.

Baholar darajasining ko'tarilishiga javoban nominal valyuta kursining pasayishi sotib olish qobiliyati paritetini tiklaydi.

18-Mavzu: Barqarorlashtirish siyosati

Reja:

18.1. Barqarorlashtirish siyosati tushunchasi va xususiyatlari.

18.2. Siyosatni amalga oshirish va uning oqibatlarida vaqt oraliqlari.

18.3. Siyosat qonun-qoida tomonidanmi yoki mulohazakorlik bilan olib borilishi lozimmi?

18.4. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

18.1. Barqarorlashtirish siyosati tushunchasi va xususiyatlari.

Hukumat siyosatchilari biznes sikliga qanday munosabatda bo'lishlari lozim? Yuqorida keltirilgan ikkita fikr: birinchisi - Federal zahira tizimining sobiq raisining fikri, ikkinchisi - Federal zahira tizimi siyosatining mashhur tanqidchisining - bu savolga javoblar xilma xilligini namoyon etmoqda.

Ba'zi iqtisodchilar, William McChesney Martin kabi, nobarqarorlikni iqtisodiyotga xos bo'lgan xususiyat deb hisoblaydilar. Ular iqtisodiyot doimo yalpi talab va yalpi taklif sohasida to'satdan shoklarga duch keladi deb ta'kidlaydilar. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan pul va byudjet-soliq siyosati o'tkazilmasa, bu shoklar ishlab chiqarish hajmlarida istalmagan va samarasiz tebranishlarga olib kelishi, ishsizlik va inflyatsiya muammolarini kuchaytirishi mumkin. Hammaga tanish bo'lgan fikrga ko'ra, makroiqtisodiy siyosat "shamolga qarshi yurishi", ya'ni turg`unlik sharoitida iqtisodiyotni rag'batlantirib va "qizib ketganda" uning o'sishini sekinlashtirishi lozim.

Milton Fridmanga o`xshagan boshqa iqtisodchilar iqtisodiyot tabiyatan barqaror deb hisoblashadi. Vaqti - vaqti bilan unda yuzaga keladigan kuchli va xatarli tebranishlar uchun javobgarlikni ular noto'g'ri iqtisodiy siyosat zimmasiga yuklaydilar. Ular iqtisodiyotni maqsadga yo'naltirilgan tadbirlar yordamida "nozik sozlash"ni ta'minlashga harakat qilish kerakmasligini isbotlaydilar. Aksincha, iqtisodiy siyosatchilar imkoniyatlari cheklanganligini hisobga olib, zarar yetkazishmaganidan xursand bo'lish kerakligini uqtiradilar.

O`n yillar mobaynida bu masala bo'yicha munozaralarga o'z nuqtai nazarlarini asoslash uchun turli dalillarni ilgari surgan ko'plab qatnashchilar jalb etildilar. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda iqtisodning tebranishlar nazariyasini qo'llash haqidagi masala bu munozaralar diqqat markazida bo'ldi.

Usbu bobda ikkita munozarali masala muhokama qilimiz. Birinchisi: iqtisodiyotni barqarorlashtirishda monetar va fiskal siyosat faol rol o'ynashi

kerakmi yoki ularning roli joriy davrdagi iqtisodiy tebranishlarga moslashishdan iborat bo'lishi lozimmi? Ikkinchisi: iqtisodiy siyosat muayyan yo'ldan chiqmaslikka harakat qilishi lozimmi yoki siyosat namoyandalari o'zlarining shaxsiy qarashlariga ko'ra iqtisodiy sharoitlar o'zgarishini tezlik bilan inobatga olishlari lozimmi?

Federal hukumatning siyosatchilari iqtisodni barqarorlashtirishni o`zlarining asosiy majburiyatlaridan biri deb hisoblashadi. Makroiqtisodiy siyosatni tahlil qilish iqtisodiy maslahat kengashi, Kongriss budjet idorasi, Federal zahira tizimi va boshqa davlat tashkilotlarining xar kunlik majburiyatlariga kiradi. Oldingi boblarda ko`rganimizdek, monetar va fiskal siyosat jami talabga, va shu asnoda, inflyatsiya va ishsizlikka kuchli tasir qilishi mumkin. Qachonki Kengash yoki prezident fiskal siyosatda yoki Federal zahira tizimi monetar siyosatda katta o`zgarishlar amalga oshirishmoqchi bo`lsa, avvalambor, o'zgarishlarni muhokama qilishda ko'zda tutilayotgan chora-tadbirlar inflyatsiya va ishsizlikka qanday ta'sir ko'rsatishi hamda yalpi talabni oshirish yoki qisqartirish zarurligi haqidagi masala diqqat markazida bo'ladi. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatlarini ishlab chiqish va o'tkazish hukumatning an'anaviy vazifalari bo'lishiga qaramay, uning barqarorlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga majburligi haqidagi fikr yuzaga kelganligiga unchalik ko'p bo'lmadi. Hukumat makroiqtisodiy vaziyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligining birinchi dalili 1946 yilda qabul qilingan bandlik to'g'risidagi Qonun bo'ldi. Unda "Federal hukumat to'liq bandlik va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashag yo'naltirilgan siyosatni doimo o'tkazishga majbur"ligi haqida

gapirilgan. Bu qonun qabul qilingan vaqtda Buyuk depressiya haqidagi o'y-hayollar hali yangi edi.

Masalani aktiv davlat siyosati foydasiga hal etish ko'plab iqtisodchilarga oddiy va tushunarli bo'lib ko'rinadi. Pasayish davrlari uchun ishsizlikning yuqori darajasi, daromadlar va aholi farovonligining past darajasi xosdir. Yalpi talab va yalpi taklif modeli qanday qilib to'satdan bo'ladigan shoklar iqtisodiy pasayishlarni yuzaga kelitirishini ko'rsatadi. U shuningdek, qanday qilib monetar va fiskal siyosat bunday shoklarga tezda ta'sir etib iqtisodiy pasayishlarni oldini olishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun, bu iqtisodchilarning fikrlariga ko'ra iqtisodiyotni barqarorlashtirishning bunday vositalarini qo'llashdan voz kechish aqlsizlik bo'lar edi.

Boshqa iqtisodchilar hukumatni iqtisodiyotni barqarorlashtirishga intilishlariga tanqidiy yondoshadilar. Bu tanqidchilar davlat makroiqtisodiy siyosatdan chetda turishi lozim deb hisoblaydilar. Birinchi qarashda bunday nuqtai nazar g'alati tuyulishi mumkin. Agar model xulosalariga ko'ra monetar va fiskal siyosati inqirozni kuchayishini oldini olish yoki yumshatish imkonini bersa, nima

uchun hukumat ular yordamida iqtisodiyotni barqarorlashtirishdan voz kechishi kerak? Bu savolga javob berish uchun ushbu tanqidchilar tomonidan keltiriladigan ba'zi asoslarni ko'rib chiqamiz.

18.2. Siyosatni amalga oshirish va uning oqibatlarida vaqt oraliqlari

Agar siyosatning ta'sirlari natijasi kutishga majbur qilmasa, iqtisodiyotni barqarorlashtirish oson bo`lardi. Siyosatni barpo qilish mashina haydash kabi bo`ladi: iqtisodiyotni kerakli yo`lda saqlab qolish uni asboblar orqali rostlash demakdir. Iqtisodiy siyosatni yuritish katta kemada yo`l ko`rsatishga qaraganda ko'proq mashina boshqarishga o`xshaydi. Moshina yo`nalishini o`zgartirishda rul burilgandan keyin deyarli zudlik bilan yo`nalish o`zgaradi. Aksincha, kemani yo`nalishini o`zgartirish uchun kapitan rulini rostlaydi, keyin yelkanni tiklab o`zgartiradi va uzoq vaqt davomida aylantirishni davom ettiradi. Agar kema haydovchisi endi ish o'rgangan bo'lsa, aylantirish davomida qarama qarshi tomonga kema yo'nalishini o'zgartirguncha katta kichik xatolarga yo`l qo`yiladi.

Kema boshqaruvchisiga o`hshab iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchilar uzoq kechikishlar natijasida muammolarga duch keladi.

Albatta siyosatchilar uchun muammolar qiyinroq kechadi. Chunki uzoq va o`zgaruvchan muddatli davrda monetar va fiskal siyosat yuritishni bashorat qilish oson ish emas.

Iqtisodchilar iqtisodiy siyosatga olib boruvchi ikki muhim vaqt oralig`ini ajratiadilar: ichki va tashqi. **Ichki oraliq** – bu iqtisodiy larza yuzaga kelgan vaqt bilan bunga javoban iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini qabul qilish vaqti o'rtasidagi vaqt oralig'i bo'lib, larza yuz berganligini va unga muvofiq chora-tadbirlarni hayotga tadbiq etishni his qilish uchun qandaydir vaqt zarur bo'lganligi uchun ham yuzaga keladi. **Tashqi oraliq** – bu iqtisodiy siyosatning u yoki bu chora-tadbirlari qabul qilingan vaqt bilan bu chora-tadbirlar o'z natijalarini bera boshlagan vaqt o'rtasidagi vaqt oralig'idir. U bu chora-tadbirlar xarajatlar, daromadlar va bandlik darajalarini birdaniga o'zgarishga olib kelmasligi sababli yuzaga keladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda fiskal siyosatini amalga oshirish uzoq davom etadigan ichki oraliqlar markaziy muammodir. Ayniqsa bu holat AQSH uchun haqiqat, chunki byudjet xarajatlari yoki soliqlarni qayta ko'rib chiqish uchun odatda prezident va Kongressning ikkala palatasi roziligiga erishish zarur. Qonunni qabul qilish jarayoni sekin va murakkab bo'lib, ko`pincha kechikishlarga olib keladi, bu esa iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun fiskal siyosatning mujmal vositasi hisoblanadi. Bu ichki oraliqlar, Buyuk Britaniya kabi parlament tizimidagi

mamlaktlarda kechikishlar qisqaroq bo`ladi, chunki ko`pincha siyosatni muntazam o`zgartirishda hokimiyat tepasidagi partiya amalga oshirishi mumkin.

Monetar siyosatda fiskal siyosatga qaraganda, ichki muddatda kechikishi ancha qisqa vaqt bo`ladi, chunki markaziy bank siyosatni amalga oshirish uchun bir kundan kamroq vaqt ichida qaror qabul qiladi, ammo monetar siyosat sezilarli darajada tashqi uzoq muddat kechishiga ega. Monetar siyosat o`z navbatida pul massasini va foiz stavkalarini o`zgartirib, jami talab va investitsiyalarga tasir ko`rsatadi. Ko`pchilik firmalar uzoq muddatli investitsiya rejalarini ishlab chiqadilar, ehtimol shuning uchun monetar siyosat o`zgarishi natijasida u ishlab chiqilgandan keyin tahminan 6 oygacha iqtisodiy faolyatga tasir qilmaydi deb o`ylangan.

Uzoq muddatli va o`zgaruvchan oraliqlani monetar va fiskal siyosatlar bilan bo`g`liqligi, albatta iqtisodiyotni barqarorlashtirish imkoniyatlarini qiyinlashtiradi. Passiv iqtisodiy siyosat tarafdorlari iqtisodiyotni barqarorlashtirishga urinishlari juda ko’p hollarda nobarqarorlikka aylanib ketadi deb ta’kidlaydilar. U yoki bu chora-tadbirni qabul qilingan va uni iqtisodiyot holatiga ta’siri boshlanishi o’rtasidagi vaqt oralig’ida iqtisodiy vaziyat o’zgarishi mumkin va bunda aktiv siyosat “qizib ketish” holatida bo’lgan iqtisodiyotni yanada rag’batlantirishga, yoki “muzlayotgan” iqtisodiyot o’sishini sekinlashtirishga olib kelishi mumkin.

Aktiv siyosat himoyachilari bunday oraliqlar mavjud bo’lganligi uchun uni ishlab chiqishga qandaydir ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozimligini tan oladilar. Biroq ularning fikricha, siyosat ayniqsa chuqur va davomiy bo’lgan pasayish, 2008-yilda boshlangan iqtisodiy inqiroz kabi, sharoitda butunlay passiv bo’lishi lozim.

Barqarorlashtirish siyosatining “**avtomatik stabilizatorlar**” deb ataluvchi ba’zi chora-tadbirlari shu oraliqlarni qisqartirish uchun maxsus o’ylab topilgan. Ular siyosiy yo’nalishni maxsus o’zgartirishlarsiz iqtisodiy o’sishni to’xtatish yoki rag’batlantirishga imkon beradi. Bunday stabilizatorlarning misoli daromad soliqlari tizimi hisoblanadi: iqtisodiy pasayish davrida fuqarolar va korporatsiyalar daromadlarining qisqarishiga qarab soliq qonunchiligiga qandaydir maxsus o’zgartirishlarsiz soliqlar avtomatik ravishda kamayadi. Xuddi shunday tarzda ishsizlik bo’yicha ijtimoiy tolovlar tizimida ham iqtisodiy pasayish oqibatida ishsizlikni o’sishi to’lovlarni avtomatik ko’payishiga olib keladi, chunki ko'proq odamlar nafaqa olish uchun arizalar bilan murojat qilishadi. Bu avtomatik stabilizatortlar ichki oraliqlarga bog`liq bo’lmagan fiskal siyosatning turini o’zida aks ettiradi.

Iqtisodiyotni bashorat qilish qiyin ish

Iqtisodiy siyosatning natijalari faqat muayyan vaqt oraliqlari orqali namoyon bo'lganligi sababli, barqarorlashtirish siyosatini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun kelgusidagi iqtisodiy vaziyatni oldindan ko'rish zarur. Yarim yoki bir yildan so'ng iqtisodiyot ko'tarilish yoki pasayish holatida bo'lish-bo'lmasligini bilmay turib, ushbu paytda yalpi talabni yo kengaytirish, yoki qisqartirishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni to'g'ri tanlash mumkin emas. Afsuski, iqtisodiyot haqidagi bilimlarning hozirgi darajasida, unda yuz berayotgan jarayonlarni ko`pincha oldindan aytib bo'lmaydi.

Oldindan bashoratlashni uslublaridan biri *ilgarilovchi ko'rsatkichlar indekslarini* qo'llashga asoslangan. IX-bobda muhokama qilganimizdek, ilgarilovchi ko'rsatkichlar indesklari iqtisodiyotning oldindan o`zgarishini ko`rsatadi. Ilgarilovchi ko'rsatkichlar indeklarining keskin tushib ketishi kelgusi oylarda pasayish sodir bo`lishi mumkinligi haqida signal beradi.

Oldindan bashoratlashni boshqa bir uslubi davlat organlari hamda xususiy bashoratlash va tahlil qilish firmalari qo`llaydigan iqtisodiy modellar bilan bog'liq. XI bobda muhokama qilganimizdek, bu murakkab kompyuter modellari katta miqdordagi tenglamalardan iborat bo'lib, ularning xar biri iqtisodiyot rivojlanishining qandaydir tomonini ifodalaydi. Bunda ular monetar va fiskal siyosatda mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqidagi va ularga ekzogen o'zgaruvchi sifatida kiritiladigan neft narxi darajasi haqidagi farazlarga asoslanadilar. Shu asosda inflyatsiya, ishsizlik va boshqa endogen o'zgaruvchilarning ehtimolli miqdorlarini oldindan aytadilar. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bunday bashoratlarning foydaliligi modellarning sifati va ekzogen o'zgaruvchilar dinamikasi haqidagi farazlarning to'g'riligiga to'laligicha bog'liqdir.

18.3. Siyosat qonun-qoida tomonidanmi yoki mulohazakorlik bilan olib borilishi lozimmi?

Ikkinchi mavzu iqtisodchilar o'rtasida muhokama qilinganda iqtisodiy siyosat qonun qoida tomonidan yoki mulohazakorlik bilan boshqarilishi lozim. Siyosat qonun qoida tomonidan boshqarilsa siyosatchilar oldindan qay darajada siyosatni turli vaziyatlarga javob berishini va o`zlarini o`sha mulohaza orqali borishini ta'kidlaydi. Siyosat mulohazakorlik bilan olib borilsa siyosatchilar voqealarni hajmi ular zarur deb hisoblangan siyosatni tanlash imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Qoidalarga va mulohazalarga bog`liq bahslar faol siyosatning passiv nisbatlari ustidan munozara qiladi. Siyosat qonun qoida bilan boshqarilganda aktiv yoki passiv misol uchun passiv siyosat qonun qoidasida barqaror o`sishni yiliga 3

foiz pul talabini ajratish orqali ko`rishimiz mumkin. Foal siyosat qoidasi bo`lishi uchun

Pulning o`sishi = 3%+(ishsizlik darajasi -6%)

Bu qoidaga ko`ra pul massasi 3% ga o'sadi, agar ishsizlik darajasi 6% bo'ladi, ammo har bir foiz ishsizlik darajasi bilan pul bazasi o`sishi 6% ko`proqdir. Bu qoida iqtisodiyotda pul massasini o`sishini kuchaytirish orqali, qachonki iqtisodiyotda turg`unlik bo`lganda barqaror holatga erishtirishga harakat qiladi.

Biz bu qismni nima uchun siyosiy qoidalarni ishonch bilan yaxshilanishi mumkinligini muhokama qilinishi bilan boshlaymiz. Keyin biz mumkin bo'lgan siyosiy qoidlarni bir nechtasini qarab chiqamiz.

Siyosiy jarayon va siyosatchilarning ishonmasligi

Ba'zi iqtisodchilar iqtisodiy siyosatni, siyosatchilarning mulohazakorligini hayot uchun juda muhim bo`ladi deb ishonishadi. Garchi bu qarash iqtisodiyga qaraganda siyosiyroq bo`lsada, iqtisodiy siyosatning qay darajada markaziy o'rinni egallashini ko`rsatadi. Agar siyosatchilar muomilaga layoqatsiz bo`lsa, unda biz ularni xohishga ko`ra pul-kredit va soliq-budjet siyosatining kuchli vositalardan foydalanishini xoxlamaymiz. Iqtisodiy siyosatda maxoratsizlik bir necha sabablarga ko`ra paydo bo`ladi. Ba'zi iqtisodchilar siyosiy jarayonga yengiltaklik bilan qarashadi, balki maxsus qarashli guruhlar kuchlari o'zgarganligi uchundir. Bundan tashqari, makroiqtisodiyot ongli qaror qabul qilishi uchun siyosatchilarda bu haqda yetarli bilim yo`qligini takidlaydi. Bu bilimsizlik noto`gri qarorlarni taklif qilish imkonini beradi, murakkab muommolarni yechimlarini tashqi ko`rinishdan jozibador qilib ko'rsatadi. Bunday yengiltaklik oqibatida siyosiy jarayon ko`pincha obro'li iqtisodchilardan safsatabozlarni maslahatlarini bir-biridan ajrata olmaydi. Iqtisodiy siyosatda opportunizim siyosatchilarning maqsadlari aholi faravonligi yo`lida ziddiyatlar vujudga kelganda paydo bo'ladi. Bazi iqtisodchilar siyosatchilar kabi makroiqtisodiy siyosatdan o`z maqsadlariga erishishda foydalanishlaridan saqlanadilar. Agar aholining ovoz berishi saylov vaqtiga to'g'ri kelsa, siyosatchilar iqtisodiyotni yaxshi qilib ko'rsatishi uchun yaxshi rag`bat oladilar. Prizident kamroq investitsiya darajasi bilan iqtisodiyotda turg`unlikni kelishiga sababchi bo`lishi mumkin, keyingi saylovda kamroq ishsizlik darajasiga erishib, bu saylov kuni inflatsiya va ishsizlikni pasayganligini bildiradi. Iqtisodiyotni mohirona yo`l bilan boshqarish **siyosiy biznes davri** deb atalib siyosiy olimlar va iqtisodchilar tomonidan keng izlanishlar olib borishga sabab bo`lgan[29].

[29] William Nordhaus, " Siyosiy biznes davri", iqtisodiy tadqiqotlar tahriri 42 (1975): 169-190; va Edward Tufte, iqtisodiyotning siyosiy nazorati (Princeton, N.J.: Princeton universiteti nashri, 1978).

Siyosiy jarayonda shubxalarni davom etishi bazi iqtisodchilarni siyosat faoliyatidan tashqarida iqtisodiy siyosatni himoya qilishga olib keladi. Bazilari konstitutsiyaga o`zgartirish kiritishni shuningdek, balanslashgan byudjetni ham o'zgartirishni maqullashadi, bu qonun chiqaruvchilarni qo'lini bog'laydi va iqtisodiyotni ham mahoratsizlikdan, ham opportunizmdan saqlaydi.

Diskret siyosatining mos kelmaydigan vaqti

Agar biz siyosatchilarimizga ishonishimiz mumkin deb tahmin qilsak, bir qarashda qat'iy siyosiy qoida buyukdek ko`rinadi. Diskret siyosat tabiiy ravishda moslanuvchandir. Siyosatchilar aqlli va samimiy bo`lib ko'ringan vaqtlarida ham o`zgaruvchan sharoitlarga moslanuvchan bo'lishlarini inkor qiluvchi oz bo'lsada sabablar mavjud.

Shunday bo`lsada qoidaga binoan **siyosatning vaqtga mos kelmaslik** muommosi kuchayadi. Bazi vaziyatlarda siyosatchilar xususiy qaror qabul qiluvchilar istiqbollariga tasir qilish uchun siyosatni oldindan targ`ib qilishni xoxlashadi. Lekin keyinchalik xususiy qaror qabul qiluvchilar ularning umidlari amalga oshgandan so`ng bu siyosatchilar ularning malumotlariga ishontirishlari mumkin. Siyosatchilarni tushunish vaqt o`tishi bilan xususiy qaror qabul qiluvchilarni siyosiy malumotlarga tasir qilishi mumkin. Bu vaziyatda ular ishonchli malumotlar yaratib siyosatchilar o`zlarini belgilangan qoida siyosatini sodir etishni xohlashadi. Vaqtga mos kelmaslik iqtisodiy misolga qaraganda siyosiy bilan juda oson bo`lishni ko`rsatib garovdagi tutqinlarning ishonchi ustida terroristlar bilan davlat siyosatini muzokora qilib ozod qilishdir. Ko`plab mamlakatlarning elon qilgan siyosatida ular garovdagi tutqinlar bilan bitim tuza olmaydi. Bu deklaratsiyani to`xtatish uchun mo`ljallangan terrorchilarni garovga olinganlar haqida hech narsa xabar qilinmagan bo`lsada oqilona terrorchilar va o`g`irlashda hech kimni tutib bo`lmaydi. Boshqa so`z bilan aytganda bu e'lonni maqsadi terrorchilarning umidi va ularning xulqiga tasir qiladi.

Lekin aslida, siyosatchilar oqilona siyosat qabul qilishmasa mazkur e'lon o`z tasirini ko`rsatadi. Terrorchilar vaqtincha garovga olishganligini biladi, siyosatchilar garovga olish uchun behisob vasvasaga duch kelishadi. Oqilona terrorchilarni to`xtatish uchun yagona yo`l siyosatchilarning ehtiyotkorlik bilan siyosat olib borib shartnoma qoidalariga amal qilishidir.Agar siyosatchilar rozilik berishga qodir bo`lmasa garovdagi terrorchilar bartaraf qilinadi.

Shu muommo monetar siyosatni olib borishda kamroq keskinlikni paydo qiladi. Federal zaxiraning qiyin vaziyatda qaror qabul qilishni muhokoma qilishda inflatsiya va ishsizlikni har ikkalasini o`ylab ko`rishga to'rg'i keladi. Flip egri chizig`iga ko`ra ishsizlik va inflatsiya o`rtasidagi tanlov kutilgan inflatsiyaga bog`liqdir. Federal zaxira har bir kishini past inflatsiya darajasini kutishni afzal

ko`radi shuning uchun qulay murosaga duch keladi. Kutilgan inflatsiyani kamaytirishda monetar siyosatning asosiy maqsadi Federal zaxira inflatsiyani kam deb elon qilishi bo`ladi.

Ammo inflatsiyani kam deb elon qilish siyosati o`zi ham ishonchli emas. Bir marta uy xo`jaliklari va firmalar ish haqi va narxlarni o`rnatishda o`z navbatida o`z inflatsiya tahminlarini shakillantirgan, Federalzaxira bu elonni amalga oshirish uchun ishsizlikni kamaytirib monetar siyosatni amalga oshirish kerak. Odamlar Federalzaxiralarni tushunishni birinchi navbatda rag`batlantirish deb tushungan. Prizident o`z ixtiyoribilan inqirozni keskin kamytirishni Federalzaxirani va ishsizlikni kamaytirish kerak degan buyrug`ini muzokara qilgan. Va xuddi shunga o`xshash terrorchilar hech qachon muzokara siyosatini elon qilmaganda, uy xo`jaliklari va firmalar inflatsiyani kam bo`lish siyosatini elon qilishgan.Bu tahlil kutilmagan natijalarda siyosatchilarni bazan ularni maqsadlariga erishishda ulardan uzoqda bo`lsa yaxshiroq bo`lishi takidlangan. Ongli terrorchilar sababli garovdagi tutqinlarni kamayishi va o`ldirilganligi agar siyosatchilar garovdagi tutqinlarni ozodligini qattiq rad etadi. Monetar siyosat sababli agar Federalzaxira nol foiz inflatsiya siyosatini sodir etsa katta sihsizlik darajasisiz kamroq inflatsiya vujudga keladi. (monetar siyosat haqidagi bu xulosa ushbu bob ilovasida oshkororoq kichraytirilgan nusxada berilgan).

Bu vaqtning mos kelmaydigan siyosati boshqa manolarda ham paydo bo`lishi mumkin.

- investitsiyani kuchaytirish hukumat kapitaldan daromad solig`i bo`lmaganligini elon qiladi. Ammo fabrikalar qurilgandan keyin hukumat o`zining soliq daromadlarini kuchaytrishni vada berganligiga ishontiradi.
- qaytao`rganib chiqishni kuchaytirishda hukumat muntazam kompaniyalarga yangi dori darmon ishlab chiqarish uchun monopoliya berganligini elon qiladi ammo bitta dori yaratilgandan keyinhukumat patentni bekor qilishga yoki dorini bemorlarni bahramand qilishga dorini narxini pasaytirishga ko`ndirgan.
- yaxshi xatti harakatni rag`batlantirishda ota ona farzandi qonun qoidani buzganda uni jazolash kerakligini elon qiladi bola tartib qoidani buzmaganda esa ota ona uni kechirishligini aytadi chunki o`zini bolasini jazolash ota ona uchun yoqimsizdir.
- qattiq ishlashingizni rag`batlantirishda sizning kasbingiz kursni oxirida imtihon elon qiladi. Ammo siz hamma materiallarni o`qib o`rganganingizdan keyin professor imtihonni kechiktirishga ishontiradi shuning uchun uni darajasi keraksiz bo`ladi.

Har bir sabab oqilona moddalar uchun rag`batlantirishni tushunish ularni xatti harkatlariga tasir qiladi. Va yana har bir sababda siyosatchining tasavuridan uzoqda bo`lgan yechimni belgilangan siyosat qoidalari uchun qabul qiladi.

Monetar siyosat uchun qoidalar.

Biz siyosiy qoidalarni mulohazakorligiga ishonsakda, makroiqtisodiy siyosat ustida muzokara tugagani yo`q. Agar Federal zahira tizimi pul va kredit siyosati uchun tartib qoidalarini Federal zahira tizimi ifoda etgan, qaysi qoidani tanlash lozim? Turli iqtisodchilar tominidan taqdim qilingan keling uchta asosiy qoidalarni muhokama qilaylik.

Bazi iqtisodchilar **monetaristlar** deb atalib barqaror darajada pul talabini o`stirish uchun Federal zahira tizimi saqlashni tavsiya qilishadi. Bu pul taminoti barqaror suratlarda kengayib bormoqda. Bu ish haqi bu bobning boshlanishida Milton Fredmon eng yaxshi monitorchi bu monetar siyosatning ko`rinishiga misollardir. Monitorchilar fikricha pul o`zgarishlar taminoti iqtisodiyotning eng katta tebranishlari uchun masuldir. Ular sekin va barqaror o`sishda pul taminoti barqaror ishlab chiqarish, ish bilan bandlik va narxlarni davo qilishadi.

Monetarist siyosati qoidasi ko`pchilik iqtisodiy o`ynab turishlarni taqiqlangan bo`lishi biz tarixan tajribada ko`rganimizdek ammo bazi bir iqtisodchilar eng passiv iqtisodiy qonunmasligiga ishonishadi. Barqaror o`sish pul talabida jami talabni barqarorlashtradi agar faqatgina pul tezligi barqaror bo`lsa. Lekin bazan iqtisodiyot tushkunlikni boshidan kechirganda pul uchun talab, o`shanda beqarorlik darajasiga sabab bo`ladi ko`pchilik iqtisodchilar siyosiy qoidani iqtisodiyotning turli ko`rinishiga moslashish uchun pul talabiga muhtojligiga ishonishadi.

Ikkinchi siyosiy qoidada iqtisodchilar keng nominal YaIMni himoya qilishadi. Bu qoidaga ko`ra Federal zahira tizimi naminal YaIMga rejalashtirgan yo`lni elon qiladi. Agar naminal YaIM ko`tarilsa maqsaddan yuqorida Federal zahira tizimi pul o`sishini kamaytirib jami talabni susaytiradi. Bu maqsaddan pastga tushsa Federal zahira tizimi pulga talabni

kuchaytirib jami talabni kuchaytiradi. Chunki naminal YaIM maqsadi monetar siyosatda pul tezligi o`zgarishiga moslashish ko`pchilik iqtisodchilar ishlab chiqarishni va narxlarni monetar siyosat qoidasiga qaraganda barqarorligiga olib keladi deb hisoblashadi.

Uchinchi siyosiy qoida ko`pincha **inflatsiya maqsadga yo`naltirgan** bo`ladi. Bu qoida tasirida Federal zahira tizimi inflatsiya darajasi uchun bir maqsadni (odatda birdan past) elon qiladi, keyin pul yetkazib berish hajmini foal investitsiya darajasida haqiqiy investitsiya darajasi maqsaddan chetga chiqadi.Naminal YaIMning maqsadiga o`xshab investitsiya yo`naltirilgan

iqtisodiyotning pul tezligini o`zgartiradi. Bundan tashqari investitsiya maqsadini siyosiy afzalligini jamoatga tushuntirish oson bo`lishi uchundir.

Bu qoidalar naminal o`zgaruvchining naminal YaIM yoki narxlar darajasida pul taminoti bilan ifodalanishini unutmasligimiz kerak. Iqtisodiy siyosatni bir marta tasavvur qilib ko`rish real o`zgaruvchilar jihatidan bildiradi. Masalan Federal zahira tizimi maqsadga yo`nlatirilgan ishsizlik darajasi besh foiz bo`lishga harakat qilishi mumkin. Bunga o`xshash qoidalar bilan muommo hech kim tabiy ishsizlik darajasini qancha bo`lganligini aniq bilmaydi. Agar Federal zahira tizimi maqsad uchun ishsizlik darajasini tabiy darajasidan past bo`lganligini tanlasa natijada inflatsiya tezlashadi. Aksincha agar Federal zahira tizimi ishsizlik darajasi uchun maqsadni tabiiy darajadan yuqorida tanlasa deflatsiyani tezlashtiradi. Shuning uchun iqtisodchilar kamdan kam hollarda monetar siyosatni himoya qilib faqatgina real o`zgaruvchilar bian ifoda etiladi, hattoki ishsizlik va real YaIM iqtisodiy ijroning eng yaxshi iqtisodiy ko`rsatgichlari bo`lsa ham.

18.4. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo’nalishlari

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o’rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o’zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo’naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag’batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

ilg’or xalqaro tajribada qo’llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash;

bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug’urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o’ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

2. Tarkibiy o’zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko’rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko’paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo’shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o’tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

printsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o’zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash;

ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag’batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o’rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko’rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko’rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o’rni va ulushini oshirish, ko’rsatilayotgan

xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o’zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo’l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3. Qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o’zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo’shagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog’ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog’ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo’jaliklari, eng avvalo, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko’rsatish bilan shug’ullanayotgan ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini rag’batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo’jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo’yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo’yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo’jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko’rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug’oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob’ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo’lgan qishloq xo’jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo’jaligi ekinlarining yangi selektsiya navlarini

hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat,

qishloq xo’jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko’lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo’lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo’li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo’jalik birlashmalarining mablag’larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko’rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subventsiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob’ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Абакумова О.Г. Макроэкономика: конспект лекций. М.: Приор, 2010г.
7. Ахмедов Д.Қ. Ишмуҳаммедов А.Э., Жумаев Қ.Х., Джумаев З.А. Макроиқтисодиёт. Ўқув қулланма. Т.: “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёт”, 2004. -240 бет.
8. Вечканов Г.С., ВечкановаГ.Р. Макроэкономика; Учебникдлявузов ,4-еизд., дополненное.-СПб.: Питер, 2010.- 350 с.
9. Dornbush R. "Macroeconomics" - Boston. Mcgraw-Hill, 2001.,- 574 p.
10. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A., Jumaev Q.X. Makroiqtisodiyot. O`quv qullanma. T.: “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёт”, 2005. -192 бет.
11. Mankiw N.Gregori. Macroeconomics. 7-thedition. Harvard University. NY.: Worth Publuthers, 2010
12. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики: 5-е изд./ Пер.с анг. - СПб.:Питер, 2012г - 544 с.
13. Самуэльсон, Пол Э., Нордхаус, Вильям Д. Макроэкономика,18-е изд.: пер. с англ,-М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2009.-592 с.
14. Макроэкономика. Теория и российская практика: учебник / под ред. Грязневой А.Г. и Думной П.П.-5-е изд., перераб. И доп.-М.: КНОРУС, 2008.-688 с.

M U N D A R I J A

Kirish……...		4
1	Makroiqtisodiyotga kirish……	5
2	Makroiqtisodiyko'rsatkichlar ……	19
3	Biznes-sikllar va iqtisodiy tebranishlar…….....	29
4	Ishchi kuchi va ishsizlik ……	40
5	Inflyatsiya: sabablari, oqibatlari va ijtimoiy xarajatlar.....	50
6	Yalpi talab - yalpi taklif modeli …….	61
7	Iste'mol va jamg'arish ……..	71
8	Investetsiya va uning iqtisodiyotdagi o`rni……..	84
9	Pul taklifi, pulga talab va bank tizimi ……	96
10	Davlat budjeti. Budjet taqchilligi va davlat qarzi ……	114
11	IS-LM modeli……..……...	125
12	Iqtisodiy o'sish: kapital jamg`arilishi va aholining o'sishi**……...**	140
13	Iqtisodiy o'sishning neoklassik modeli ……..…...	162
14	Ochiq iqtisodiyot. Mandell Fleming modeli**.**…….....	185
15	Xalqaro savdo nazariyasi…… …….	202
16	Tashqi savdo siyosati ……..	209
17	Valyuta kursi.....	218
18	Barqarorlashtirish siyosati.....	228
19	Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.....	242